“Xorijiy til” tushunchasi “ikkinchi til” tushunchasi bilan uzviy

bog'liq.

Xorijiy til yoki *chet til* – maktabda o'rganilgan va funksional jihatdan chegaralangan til bo'lib, asosan millatlararo muloqotda qo'llanadi. Xorijiy til unda so'zlashuvchi, uning egasi bo'lgan xalq ushbu davlatdan tashqarida yashaydigan, fuqarolarning aksariyati uchun ona tili bo'lmagan tildir.

Ikkinchi til shaxsning ona tilidan keyin o'rganadigan tilidir. Keyinchalik hayot tarzi va sharoitga qarab bu til funksional jihatdan yoki ikkinchi til sifatida qo'llanadi, yoxud birinchi o'ringa chiqadi.

Ona tili va xorijiy (yoki o'zga) tilni o'rganish orasida katta tafovut mavjud. Ona tilini inson ongli ravishda o'rganishga intilmaydi, balki kichik yoshidan fikrlashga o'rganish jarayonida o'zlashtiradi. Ona tili bola uchun, avvalo, jamiyatning tajribasini o'zlashtirish vositasi, keyin esa o'z fikrini ifodalash vositasi bo'lib hisoblanadi. Taniqli psixolog L.Vigotskiy buni quyidan yuqoriga qarab, ya'ni ixtiyorsiz va ongsiz ravishda o'rganish deb talqin qilgan [Выготский 1999, 27]. Bu esa maktabdagi til ta'limidan farq qiladi, ya'ni til yuqoridan pastga – tizim, qoidalar majmui sifatida o'rganiladi. Bunda o'quvchiga tilni amaliy egallash uchun zarur bilimlar beriladi. Bu borada olimlar quyidagi fikrlarni bildirganlar.

“Ona tili ilk o'rganilgan va eng ko'p qo'llanadigan til, ona tili bo'lmagan til esa o'rganilishi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan va funksional jihatdan yordamchi tildir” [Арманова 2007, 16].

“Insonning ikkita tuqqan onasi bo'lmaganidek, uning ona tili ham ikkita bo'lmaydi. Biroq “o'rganilgan til insonning hayotida ona tilidan ham muhimroq bo'lib qolishi mumkin” [Костомаров 1991, 10].

“Toshkentda tug'ilib o'sgan tojik millatiga mansub odam uchun tojik tili ona tili bo'lib hisoblanadi; rus tili bilan bir qatorda kundalik muloqot tili bo'lishi ham mumkin, lekin, undan farqli ravishda, hech qanday huquqiy maqomga ega bo'lmaydi, etnik ozchilikning tiligina bo'lib qoladi” [Белинская 2011].

Demak, inson tug'ilganidan boshlab eshitgan va so'zlashishni o'rgangan tilni ona tili, undan keyin o'rgangan tilni ikkinchi til hisoblanadi. Shu tariqa, ikkinchi til ham, xorijiy til ham ona tili bo'lmagan, boshqa tillardir, ya'ni shaxsning bolaligidan o'rgangan, vazifasi jihatdan birlamchi tillari emas.

Bugungi kunda xorijiy tilni o'rganishning bosh maqsadi – til tizimini o'rganishdan ham ko'ra (lingvistik kompetensiya), ko'proq muloqot layoqatiga ega bo'lishdir, ya'ni insonning o'rganilayotgan til vositalari asosida u yoki bu faoliyat doirasida nutqiy muloqotni

olib borishga tayyorligidir. Muloqotga kirisha olish layoqati asosida tilga doir bilimlar, nutqiy ko'nikma va malakalar yig'indisi turadi, bularning barchasi darslar jarayonida shakllantiriladi va o'rganiladi [Щукин 2011, 155].

Ma'lumki, til o'qitish metodikasi pedagogika, lingvistika, adabiyotshunoslik, tarix, tarjimashunoslik, mamlakatshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, psixologiya, psixolingvistika, nutq kommunikatsiyasi nazariyasi kabi fanlarning tutashuvida rivojlanadi. Ushbu fanlarga tayanib, ularning natijalarini integratsiya qilib, metodika o'zining aniq muammolarini ishlab chiqadi, uning o'z tadqiqot predmeti mavjud. O'zbek tili o'zga til vakillariga, ya'ni xorijiy til sifatida qachon o'qitila boshlanganligi haqidagi ma'lumotlar o'lkamiz tarixidagi muhim siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'liq.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish tarixidan

O'zbek tilini o'zga tillar vakillariga o'qitishga asos solinishi XIX asrning 60-yillarida Chor Rossiyasining o'lkamizni bosib olishi va mustamlaka siyosatini amalga oshirishni boshlaganligi bilan bog'liq. Ma'lumki, mahalliy aholining tili, madaniyatini o'rganish, bundan chor siyosatini yuritishda foydalanish uchun Turkiston o'lkasida rus-tuzem maktablari tashkil qilingan. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yilda Toshkentda ochilgan. 1870-yil Samarqandda, 1873-yil Chimkentda ish boshlagan maktablar ham rus-tuzem maktablari deb qayta nomlangan. Bu maktablarning faoliyati 1886-yilda qonuniy tarzda tasdiqlanib, 1917-yilgacha yuritilgan.

Rus-tuzem maktablarini moliyalashtirish aralash tarzda: qisman Turkiston o'lkasi ma'muriyati tomonidan, qisman esa homiylik tomonidan amalga oshirilgan. Dastlab ularda ta'lim 4 yillik bo'lib, ayrimlarida tayyorgarlik sinflari bor edi. Keyinchalik 2 yillik qizlar rus-tuzem maktablari ham ochilgan. Rossiyalik o'qituvchilar kuniga 2 soatdan rus tili va arifmetika fanlarini o'qitib, o'quvchilar bilan rus tilida so'zlashardilar. Mahalliy o'qituvchilar keyingi 2 soat davomida ona tili, arab tili, yozuv, din ilmidan dars berardilar. Ushbu maktablarning o'quvchilari asosan 7–17 yoshda bo'lgan. Shaharlarda kechki rus-tuzem maktablari ham faoliyat yuritgan, ularda haftasiga 3 marta o'qish tashkil qilingan va katta yoshlilar ta'lim olishgan. Birinchi rus-tuzem maktabiga direktor etib V.P.Nalivkin (1852–1918) tayinlangan.

1877-yilda Turkiston o'lkasi xalq o'quv muassasalari noziri etib arabshunos va turkshunos olim N.P. Ostroumov (1846–1930) tayinlangan. U ustoz N.I.Ilminskiyning tavsiyasiga ko'ra o'sha yili

Qozondan Toshkentga yuborilgan edi. Bu yerda u islomshunos olim sifatida izlanishlarini davom ettirib, maorif sohasida mansab pillapoyalaridan ko'tarilgan. N.Ostroumov «Материалы к изучению наречия сартов русского Туркестана» (1898) va «Этимология сартовского языка» (1910) asarlari bilan tanilgani tufayli akademik V.V.Bartold uni "Turkistonshunoslikning otasi" deb atagan.

Mahalliy xalqni boshqarish ehtiyoji ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha, ya'ni o'zaro muloqotni amalga oshirishni ta'minlovchi lug'atlarning yaratilishini taqozo qildi. Bunday lug'atlar dastlab rossiyalik olimlar, davlat xizmati vakillari tomonidan yaratildi. Ular sirasiga A.Starchevskiyning "Переводчик с русского языка на сартовский" (1878), S.Lapinning "Русско-узбекский словарь" (1984), V.Nalivkin va M.Nalivkinalarning "Русско-сартовский и сартовско-русский словарь" (1884) deb nomlangan lug'atlarini kiritish mumkin.

1890-yilda V.Nalivkin Turkiston o'lkasi xalq o'quv muassasalari noziri lavozimiga tayinlanadi. U Turkiston xalqlari tarixi va zamonaviy hayotini ichidan biladigan mutaxassis bo'lib, o'zbek, tojik va arab tillarini egallagan, mahalliy tilda bir necha darsliklar va ko'rsatmalar («Русско-сартовский и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов, с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда» (1884); «Грамматика сартского языка Андиганского наречия» (1884); «Руководство к практическому изучению сартовского языка» (1898, 1911)) tuzgan olim edi. Uni birinchi ruscha-o'zbekcha lug'at muallifi sifatida e'tirof etishgan [Германова 2021].

V.Nalivkinning faoliyati haqida juda qiziqarli manbalar mavjud. Jumladan, u Turkistonga harbiy ofitser sifatida kelganligi hamda Xiva va Qo'qonga qilingan harbiy yurishlarda ishtirok etganligi ma'lum. Tinch aholiga nisbatan qilingan zo'ravonliklarning guvohi bo'lgan Nalivkin iste'foga chiqadi. Uni Farg'ona viloyati Namangan uyezdi boshlig'iga o'rinbosar etib tayinlashadi. 1878-yilda u lavozimini tark etadi va qolgan umrini Farg'ona xalqlarining etnografiyasiga bag'ishlaydi. Namanganning Nanay qishlog'ida yashab, turmush o'rtog'i Mariya Vladimirovna bilan o'zbek tilini mukammal o'rgani-shadi [Лукашова 2021, 15].

Nalivkin madrasa o'quv hayotini isloh qilishni, jumladan, arab imlosi kitobini o'zbek tilida tuzishni, musulmon huquqshunosligi va diniga oid barcha kitoblarni o'zbek tiliga o'g'irishni, arab va fors tilidagi darsliklarni ona tilidagi darsliklar bilan almashtirishni taklif qilgan.

V.Nalivkin 1886-yilda davlat xizmatchilari va harbiy xizmatchilar uchun o'zbek tili kurslarini tashkil qilgan. Mazkur kurslarda til o'rgatish jarayonida Nalivkin tinglovchilarni mahalliy urf-odatlar hamda badiiy adabiyot namunalari bilan tanishtirgan.

1896-yilda o'zbek tili ilk bor Toshkent real bilim yurtida M.S.Andreyev tomonidan o'qitila boshlangan. U Nalivkinning shogirdi va Turkiston Sharq institutining birinchi direktori edi. Andreyev «Руководство для первоначального обучения сартовскому языку в Ташкентском реальном училище» (1896) qo'llanmasini yaratgan. Uning faoliyatini mashhur turkshunos olimlar P.E.Kuznetsov Toshkentda, V.L.Vyatkin Samarqandda davom ettirishgan.

1917-yilgacha rus-tuzem maktablarida S.M.Gramenitskiy, Aliasqar Kalinin, Saidrasul Saidazizovlar rus millati vakillariga o'zbek tilini o'rgatish bilan shug'ullangan. Turkiston hududida yashovchi boshqa millat vakillariga o'zbek tilini o'rgatishga bag'ishlangan dastlabki o'quv qo'llanmalarining yaratilishi aynan shu maktablarning faoliyati bilan bog'liq [Muxitdinova 2021, 13].

O'zbek lug'atchiligining rivojiga jadidchilik harakati vakillari katta hissa qo'shganlar. Xususan, Ishoqxon Ibratning arab alifbosidagi "Lug'oti sitta alsina" nomli 6 tildagi lug'ati (1901), Elbekning "O'zbekcha shakldosh so'zlar lug'ati" (1924), Ashurali Zohiriyning "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at"i (1927), Abdulla Qodiriy va Saxiy Rahmatiyning "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik"i (1934), Abdurauf Fitratning o'zbek tili leksikografiyasiga doir ilmiy ishlari shular jumlasidandir [Hопмаматов 2020, 249]. Shuningdek, o'sha davrda yaratilgan lug'atlarga atoqli tilshunos olim Nazir To'raqulovning "Rus-o'zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug'atchasi" (1922), V.Brilevning jadid adibi Shokirjon Rahimiyning "Kattalar yo'ldoshi" darsligi uchun tuzgan o'zbekcha-ruscha lug'ati (1925), K.K.Yudaxinning "O'zbekcha-ruscha qisqa lug'at"i (1927) o'sha davr uchun yangi va juda kerakli adabiyotlardan hisoblangan.

O'zbek tili o'quv rejasiga asosiy fan sifatida ilk bor 1933-yildan kiritilgan bo'lib, bu davrga kelib o'zbek tili maktablardagina emas, balki oliy o'quv yurtlarida ham o'qitila boshlandi. Xususan, Turkiston Sharq institutida rus guruhlar uchun maxsus o'zbek tili kafedrasining tashkil etilishi va hatto maxsus dastur asosida davlat muassasalarida ham o'zbek tilini o'rganishning tashkil qilinishi o'zbek tilining rus guruhlarida o'qitilishida sezilarli siljishlar bo'lishiga olib keldi.

O'zbek tilini o'zga tillar vakillariga o'qitish metodikasiga mashhur filolog-turkshunos olim V.V.Reshetov (1910–1979) katta hissa qo'shgan. Reshetov Toshkentda tug'ilgan, SAGUda o'zbek

va rus tillaridan dars bergan, rus va turkiy tillarning qiyosiy tipologiyasi, o'zbek dialektologiyasi bilan shug'ullangan. 1940-yilda V.V.Reshetov "O'zbek tilining marg'ilon shevasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1952-yilda "Toshkent viloyatining qurama shevalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Olim o'zbek dialektologiyasida ilk bor qurama shevalarining 49ta lingvistik xaritasini yaratgan [Ашypова 2017, 20].

Turli yillarda o'zbek tili tarixini tadqiq qilgan yirik olimlardan venger sharqshunosi Arminiy Vamberi (1832–1913), rus olimlari V.V.Bartold (1869–1930), Y.D.Polivanovlarning (1891–1938) ishlari soha rivojida muhim o'rin tutadi.

Taniqli turkshunos I.A.Batmanov o'zbek tilini o'qitish metodikasi, o'zbek tovushlari va grammatik materiallarni o'rganish tartibi sohasida faoliyat yuritgan yetuk olim sifatida tanilgan. I.A.Batmanovning o'zbek tili o'qituvchilari uchun yaratgan qator dastur va qo'llanmalari o'sha yillarda o'zbek tili ta'limining didaktik asoslarini yaratishda muhim omil bo'lgan. XX asr o'rtalarida yaratilgan lug'atlar, xususan, I.A.Kissen, K.S.Koblov, R.S.Badalovlarning "O'zbekcha-ruscha qisqa lug'at"i (1942), A.K.Borovkovning "O'zbekcha-ruscha lug'at"i (1959) ko'p yillar davomida qayta-qayta nashr qilingan. O'zbek olimlaridan X.Asalov (1970), Q.Holiqberdiyev (1971), R.Yo'ldoshev (1979), S.Nazarovalarning (1980) ilmiy ishlari ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi rivojiga hissa qo'shgan.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilini davlat tili sifatida mamlakatimizda yashovchi turli millatlar vakillariga o'qitish ta'lim metodikasini rivojlantirishning yangi bosqichini belgilab berdi. O'zbek tili ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda kichik guruhlariga bo'lingan holda o'qitila boshlandi. Ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishda "o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish" deb, keyingi yillarda esa milliy maktablarda o'zbek tilini o'qitishga nisbatan ona tili, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda esa o'zbek tili deb yuritila boshlandi. Maktab ta'limida va ba'zi tadqiqot ishlarida o'zbek tilini o'qitish davlat tili ta'limi deb ham yuritildi [Jo'rayev 2005, 13]. Mustaqillik yillarida o'zbek tilini davlat tili sifatida uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida o'qitish muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Shuningdek, O'zbekistonda va xorijda faoliyat yuritayotgan o'zbek tili o'qituvchilari tomonidan ona tili ingliz, nemis, fransuz, xitoy, koreys, rus tillari bo'lgan o'rganuvchilar uchun o'quv qo'llanmalar hamda lug'alar nashr qilindi.

O'zbek tilini o'qitish metodikasining bugungi holati

Bugungi kunda o'zbek tilini o'zga til vakillariga o'qitish sohasi uni xorijiy til sifatida o'qitish metodikasi darajasiga olib chiqildi. Bu o'zbek tilini dunyoga keng targ'ib qilish, o'zbek tilida so'zlovchilarning tobora ko'payib borishiga yordam beradi.

Sh.Sodiqova o'zbek tilini xorijiy til sifatida jadal o'qitish uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydi:

– kommunikativ-nutqiy, leksik-grammatik materialni ma'lum bir tizim asosida berish;

– imlo qoidalarini o'rgatish;

– og'zaki va yozma nutq ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish;

– lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

– matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

– o'quvchilar so'z boyligi va nutqiy malakasini oshirish;

– o'zbek xalqining milliy-madaniy o'ziga xos jihatlariga oid bilimlarni kengaytirish;

– o'quvchilarni erkin fikrlashga, mustaqil mushohada qilishga undash;

– nutq madaniyati borasida asosiy zaruriy bilimlarni berish [Содиқова 2017].

Shu bilan birga, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning asosiy muammosi sifatida til bilish darajalarini baholash tizimi ishlab chiqilmaganligini ko'rsatish zarur.

Ma'lumki, XX asrning o'rtalarida metodistlar ta'limning har bir bosqichi nihoyasida egallanishi zarur bo'lgan nutq darajasi haqida aniq tasavvur hosil qilish to'g'risida mulohaza yuritishni boshlaganlar. Xususan, har bir sinfda erishiladigan o'sish darajasini aniq ko'rish, unga qanday erishilganlik haqida batafsil ma'lumot olish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. An'anaviy til ta'limiga xos bo'lgan alohida ko'nikma va malakalarni tekshirish amaliyoti samara bermay qo'ydi. O'zga tildagi nutqni egallashning umumiy darajasini aniqlash dolzarb masalaga aylandi.

Tilni egallash darajasi deganda til o'rganuvchining nutqiy ko'nikma-malakalari shakllanganligi darajasi tushuniladi. Dunyoda tilni egallash darajasini aniqlash muammosi xalqaro hamkorlikning rivojlanishi va "Chegarasiz Yevropa" konsepsiyasining shakllanishi bilan paydo bo'ldi. Mazkur konsepsiyada jahonda xorijiy tillarning tarqalishi va o'rganilishiga katta o'rin ajratildi. XX asrning 70-yillaridan boshlab Yevropada o'zga tilda muloqot kompetensiyasi modelini asoslash va uning asosida xorijiy tilni egallash darajalarining

chegaralarini ishlab chiqish bo'yicha faol ish olib borildi. Bu jarayon yakunida 1996-yilda Strasburgda "Zamonaviy tillar: o'rganish, o'qitish, baholash. Xorijiy tilni egallashning Umumyevropa kompetensiyalari" nomli hujjat qabul qilindi. Unda ta'limning maqsadi sifatida tilni egallash darajalarining ko'rsatkichlari (parametrlari) va baholash mezonlari, shuningdek, test texnologiyalarini qo'llagan holda baholash usullari ko'rib chiqilgan. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy, strategik kompetensiyalar belgilandi. Natijada "Xorijiy tilni egallashning Umumyevropa kompetensiyalari" da tilni egallash darajalari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi [Asilova 2023, 22]:

A daraja (boshlang'ich)	B daraja (erkin)	C daraja (mukammal)
A1 – yashash uchun zarur daraja	B1 – o'rta daraja	C1 – yuqori daraja
A2 – o'rta darajaga yaqin daraja	B2 – o'rtadan yuqori daraja	C2 – mukammal daraja

Shu tariqa, mazkur tizim 6 ta o'zaro bog'liq darajani o'z ichiga oladi. Qayd etish zarurki, ushbu darajalar orasidagi chegaralarni belgilash ham, tizimning o'zi ham subyektiv xususiyatga ega. Shu bois uning ishonchliligi til o'rganishning turli omillariga, xususan, maktabda yoki o'quv kursida o'rganish, til o'rganuvchining yoshi, til o'rganishdan maqsad kabilarga bog'liqdir. Ushbu tizimdan foydalanish til ta'limining alohida bo'g'inlari orasidagi uzviylikka erishishga asos bo'la oladi.

Til egallash darajalarini tavsiflash uchun har bir darajada erishilishi kerak bo'lgan malakalarning deskriptorlari (ta'riflari) ishlab chiqilgan. Bu tizim barcha xorijiy tillarni o'qitishda qo'llanishi mumkinligi, tilni amaliy egallashga qaratilganligi, turli yoshdagi va kasbdagi til o'rganuvchilar manfaatlarini aks ettirganligi tufayli dunyoda keng tarqaldi.

XULOSA

Jahon mamlakatlarida o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitilishiga endilikda alohida e'tibor berilayotgani bois, bu borada qilinadigan ishlar ulkan yo'nalishning tizimi, dasturlari, qo'llanmalari, turli mavzularda lug'atlarning ishlab chiqilishini taqozo etadi va hozirgi dolzarb vazifa bajarilishi lozimligini kun tartibiga chiqaradi. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitilishni yanada ommalashtirish uchun o'zbek tilini egallash darajalarini ishlab chiqish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1) o'zbek tilini o'rganishda erishilgan natijalar haqida aniq va xolis tasavvurga ega bo'lish;

2) o'zbek tilida muloqot tajribasiga baho berish, zarur hollar-da ta'lim usullarini takomillashtirish.

Mazkur tizim o'zbek tiliga joriy qilinishi, o'zbek tilini o'rganuvchilarning til tayyorgarligiga bo'lgan yagona talablarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Shunda ona tilimiz dunyoning ko'plab mamlakatlarida o'qitilishiga erishiladi, jahonning mamlakatimizga e'tibori kuchayadi va ayni paytda, Vatanimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeyi yanada oshadi.

Adabiyotlar

- Агманова, А.Е. 2007. Предикативность: теория и моделирование усвоения второго языка. Монография. Павлодар: ЭКО, 259 с.
- Asilova, G.A. 2023. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). Toshkent: Lesson-Press, 163 b.
- Ашурова, Д.У. 2017. Виктор Васильевич Решетов – один из основателей и первый ректор РПИРЯиЛ // Ўзбекистонда хорижий тиллар. Тошкент, №3. Б. 16–18.
- Белинская, Е.П. 2011. Смысловые характеристики понятия «язык» в современной российской этнопсихологии (на материале научных периодических изданий) // Психологические исследования. Москва, №4 (18).**
- Выготский, Л.Г. 1999. Мышление и речь. Изд. 5, испр. Москва: Лабиринт, 352 с.
- Германова, В. 2021. У истоков узбекского литературного языка // Vesti.uz <https://vesti.uz/u-istokov-uzbekskogo-literaturnogo-yazyka/>
- Жўраев, М.Р. 2005. Ўзбек тилини давлат тили сифатида ўргатиш методикасининг шаклланиши (олий ўқув юртларида давлат тили таълими мисолида): Пед. фан. номзоди дис. Тошкент: ТДПУ. 166 б.
- Костомаров, В.Г. 1991. Еще раз о понятии «родной язык» // Русский язык в СССР. Москва, №1. С. 9–15.
- Лукашова, Н.М. 2021. Вклад русской интеллигенции в развитие узбекского языка // “CHRONOS” общественные науки. №2 (22). С. 14–19.
- Muxitdinova, X.S. 2021. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). Toshkent: Vneshinvestprom. 296 b.
- Нормаматов, С.Э. 2020. Жадид адибларининг ўзбек луғатчилиги анъаналари ривожигаги ўрни // Ўзбекистонда хорижий тиллар. №3 (32). Б. 246–256.
- Содиқова, Ш.Б. 2017. Ўзбек тилини хорижий тил сифатида ўқитиш масалалари // XXI аср: фан ва таълим масалалари (илмий электрон журнал). Тошкент, №2.
- Щукин, Н.А. 2011. Методика обучения речевому общению на иностранном языке. Москва: Икар. С. 154–157.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE

Gulshan Asilova¹

Begam Qaraeva²

Abstract:

The Uzbek language is one of the ancient languages and belongs to the Turkic language group of the Altai language family. At the present, the number of Uzbek speakers worldwide exceeds 40 million people. These are primarily residents of Uzbekistan, CIS countries, as well as Europe and the USA, Canada and many other countries who can speak this language fluently and considers Uzbek as their native language. With the growing interest in the history, culture, art, Uzbek literature, national customs and traditions of the Uzbek language, the influence of the Uzbek language in the world is also growing. At the same time, there is a high need for intensive and effective methods of studying the Uzbek language, as well as for modern textbooks and teaching aids. However, there are still many problems in this area. In particular, the teaching of the Uzbek language according to international standards, based on a system of language proficiency levels, has not yet been established. The article tells about the history, development and current state of teaching the Uzbek language to foreigners. The experience gained over many years in the process of teaching the Uzbek language, the peculiarities of teaching the language as a native and foreign language are analyzed.

Key words: *the Uzbek language, language teaching, Russian-native schools, foreign language speaker, native language, second language, foreign language, Uzbek language manuals, Uzbek language dictionaries, descriptors.*

¹Asilova Gulshan Asadovna – Doktor of Pedagogy (DSc), professor, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: asilovagulshan@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8462-7120

²Karaeva Begam Xolmanovna – Doktor of Pedagogy (DSc), Moscow State Linguistic University.

E-mail: karaeva_61@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-7793-6112

For reference: Asilova, G.A., Karaeva, B.X. 2023. "Scientific and theoretical foundations of the methodology of teaching the uzbek language". Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

References

- Agmanova, A.E. 2007. Predikativnost': teoriya i modelirovanie usvoeniya vtorogo jazyka. Monografiya. Pavlodar: EKO, 259 p.
- Asilova, G.A. 2023. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Tashkent: Lesson-Press, 163 p.
- Ashurova, D.U. 2017. Viktor Vasil'evich Reshetov – odin iz osnovatelej i pervyj rektor RPIRJaiL // Uzbekistonda horizhij tillar. Tashkent, №3. Pp. 16–18.
- Belinskaja, E.P. 2011. Smyslovyje harakteristiki ponjatija «jazyk» v sovremennoj rossijskoj jetnopsihologii (na materiale nauchnyh periodicheskix izdanij) // Psihologicheskie issledovanija. Moskow, №4 (18).
- Vygotskij, L.G. 1999. Myshlenie i rech'. Moskow: Labirint, 352 s.
- Germanova, V. 2021. U istokov uzbekskogo literaturnogo jazyka // Vesti.uz <https://vesti.uz/u-istokov-uzbekskogo-literaturnogo-yazyka/>
- Jurayev, M.R. 2005. O'zbek tilini davlat tili sifatida o'rgatish metodikasining shakllanishi (oliy o'quv yurtlarida davlat tili ta'limi misolida): Ped. fan. nomzodi dis. Tashkent, 166 p.
- Kostomarov, V.G. 1991. Eshhe raz o ponjatii «rodnoj jazyk» // Russkij jazyk v SSSR. Moskow, №1. Pp. 9–15.
- Lukashova, N.M. 2021. Vklad russoj intelligencii v razvitie uzbekskogo jazyka // "CHRONOS" obshhestvennye nauki. №2 (22). Pp. 14–19.
- Muxitdinova, X.S. 2021. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. Toshkent: Vneshinvestprom. 296 p.
- Normamatov, S.E. 2020. Jadid adiblarining o'zbek lug'atchiligi an'analari rivojidadagi o'rni // O'zbekistonda xorijiy tillar. №3 (32). Pp. 246–256.
- Sodiqova, Sh.B. 2017. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish masalalari // XXI asr: fan va ta'lim masalalari. Tashkent, №2.
- Shchukin, N.A. 2011. Metodika obucheniya rechevomu obshcheniyu na inostrannom yazyke. Moskow: Ikar. Pp. 154–157.

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA SAMARALI TA'LIM JARAYONNI TASHKIL ETISHDAGI MUHIM ASPEKTLAR

Dilafuz Xidoyatova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada ta'limda o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonini samarali tashkil etishdagi muhim aspektlar tahlil qilingan. Bunda o'zbek tilini o'zga til sifatida o'qitish jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotdagi tajriba-sinov ishlarining natijalari asosida ayrim xulosalar taqdim etilgan. Samarali ta'limni tashkil etishda ta'lim berish shakllari va ularning o'zga tilni o'rgatishdagi o'rni, qolaversa, zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llanilayotga ta'lim modellari, ularning jarayonda kechadigan ko'rinishlari va albatta, bu ta'lim modellarining batafsil tahlillari har bir model yuzasidan keltirilgan. O'zbek tilini o'zga til sifatida o'qitish jarayonida ta'lim berish shakllari va ta'lim modellaridan to'g'ri va samarali foydalanish tamoyillari hamda ularni til o'rgatishda o'ziga xos didaktik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *ta'lim berish shakllari, o'zga tilni o'rgatish, ekstrafoal, faol, introfaol, interfaol ta'lim modellar.*

KIRISH

Zamon shiddat bilan rivojlanib, axborotlar oqimi ko'payib borgan sari ta'lim-tarbiya berish jarayonining an'naviy tashkillashtirilishi ulkan yo'qotishlarga sabab bo'lishi barchaga ayon. Zero, o'qitish jarayonida o'quvchilarga o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda kommunikativ jarayonni yuqori bosqichga ko'tarish, o'quv jarayonini samaradorligini oshirishga, o'quvchilarni til o'rganishdagi tayanch kompetensiyalarini rivojlanishiga sezilarli, ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki bu o'qituvchida har bir darsga ijodiy yondashishni, doimiy ravishda izlanishni, o'z ustida ishlashni talab

¹Xidoyatova Dilafuz Abdugaffarovna – pedagogika bo'yicha falsafa doktori

(Ph.D.), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasi dotsenti.

E-manzil: hidoyatovadilafuz@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-3835-6577

Iqtibos uchun: Xidoyatova, D.A. 2023. "O'zbek tilini o'qitishda samarali ta'lim jarayonni tashkil etishdagi muhim aspektlar". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari 1(5):

etadi. Buning uchun u, eng avvalo, har bir mashg'ulotni o'ziga xos, alohida xususiyatlarga ega holda tashkil etish ehtiyojiga ega bo'lishi lozim. Ehtiyojning yuzaga kelishi uchun o'qituvchi o'z-o'ziga "O'zbek tilini o'zga millat vakillariga qanday qilib oson o'rgatishim mumkin?", "Mashg'ulot o'tishdan maqsadim nima?", "Agar bunchalik zerikarli bo'lsa, nima uchun o'qituvchilikni kasb sifatida tanladim?", "Nahotki, to nafaqaga chiqqunimga qadar mashg'ulotni tashkil etishga, o'quvchilarning taqdiriga nisbatan shunday befarq bo'lsam?", "Bunday holga barham berishning iloji yo'qmi?", "Axir, kasbiy faoliyatim hayotimning muhim qismi-ku, uni shunday mazmunsiz, ma'nosiz o'tishiga yo'l qo'yishim kerakmi?" kabi savollarni berishi va ularga javob topishga urinishi zarur. Savollarga javob topish jarayonida esa, o'zining bu tarzidagi xatti-harakati noto'g'ri, o'ziga va o'quvchilarga nisbatan adolatsizlik ekanligini tushunib yetadi. Natijada o'z ustida ishlash, har bir darsga ijodiy, o'ziga xos yondashish va o'quvchilarga, mavzuga mos yondashishga qaror qiladi.

X.Muxitdinova, R.Niyozmetova, G.Muxammedjanova, S.Adilova, G.Asilova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida, o'zbek tilini o'rgatish jarayonini ijodiy yondashuv asosida tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish o'z ijobiy natijasini berishi haqida xulosalar taqdim etishgan. Zero, ular o'z mohiyatiga ko'ra o'quvchilarni o'zbek tilini o'rganishga qiziqishlarini oshirish, faollikka, ijodkorlikka undash, dars jarayonida qizg'in bahs-munozaralarni yuzaga keltirish orqali fikrlarini o'zbek tilida bayon qilish imkoniyatiga ega.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy va tabiiy jarayonlar muayyan qonuniyatga ega bo'lganligi, har bir ijtimoiy voqelik va tabiiy hodisalar ma'lum tartib asosida kechganidek, interfaol metodlardan foydalanishda ham bir qator qoidalarga amal qilish ularning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Quyida interfaol ta'limni tashkil etish yoki ixtiyoriy shakldagi ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishga oid shartlar to'g'risida so'z yuritiladi.

1. Mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rish. Ko'p holatlarda o'qituvchilarning aksariyati mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishga u qadar jiddiy e'tibor berishmaydi. Bu pedagogik jihatdan noto'g'ridir. Binobarin, yaxshi tayyorgarlik mashg'ulotning tartibli, mazmunli kechishini ta'minlabgina qolmay, berilayotgan bilimlarning o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishiga yordam beradi. Zero, vaqt inson uchun eng qimmatbaho narsalardan biri sanaladi.

Ko'pchilik shaxsiy buyumining qiymatini yaxshi bilgani holda vaqtning qiymatini yetarlicha baholay olmaydi.

Aslini olganda, mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish o'z mutaxassisligini yaxshi bilgan o'qituvchi uchun u qadar qiyin emas. Bunda asosiy e'tibor mashg'ulotning umumiy loyihasini ishlab chiqish hamda maqsadlarni to'g'ri belgilashga qaratilishi zarur. Shuningdek, o'qituvchi o'z oldiga quyidagi savollarni qo'ya olishi lozim:

1) nima haqida gapirishim, nimalarga e'tibor berishim kerak? (mashg'ulotda mantiqiy davomiylilikni ta'minlash);

2) o'quvchilar bilan ishlashda nimalarni inobatga olishim, guruhni asosiy maqsadga qanday yo'naltirishim kerak? (mashg'ulotni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etish);

3) mashg'ulotning samarali kechishi uchun nimalarni tayyorlashim, nimalarga alohida ahamiyat berishim kerak? (mashg'ulotni tashkiliy jihatdan to'g'ri uyushtira bilish).

- uchtdan beshtagacha yoki oltitadan to'qqiztagacha o'quvchilarni qamrab oluvchi ta'lim (kichik va katta guruhlarda ishlash);

- bitta sinf yoki akademik guruh, masalan, 30 nafar o'quvchini qamrab oluvchi ta'lim (jamoaviy ta'lim);

- bir nechta akademik guruhlar, masalan, bir vaqtning o'zida uchta yoki to'rtta guruhlarda yoki ko'p sonli subyektlar ishtirokida tashkil etiladigan ta'lim (ommaviy ta'lim va tashviqotlar).

Tashkiliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar (ta'lim metodlari) ham ta'minlaydi.

"Metod" so'zi yunoncha "tadqiqot", "usul", "maqsadga erishish yo'li" ma'nolarini anglatib, umumiy tarzda muayyan darajada yo'lga qo'yilgan faoliyat ko'rinishi, maqsadga erishish usuli ma'nosini anglatadi. Ma'lum yo'nalishdagi ta'limiy maqsadlarga erishish yo'lida o'qituvchi va o'quvchilar orasida kechadigan faol hamkorlik jarayonida metod asosiy didaktik omil sanaladi. Har bir ta'lim metodi o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtiradi va ta'limning samarali kechishiga hissa qo'shadi. Umuman olganda, ta'lim metodi:

1) o'qituvchining ta'lim berish usullari;


2) o'quvchilarning ma'lum bir yo'nalishdagi axborotlarni o'zlashtirishga erishish usullari;

3) turli didaktik vazifalarni hal etish usullari;

4) o'quv-bilish faoliyati uchun vazifalar yig'indisini tanlash kabi usullardir.

Ta'lim metodlarini tanlash ixtiyoriy xarakterga ega bo'lmaydi. Chetdan qaraganda mashg'ulotda o'qituvchi o'ziga yoqqan metodni tanlagandek va ulardan foydalanayotgandek ko'rinishi mumkin. Aslida esa, o'qituvchi maqsadga erishish yo'lini tanlashda juda ham ko'p mulohaza yuritadi. Obyektiv va subyektiv sabablar, mavjud imkoniyatlar, shuningdek, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan tasodiflar tanlov diapazonini toraytiradi va o'qituvchi ixtiyorida samarali ishlashning sanoqli usullarini qoldiradi.

O'qituvchi har safar ta'lim metodini tanlashda ko'pgina bog'liqliklarni hisobga olishi darkor. Eng avvalo, mashg'ulot jarayonida o'z yechimini topishi zarur bo'lgan asosiy (bosh) maqsad va aniq pedagogik vazifalar aniqlab olinadi va ularga muvofiq umumiy jihatdan ko'zlangan asosiy, shuningdek, oraliq (xususiy) maqsadlarga erishishni kafolatlovchi bir guruh metodlar ko'rib chiqiladi. So'ngra ta'lim jarayonini yuqori darajada tashkil etish imkoniyatini beradigan va maqsadga yo'naltirilgan optimal yo'llar tanlab olinadi (1-rasm).



1- rasm. Ta'lim jarayonining soddalashtirilgan modeli.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda materiallarini o'zlashtirish va ularning imkoniyatlari darajasini o'rganish natijasida maqsadli ta'lim modellaridan foydalanish lozim. Masalan, ekstrafoal, faol (ichki), introfaol, interfaol. Quyida ana shu ta'lim modellari va ularning o'ziga xosliklarini ko'rib chiqamiz.

Ekstrafoal (tashqaridan faol) ta'lim – asosan, mashg'ulotda o'qituvchining yetakchi bo'lishiga asoslanib, o'quvchilar o'rganishi talab etiladigan nazariy bilimlarni o'qituvchining berayotgan axboroti, uning tomonidan uzatilayotgan ma'lumot hamda darsliklar asosida o'zlashtiradilar.

Bunday ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik kuzatilmaydi, o'quvchilarda mashg'ulotga nisbatan qiziqish va rag'bat (motiv) deyarli mavjud bo'lmaydi.

Ta'lim amaliyotida ekstrafoal ta'lim uzoq yillardan buyon

qo'llanib keladi va an'anaviy xarakter kasb etadi.

Faol (ichki) ta'lim – bunda o'quvchi mustaqil ish, berilgan vazifalarini mustaqil bajaradi, ijodiy izlanadi va mavjud bilimlarni o'zlashtiradi. Garchi o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlari uchun qulay imkoniyat yaratilgan bo'lsa-da, biroq ularning o'qituvchi bilan o'zaro hamkorliklari ko'zga tashlanmaydi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari qay darajada to'g'ri tashkil etilayotganligini kuzatish, nazorat qilib borish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, zarur o'rinlarda pedagogik va metodik maslahatlarni berish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omildir.

Introfaol (tashqariga faol) ta'limda asosan o'quvchilarning "Mening fikrim", "Men kimgadir ta'lim berishim mumkin" mazmunidagi yondashuvlari kuzatiladi. Bunda ta'lim jarayoni o'quvchilar tomonidan tashkil etiladi, ular bir-birlariga o'z fikr, xulosalarini o'rgatadilar. Bunda o'qituvchi tashkilotchi, boshqaruvchi, ekspert va kuzatuvchi vazifasini bajaradi, xolos. U hatto ayrim holatlarda "o'quvchi"ga ham aylanib qolishi mumkin.

Interfaol (o'zaro faol) ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida, shuningdek, o'quvchilarning o'rtasida ham o'zaro hamkorlik, hamfikrlik, hamjihatlik yuzaga keladi. Bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilib, shu bilan birga, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta'minlabgina qolmay, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi. O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi hamkorlik harakatlari, o'zaro ta'sirlari va hamijodkorliklari ta'lim jarayonida qo'lga kiritiluvchi barcha muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.




"Interfaol" so'zi (ruscha "interaktiv") ingliz tilidan olingan bo'lib, ("inter" – o'zaro, "akt" – faol harakat, faollik, ta'sirchanlik) o'zaro harakat, birgalikdagi faoliyat ma'nolarini anglatadi. O'zaro, birgalikdagi faoliyat jarayonida o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi orasida ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida tashkil etiluvchi hamkorlik kuzatiladi. Interfaol metodlar yordamida uyushtiriladigan mashg'ulotlarda o'quvchilar o'z fikr, xulosalarini bir-birlariga o'rgatadilar hamda boshqalarning fikr, xulosalarini o'rganadilar, ular ma'lum darajada o'qituvchiga, guruh esa yagona, o'zaro hamkor, hamjihat jamoaga aylanadi.

O'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yuzaga kelishini ta'minlovchi ta'limiy faoliyat

interfaol ta’lim deb yuritiladi. Interfaol ta’limda o’qituvchi va o’quvchilar hamda o’quvchilar o’rtasida yuzaga keluvchi o’zaro munosabat, odatda, u yoki bu muammoni qay tarzda hal etish, qarorlar qabul qilish to’g’risidagi takliflarning ilgari surilishi va yakuniy qaror qabul qilish bo’yicha munozara shaklida namoyon bo’ladi.

Jadval 1

Ta’lim berish modellari sxemasi va ularning asosiy mohiyati

TA'LIM BERISH MODELLARI	SXEMA	O'QUV JARAYONINING MOHIYATI
Ekstrafaol (tashqaridan) ta'lim		Meni kimdir (nima bilandir) o'qitadi
Faol (ichki) ta'lim		O'quvchining faolligi, mustaqilligi ta'minlangan bo'lsa-da, biroq o'qituvchining ishtiroki kuzatilmaydi
Introfaol (tashqariga) ta'lim		O'quvchi-o'quvchiga ta'lim beradi (men kimgadir ta'lim bera olaman)
Interfaol (o'zaro faol) ta'lim		O'zaro hamkorlikda ta'lim olish

Interfaol metodlar turli masalalar va o’zaro munosabatlarning keng qatlamini o’z ichiga oladi. Biroq materialini samarali o’zlashtirish yo’llari qanday bo’lishidan qat’iy nazar, o’quvchilarning shaxsiy tajribalari ta’limning asosiy manbasi bo’lib hisoblanadi.

Yuqorida so’z yuritilgan shakllarda tashkil etiluvchi ta’limning mohiyati umumiy holda 1- jadvalda yanada yaqqol ko’zga tashlanadi.

XULOSA

Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, o’quvchilarning soni, ta’lim yoki o’zaro munosabatning sifati hamda samaradorligini belgilamaydi. “O’zaro hamkorlik”ning muhim jihati uning yuzaga

kelishi bo'lib, shu asosida o'quvchilar muayyan fan asoslarini mustaqil, bir-birlari bilan o'zaro faol munosabatda o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda ekstrafoal, faol va introfaol ta'lim jarayonlariga interfaol metodlarning tatbiq etilishi, ularning samarali kechishini ta'minlash bilan birga, zamonaviy ta'lim uchun o'ta muhim sanalgan o'zaro hamkorlik asosida ta'lim olish uchun ma'lum sharoitlarni vujudga keltiradi. Interfaol shaklda tashkil etiluvchi ta'limning samarasi juda yuqoridir. Shuningdek, o'zga tilni o'rganishda o'zaro hamkorlik til o'rganishdagi psixologik to'siqlarni buzishga, mustaqil fikrini berish uchun motivatsiyaning paydo bo'lishiga, o'ziga va o'zga tilni o'zlashtirishga bo'lgan ishonchini his qilishida muhim asos bo'ladi.

Pedagogik kuzatish hamda anketa-so'rov natijalariga ko'ra bugungi kunda o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonida interfaol metodlarning "qiziqarli" ekanligi o'quvchilar va o'qituvchilarning e'tiborini ko'proq o'ziga tortmoqda hamda ularni ommaviy qo'llashga nisbatan ehtiyoj yuzaga kelishi uchun asosiy sabab bo'lmoqda, degan fikrlar ko'proq bildirilganligi ma'lum bo'ladi. Biroq faqatgina "qiziqarli" metod deb berilgan ta'rif – juda ham to'g'ri fikr emas. Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar ta'lim samaradorligini ta'minlovchi eng optimal metodlar ekanligi tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Qolaversa, o'qituvchini o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda interfaol metodlardan maqsadli, samarali va to'g'ri foydalanishi o'quvchilarni o'zga tilni o'rganishdagi qo'rquvni kamayishiga, o'zida ishonchni his qilishiga, fanga qiziqishini oshishiga, jarayonda faolligini paydo bo'lishiga va eng asosiysi darsni o'zlashtirishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar

- Xidoyatova, D.A. 2017. Interfaol ta'lim modeli vositasida ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar o'zbek tili o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayoni samaradorligini oshirish: diss. falsafa. dok (PhD) 13.00.02.- Tashkent, – 198 b.
- Хидоятова, Д.А. 2020. «Дидактические аспекты использования интерактивных приемов в обучении иностранному языку». Современная наука: актуальные вопросы: 165-168
- Хидоятова, Д.А. 2011. «Формирование у учителя умений и навыков использования интерактивных методов обучения (в условиях повышения квалификации)». Высшее образование сегодня. №11, 2011; 59-63
- Хидоятова Д.А. 2021 г. "Обучение узбекскому языку – актуальная

проблема: на примере интерактивной модели обучения”
Тенденций научных исследований и разработок (IJTSRD),
ISSN: 2456-6470, октябрь Импакт-фактор 6.410. -P-1306-
1309

IMPORTANT ASPECTS IN ORGANIZING AN EFFECTIVE EDUCATIONAL PROCESS IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE

Dilafruz Khidoyatova¹

Abstract

This article analyzes the important aspects of effectively organizing the process of teaching Uzbek as a second language in education. Here, some conclusions are presented based on the results of experimental work in research aimed at increasing the effectiveness of the process of teaching Uzbek as a foreign language. Forms of teaching in the organization of effective education and their role in teaching a foreign language. In addition, the educational models used in the modern educational process, their manifestations in the process and, of course, the detailed analysis of these educational models should be presented in relation to each model. In the process of teaching the Uzbek language as a foreign language, the principles of correct and effective use of teaching forms and educational models, as well as their unique didactic aspects in language teaching, were analyzed.

Key words: *forms of education, teaching a foreign language, extraactive, active, introactive, interactive, educational models.*

References

- Xidoyatova, D.A. 2017. Interfaol ta'lim modeli vositasida ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar o'zbek tili o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayoni samaradorligini oshirish: diss. falsafa. dok (PhD) 13.00.02.- Tashkent, – 198 b.
- Xidoyatova, D.A. 2020. «Didakticheskiye aspekty ispolzovaniya

¹*Khidoyatova Dilafruz Abdugaffarovna* – doctor of philosophy in pedagogy (Ph. D.D.), Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi. Associate professor of the Department of Uzbek language education in foreign language groups.

E-mail: hidoyatovadilafruz@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-3835-6577

For reference: Khidoyatova, D.A. 2021. “Important aspects in organizing an effective educational process in teaching the uzbek language”. Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

- interaktivnix priyemov v obuchenii inostrannomu yaziku». Sovremennaya nauka: aktualniye voprosi: 165-168
- Xidoyatova, D.A. 2011. «Formirovaniye u uchitelya umeniy i navikov ispolzovaniya interaktivnix metodov obucheniya (v usloviyax povisheniya kvalifikatsii)». Vissheye obrazovaniye segodnya. №11, 2011; 59-63
- Xidoyatova D.A. 2021. "Obucheniye uzbekskomu yaziku – aktualnaya problema: na primere interaktivnoy modeli obucheniya" Tendentsiy nauchnix issledovaniy i razrabotok (IJTSRD), ISSN: 2456-6470, oktyabr Impakt-faktor 6.410. -P-1306-1309

PSIXOLINGVISTIKA

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О КОММУНИКАЦИИ

Екатерина Ширинова¹

Аннотация

Коммуникация – уникальный и важный процесс, и этот вопрос интересен и актуален с точки зрения многих областей, таких как языкознание, психология, обществознание, политология. Особенно в последние годы активизация антропоцентристского подхода, ставящего личность в центр всех проблем в науке о языкознании, создает потребность во всестороннем и глубоком изучении проблемы коммуникации. В данной статье даётся толкование таким понятиям и категориям как: коммуникация, личность, категория «Я», идентичность (принадлежность), социальная роль, межкультурная коммуникация.

Ключевые слова: коммуникация, личность, категория «Я», идентичность (принадлежность), социальная роль, межкультурная коммуникация.

ВВЕДЕНИЕ

Коммуникация охватывает все стороны жизни человека. Без коммуникации человек не может взаимодействовать с внешним миром. Ведь в основе любой деятельности человека лежит его общение с окружающим миром (другими людьми, природой, производными искусственного интеллекта). Общение может происходить между человеком и человеком, человеком и природой, человеком и машиной, машиной и машиной и т. д. (рис. 1).

¹Ширинова Екатерина Туракуловна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, старший преподаватель ТашГУУЯЛ имени Алишера Навои.

Э-почта: yekaterina@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-9164-5327

Для цитаты: Ширинова, Е. Т. 2023. «Некоторые соображения о коммуникации». Узбекистан: язык и культура. Вопросы прикладной филологии. 1(5):




Рисунок 1. Участники коммуникативного процесса

Поскольку коммуникация — уникальный и важный процесс, этот вопрос интересен и актуален с точки зрения многих областей, таких как языкознание, психология, обществознание, политология. Особенно в последние годы активизация антропоцентристского подхода, ставящего личность в центр всех проблем в науке о языкознании, создает потребность во всестороннем и глубоком изучении проблемы коммуникации.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

День ото дня увеличивается количество научных работ и литературы по концепции коммуникации и многим связанным с ней вопросам. В частности, проблема коммуникации освещается в сфере межкультурной коммуникации. Этот вопрос анализируется в работах зарубежных, российских и узбекских языковедов [Hirsch, Joseph, Trefil 2002; Hofstede, Hofstede 2004; Judith Martin, Thomas Nakayama. 2010; Садохин 2005; Болдырев 2009; Гузикова 2015; Usmonova, Rixsiyeva 2017; Shirinova 2022; Shirinova 2023]. На основе этой научной и учебной литературы мы попытаемся осветить некоторые аспекты общения.

Как отмечает профессор Ш.Усмонова, коммуникация как понятие научного знания имеет давнюю историю, и существует несколько ее интерпретаций. Например, американский психолог Ю. Рюш (Jurgen Ruesch) отметил, что насчитывается более сорока интерпретаций понятия коммуникация в сферах как антропология, социология, политология, психология, лингвистика и др. Поэтому естественно, что специалисты из разных областей человеческой деятельности сталкиваются с проблемами коммуникации. Сегодня «коммуникация» стала

одним из основных понятий социально-гуманитарного знания. В социологии объектом коммуникации является общество и его составляющие (массовая коммуникация), в психологии межличностная коммуникация, в этнографии коммуникация между этносами. Коммуникация (лат. коммуникация, communis «общий») — передача сообщения, обмен идеями и информацией, т. е. общение [Usmonova, Rixsiyeva 2017, 21].

Коммуникация, в том числе и межкультурная, — это в первую очередь межличностное взаимодействие. личность — относительно устойчивая система поведения индивида, построенная прежде всего на основе включенности в социальный контекст. Стержневым образованием личности является самооценка, которая строится на оценках индивида другими людьми и его оценивании этих других.

Личность — результат взаимодействия биологического, психологического и социального начал. общество воздействует на личность на микро- и макроуровнях. Микроуровень — ближайшее социальное окружение личности (друзья, семья, однокурсники, коллеги по работе и пр.). Макроуровень — социальная среда, то общество, к которому принадлежит личность (человечество вообще на конкретном этапе своего развития, государство, его отдельные структуры). [Гузикова 2015, 44].

Все это влияет на индивида, он осознает, что он часть общества, но именно он управляет своим поведением. То есть то, как человек видит себя и как он объясняет свои действия, составляет личность этого человека, то есть категорию «Я». Исходя из этого, человек видит свои способности.

Источники знания личности о своем я:

1. Ранняя социализация: имеется сильная связь между тем, что родители думают о способностях своего ребенка, и детской я-концепцией;

2. Оценки других людей (концепция «зеркального я» Чарльза Кули (Charles H. Cooley)): человек воспринимает себя на основе того, как другие воспринимают его и реагируют на него. восприятие того, как другие реагируют на нас, называется отраженной оценкой;

3. Самонаблюдение;

4. Социальное сравнение: самонаблюдение + наблюдение за другими;

5. Членство в различных социальных группах — социальная идентичность;

Две стороны я:

1) Я — результат отделения человеком самого себя от окружающей среды, общества;

2) Я — объект самопознания человека (самовосприятие и самопонимание).

Я-концепция может меняться на протяжении всей жизни человека, начиная с осознания ребенком своей «отдельности» от мира, и это может меняться в пожилом возрасте.

Чувство идентичности (принадлежности) такое же, как и наше «я» несмотря на то, что наше «я» меняется на протяжении всей жизни. Однако идентичность (принадлежность) можно объяснить следующим образом: человек делит других на группы по определенным признакам (ценности, групповые установки и т. д.) и чувству отнесения себя к одной из них. Каждый человек может быть членом нескольких социальных групп. В зависимости от характера этих социальных групп существуют разные формы принадлежности.

Социальная идентичность индивида — представление человека о том, кем он является, определяемое принадлежностью к той или иной социальной группе вместе с присущими ей нормами и ценностями. важным является то, что человек рассматривает других людей как членов тех социальных групп, в которые входит он сам («нас»), или же как членов других групп («их»). При этом «мы» — это люди, принадлежащие к группам, членство в которых важно для индивида. например, человек, для которого большое значение имеет его семья и рабочий коллектив, будет относить всех членов этих групп к категории «мы». Соседи по лестничной клетке, сотрудники конкурирующей фирмы... — вообще все, кто не является членом семьи или коллектива, — это «они», чужаки, не входящие в «нашу» группу. Группы, входящие для нас в категорию «мы», составляют часть нашей социальной идентичности. [Гузикова 2015, 46].

Все эти концепты являются важными понятиями коммуникации, и они явно проявляются в межкультурной коммуникации.

Межкультурная коммуникация – это взаимодействие между носителями разных культур. Теория межкультурной коммуникации возникла как самостоятельное научное направление в середине XX века [Садохин 2005, 9].

Для уточнения понятия межкультурная коммуникация прежде всего необходимо проанализировать отдельные струк-

турные термины термина.

Во-первых, нужно знать, что такое культура. Есть много направлений культуры. Понятие культуры изучается в различных гуманитарных науках: антропологии, культурологии, социологии, психологии и других науках, а также в различных межкультурных науках, в том числе в теории межкультурной коммуникации. Но ни в одной из этих дисциплин нет стабильного определения понятия культуры. В широком смысле под культурой понимается все, что было создано и создается в результате деятельности человека. Это не только материальные объекты (орудия труда, бытовая техника, произведения искусства), но и нематериальные - ценности, привычки, традиции, поведение и т.д. Но культура — это не набор предметов и событий. Культура – это система мыслей, верований, ценностей, норм (прежде всего поведения), обычаев, традиций, знаний, характерных для конкретного общества. Причем это общество не обязательно должно быть этнической группой, потому что это может быть относительно большая группа людей. В такой ситуации обсуждаются межэтнические ценности и стандарты. В определенной степени они могут включать в себя различные религиозные культуры, характерные для нескольких этнических групп. Также носителями культуры могут быть и «малые» по сравнению с этносом социальные группы - социальные классы, отдельные поколения людей определенного общества. То есть мы и наши предки можем быть носителями разных культур в определенном смысле.

Есть некоторые трудности в понимании понятия коммуникации, потому что она изучается в рамках разных дисциплин, таких как культура. На данный момент мы ограничимся самым простым определением. По его словам, коммуникация – это процесс обмена информацией.

Поэтому межкультурная коммуникация представляет собой обмен информацией, осуществляемый носителями разных культур, например, коммуникаторы являются носителями разных культур и существенно влияют на процесс общения и определяют его ход. Теория межкультурной коммуникации – это наука, изучающая такое взаимодействие.

Многие особенности теории межкультурной коммуникации можно понять, обратившись к ее истории.

Человечество разделилось на определенные группы и начало общаться с представителями разных культур с момента

возникновения собственных культур.

Изучение культур других народов или групп было интересно и актуально со времен исторического развития всего человеческого рода, но часто носило непостоянный, эпизодический характер: в древних сочинениях, хрониках, дневниках и воспоминаниях путешественников, паломников. Их произведения содержат важные сведения о жизни других народов.

Перечисленные и разъясненные выше концепты, такие как идентичность, принадлежность и социальная роль, в то же время определяют, как человек общается с другими и насколько успешно он участвует в процессе общения. Например, человек, осознающий свою идентичность, к какой социальной группе он принадлежит и какую социальную роль он при этом играет, может вести правильную и эффективную коммуникацию с окружающими. Кроме того, эти вопросы связаны с рядом других социально-психологических аспектов человека (темперамент, уровень знаний, характер и т. д.), что является предметом отдельного исследования. Но важно отметить, что в процессе коммуникации очень важное значение имеет вопрос выбора языка общения, а также уровень владения данным языком коммуникантов. Несмотря на то, что есть мнения о том, что в процессе общения около 80% информации мы передаём невербальными средствами общения, вербальный канал, то есть язык играет доминирующую позицию при коммуникационном акте.

ВЫВОД

В заключение можно сказать, что чем больше человек понимает окружающий его мир, чем больше он познает себя, и чем больше он знает свою личность, тем больше он начинает по-иному видеть все существо. Все эти процессы происходят непосредственно в процессе общения.

Литература

- Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J. 2002. *The New Dictionary of Cultural Literacy*. – Boston, NY.: Houghton Mifflin Company.
- Hofstede G. & Hofstede G. J. 2004. *Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.)*. – Boston: McGraw-Hill.
- Judith Martin, Thomas Nakayama. 2010. *Intercultural communication in contexts. 5th ed.* – New York: McGraw-Hill, - 528 p.
- Садохин А. П. 2005. *Введение в теорию межкультурной коммуникации* / А.П.Садохин. М.: Высш. шк., 310 с.

- Болдырев, В.Е. 2009. *Введение в теорию межкультурной коммуникации*. Курс лекций. –М.: Русский язык, -141 с.
- Гузикова, М. О. 2015. *Основы теории межкультурной коммуникации: [учеб. пособие]* / М. О. Гузикова, П. Ю. Фофанова; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург: Издво Урал.ун-та, — 124 с.
- Usmonova, Sh., Rixsiyeva, G. 2017. *Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma*. Toshkent.
- Shirinova, Y.T. 2022. *Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida* // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September.
- Ширинова, Е. Т. (2023). *KOMMUNIKATSIYANING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK JIHATLARIGA DOIR*. Инновации в технологическом и научном образовании, 2(7), 924–931. Получено с <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/441>

SOME COMMUNICATION CONSIDERATIONS

Ekaterina Shirinova¹

Abstract

Communication is a unique and important process, and this issue is interesting and relevant from the point of view of many areas, such as linguistics, psychology, social science, and political science. Especially in recent years, the activation of the anthropocentric approach, which puts the individual at the center of all problems in the science of linguistics, creates a need for a comprehensive and in-depth study of the problem of communication. This article gives an interpretation of such concepts and categories as: communication, personality, category “I”, identity (belonging), social role, intercultural communication.

Keywords: *communication, personality, category “I”, identity (belonging), social role, intercultural communication.*

¹Shirinova Ekaterina Turakulovna - Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, senior lecturer at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: yekaterina@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-9164-5327

For reference: Shirinova, E. T. 2023. *"Some communication considerations"* Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

Reference

- Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J. 2002. *The New Dictionary of Cultural Literacy*. – Boston, NY: Houghton Mifflin Company.
- Hofstede G. & Hofstede G. J. 2004. *Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.)*. – Boston: McGraw-Hill.
- Judith Martin, Thomas Nakayama. 2010. *Intercultural communication in contexts. 5th ed.* – New York: McGraw-Hill, - 528 p.
- Sadoxin A. P. 2005. *Vvedenie v teoriyu mejkulturnoy kommunikatsii* / A.P.Sadoxin. M.: Vissh. shk., 310 s.
- Boldirev, V.E. 2009. *Vvedenie v teoriyu mejkulturnoy kommunikatsii. Kurs lektsiy*. –M.: Russkiy yazik, -141 c.
- Guzikova, M. O. 2015. *Osnovi teorii mejkulturnoy kommunikatsii*: [ucheb. posobie] / M. O. Guzikova, P. Yu. Fofanova; M-vo obrazovaniya i nauki Ros. Federatsii, Ural. feder. un-t. — Yekaterinburg: Izd vo Ural.un-ta, — 124 s.
- Usmonova, Sh., Rixsiyeva, G. 2017. *Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma*. Toshkent.
- Shirinova, Y.T. 2022. *Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida* // International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. September.
- Shirinova, Ye. T. (2023). *Kommunikatsiyaning ijtimoiy va psixologik jihatlari ga doir*. Innovatsii v texnologicheskom i nauchnom obrazovanii, 2(7), 924–931. <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/441>

SOTSIOLINGVISTIKA

DUNYO MAMLAKATLARIDAGI DAVLAT TIL- LARI MENEJMENTINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Rafiqjon Zaripov¹

Abstrakt

Maqolada dunyo mamlakatlarida qabul qilingan rasmiy ish yurituv tillari, davlat tili menejmenti, ularning huquqiy-me'yoriy asoslari va ushbu davlatlardagi lisoniy vaziyatga to'xtalangan bo'lib, AQShdagi til menejmenti muammolari, shtatlar qonunchiligida til masalalarini boshqarish, ingliz tilining AQSh til boshqaruvidagi ahamiyati, AQShda mavjud mahalliy va nufuzli tillar menejerezatsiyasi, Buyuk Britaniya de-faktosi bo'lgan ingliz tilining Angliya til menejmentidagi nufuzi, mamlakatda ingliz tilidan quyi o'rinlarda turuvchi valli, korn, shotland va shotland-gel tillari boshqaruvi, Ispaniya til boshqaruvida mamlakat va mintaqaviy hukumatlar qabul qilgan qonunlarning ahamiyati, Fransiya til menejmentida Dekson qonuni, Abi qonuni va Tubon qonunlarining o'рни, Rossiya til menejerezatsiyasi Federatsiya Konstitutsiyasi va "RSFSR xalqlarining tillari haqida"gi Qonuniga muvofiqligi masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *rasmiy ish yurituv tillari, davlat tili menejmenti, davlat tili menejmentining huquqiy-me'yoriy asoslari, lisoniy vaziyat, til siyosati, til me'yorlari.*

KIRISH

Jahonda 200 ga yaqin davlatlar BMT tomonidan tan olingan bo'lib, ularning har birida davlat ish yurituvlarini olib boruvchi tillar mavjud. Mamlakatlarning rasmiy tillari shu davlat hududida istiqomat qiluvchi millatlarning tillariga asoslangan yoki referendumlar orqali tasdiqlangan til bo'lishi mumkin. Odatda mamlakatlar o'z mustaqilliklarini e'lon qilishgach yoki istiqloq arafasida rasmiy ish yurituv tillarini ham tasdiqlab oladilar. Bu esa mamlakatning ichki

¹Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-manzil: zaripovrafiqjon@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-2924-4346

Iqtibos uchun: Zaripov R.E. 2023. "Dunyo mamlakatlaridagi davlat tillari menejmentining huquqiy-me'yoriy asoslari". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5):

va tashqi faoliyatida rasman shu tildan foydalanishini namoyon qiladi.

Tillarga bo'lgan e'tiborning yuksalishi dunyoda tillarning roli ortib borayotganligi, funksiyalarining oshayotganligi bilan bog'liq. "Bugungi globallashuv davrida qaysidir millat o'z tilining taraqqiyotini ta'minlamoqchi bo'lsa, uni rivojlantirishga bo'lgan amaliy harakatlarni oshirmog'i darkor" [Zaripov 2021, 16].

Hukumatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy harakatlari bilan uzviy bog'liq holda til siyosati muammolarini ko'rib chiqish ancha samaraliroqdir. Hozirda zamonaviy tadqiqotchilar shu yo'ldan borishni afzal bilmoqdalar. "Til siyosati har doim u yoki bu siyosiy yo'nalishning tarkibiy qismi bo'lib yuzaga chiqadi. Bu har xil davlatdagi muayyan sinflarga yoki ijtimoiy guruhlariga nisbatan ichki siyosat bo'ladimi yoki muayyan davlatlar, guruhlariga nisbatan tashqi siyosat bo'ladimi, ko'pincha shu holatda namoyon bo'ladi" [Shvetser 2012, 148]. Demak, tadqiq jarayonida zamonaviy ko'p millatli davlatlarning o'quv-amaliyotiga e'tibor qaratish lozim.

ASOSIY QISM

Til siyosatini menejerezatsiya qilishda o'lkadagi til holatiga e'tibor qaratish lozim. "Til holati – bu ma'lum bir geografik mintaqalar yoki ma'muriy subyektlar chegaralarida bitta tilning yoki bir nechta tilning mavjud bo'lishi va turli shakllarining tarqalishi" [Mixelchenko 206, 266]. Zamonaviy o'zgarishlarning millat tafakkuriga ta'siri va bu o'zgarishlar jarayonining tilda aks etishi masalalarini aniqlash til taraqqiyoti darajasini namoyon qiladi. Bu esa muayyan tilning ayni vaqtdagi holati demakdir.

Biz mazkur kichik tadqiqotda xalqaro miqyosda keng qo'llanuvchi, shu bilan birga jahonning eng taraqqiy etgan mamlakatlari tili hisoblanuvchi, imkoniyatlari keng bo'lgan xalqaro tillarning mamlakat doirasidagi davlat tili menejmenti, ushbu til qo'llanuvchi davlatdagi til boshqaruvining huquqiy-me'yoriy asoslariga va o'lkadagi lisoniy vaziyatga e'tibor qaratamiz va jahon miqyosidagi holatiga to'xtalamiz.

AQShda davlat tili menejmenti. Ana shunday tillardan eng keng tarqalgani bu ingliz tilidir. Ingliz tili bir necha davlatlarning rasmiy ish yurituv tili hisoblanadi. Quyida ularning eng rivojlanganlari hisoblanuvchi AQSh va Angliyadagi til menejmentiga, ingliz tili menejerezatsiyasiga e'tibor qaratamiz. Aytishimiz mumkinki, til muammolari AQShda davlat mustaqilligini e'lon qilgan davrlardan boshlab shakllangan. Til masalalarini tartibga solish bilan bog'liq

ishlar ushbu davrdan boshlab qonuniy me'yorlar bilan izga solina boshlagan. Shu sababli ham bu boradagi tadqiqotlar dunyoning boshqa davlatlariga qaraganda o'lkada ancha oldin boshlandi. AQShda tillar xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. Bu vaziyatda til bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi tabiiy holat. Shu tufayli ham mamlakatda til masalalarini har tomonlama tadqiq etish avj oldi. Xususan, biz tadqiq etayotgan til menejmenti masalasi ham o'lkada XX asr o'rtalaridan jiddiy tadqiq etila boshlandi.

Til menejmenti, til siyosati, tilni rejalashtirishga oid tadqiqotlar mamlakatdagi til holati, vaziyati, maqomi kabi jihatlarni yoritishga qaratilgan edi. Umuman olganda AQShda til va jamiyat muammolari tadqiqi ushbu davrdan boshlab keng tus oldi.

Olimlar sotsiolingvistikaning qamrovini belgilashda bir xil pozitsiyada bo'lmasalar ham, ularning deyarli barchasining qarashlaricha, til siyosati masalalari sotsiolingvistika tarkibida o'rganilishi lozim. Xususan, U.Brayt sotsiolingvistikaning yetti o'lchovini (dimensions) ko'rsatib o'tadi va o'lchovlarning 7-siga til siyosatini kiritadi:

“Sotsiolingvistikaning qo'llanish doirasi: a) sotsial (ijtimoiy) diaqnoz, b) til tarixi, d) til siyosati;

a) sotsial diaqnoz sotsiologning qiziqishlarini aks ettiradi;

b) til tarixi tilshunos-tarixchi qiziqishlarini aks ettiradi;

d) til siyosati tilni planlashtirish bilan shug'ullanayotganlarga tegishli” [Dadaboyev, Usmonova 2014, 14].

Yuqoridagi o'lchovda soha tarkibida tadqiq etilishi lozim bo'lgan jihatlari qayd etilgan. Shu kabi izlanishlarga asosan til siyosati masalalari sotsiolingvistika tarkibida o'rganilib, qator muvaffaqiyatli tadqiqotlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

AQSh lisoniy vaziyatiga to'xtalsak, aholini ro'yxatdan o'tkazishning 1990-yilgi hisobotida 329 ta til mamlakatda mavjudligi qayd qilingan. Hisobotga 175 ta tilni o'z ichiga oladigan 55 ta sof mahalliy tillar kiritilgan [Campbell 2000, 107]. Dunyo bo'ylab immigratsiya oqimining Amerikaga yo'nalgan kata qismi ular bilan birga jahonning qator so'zlashuv tillarini ham kiritdi. Qayd etilgan hisobotga ko'ra, 31.844.979 kishi (5 yosh yoki undan katta), ya'ni AQShda tug'ilgan 60% aholining taxminan 13% uyda ingliz tilidan boshqa tilda so'zlashadi. Ozchilik til (minority-language)da so'zlashuvchilarning 2/3 qismi 8 ta shtatda to'plangan [Campbell 2000, 107].

Shu o'rinda dunyoning nufuzli tillari hisoblangan, AQShda ingliz tilidan keyin so'zlashuvchilari soni jihatidan yuqori o'rinni

eganlovchi ispan, fransuz, nemis tillarining mamlakatdagi holati, tarqalishi, qonuniy pozitsiyasi va menejmentiga e'tibor qaratsak. Chunki ushbu tillar nafaqat rasman davlat tili hisoblanuvchi mamlakatlarda, balki AQShda ham so'zlashuvchilari soni bo'yicha yuqori o'rin kasb etadi.

Avvalambor, ispan tilining mamlakatdagi o'rniga e'tibor qaratsak. AQSh dunyoda ispan tilli aholi yashaydigan to'rtinchi katta davlatdir. 1993-yildagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bu mamlakatda 22.8 million doimiy yashovchi ispanlar qayd qilingan. Bu jami aholining 8.9 foizini tashkil qiladi. Ularning 64%ini meksikaliklar, 11%ini puertorikanlar va 5%ini kubaliklar (hamda 20%ni boshqalar) tashkil qiladi [Lippi-Green 1997, 229].

Amerika Qo'shma Shtatlarida ingliz tilidan keyin ispan tili ikkinchi eng keng tarqalgan til hisoblanadi. Amerika hamjamiyatining AQSh aholini ro'yxatga olish byurosi tomonidan o'tkazilgan 2012-yildagi so'roviga ko'ra, besh va undan katta yoshdagi 38,3 million kishi uyda so'zlashadigan asosiy til ispan tilidir. Bu 1990-yildagidan ikki baravar yuqori ko'rsatkich.

Endi e'tiborimizni mamlakatda fransuz tilining tarqalishi va tutgan o'rniga qaratsak. Amerikada fransuz tilining qo'llanishi XVII asrdan yuksala boshlagan. Qayd etish joizki, mamlakatda fransuz tilining qo'llanish darajasi turli shtatlarda turlicha. Jumladan Luizianada eng ko'p fransuz tili jamoalarini uchratish mumkin. Hozirgi kunda Amerikada fransuz tilining bir necha ko'rinishlari amal qiladi. Xususan, Luiziana frantsuz tili, Nyu-England fransuz tili, Missouri fransuz tili, Michigan shtatida Pays denHautda aholi, Metiz fransuz tili va boshqalar shu lar jumlasidan.

Amerikada ispan tilidan keyin eng ko'p organiladigan chet tili sifatida fransuz tili qayd etiladi. 2007-2008-yillarda boshlang'ich sinflardan to o'rta maktabgacha bo'lgan 1,2 miliongga yaqin o'quvchi fransuz tili kurslariga yozilgan. Bu chet tilida ro'yxatga olingan barcha o'quvchilarning 14%ini tashkil qiladi [https://en.wikipedia.org/wiki/French_language_in_the_United_States-#Local_communities].

AQShda nemis tilining ham ahamiyati va o'rni yuqori. Shu sabab mamlakatdagi nemis tili holatiga ham e'tibor qaratish bizningcha maqsadga muvofiq. AQShga 1880-yillarda nemislarning eng katta oqimi 1.5 miliongga yaqin nemis tilida so'zlashuvchilar ko'chib keldi. Qo'shma Shtatlarga kelgan muhojirlar so'zlashadigan nemis lahjalari va mintaqaviy yuqori nemis shakllari keyinchalik Amerikada turli xil nemis tili so'zlashuv turlarining shakllanishiga olib keldi. Amerikalik nemislarning aksariyati yangi til muhitiga

tez moslashdi. Immigratsiyadan keyingi avlodlar ingliz tilida soʻzlashuvchi monolingvlarga aylandilar.

Qayd etilgan tillar bilan birga, shtatlardagi boshqa tillar ham rasmiy til maqomini olishga muvaffaq boʻlmoqda. Quyidagi havolada 2020-yil holatiga koʻra AQShda ingliz tilidan keyin soʻzlashuvchilari soni yuqori surʼatda oʻsib borayotgan tillarni koʻrishingiz mumkin: [<https://blog.lingoda.com/en/what-is-the-official-language-of-the-united-states/>].

AQShda eng koʻp ishlatiladigan til Amerika ingliz tili hisoblanadi. Bu esa amalda milliy tilni ifodalaydi. Bu tilda mamlakat aholisining taxminan 80%i muloqot qiladi. Amerikaliklarning katta qismi uy sharoitida koʻplab boshqa tillardan foydalanadilar. Xususan, ispan tilida 13,2% aholi gaplashadi.

AQShda 1980-yildan buyon ingliz tiliga rasmiy til maqomini berish qonuni loyihasi muhokamalar markazida.

1986-yilda Kaliforniya shtatida ingliz tiliga rasmiy maqom berish haqidagi referendumda ovoz berildi. Aynan shu yili 24 ta shtatda ham bunday qonunga ovoz berildi. Shuningdek, Michigan, Nyu-Meksika, Oregon, Rod-Aylend va Vashington “Ingliz tili-plyus” (“English-plus”–ingliz tili plyus boshqa tillar) qonuni qabul qilindi [Baron 1990, 201].

Ingliz tilini rasmiy tilga aylantirish qonun loyihalari AQSh Kongressiga muhokama uchun taqdim etilgan. Ular: “Ingliz tili vako-lati” Qonuni, “Rasmiy til Qonuni” Deklaratsiyasi, “Milliy til” Qonuni, “Ingliz tiliga tuzatishlar”. Ammo haligacha ushbu qonun loyihalari-dan hech biri qabul qilinmagan. Shunday boʻlsa-da, AQShda Ingliz tili davlat tili darajasida va rasmiy tili boʻlmagan shtatlarda qoʻllaniladi. Ingliz tili qonun, farmon, farmoyishlar, shartnomalar kabi rasmiy hujjatlarning asosiy tili hisoblanadi. Ammo ayrim hollarda shtat qonunlari hujjatlarni bir necha tilda bayon qilishni talab qiladi. 31 shtat ingliz tiliga rasmiy maqom beradigan qonunlarni qabul qilgan. Yuqorida AQSh til menejmentining umumiy holatini koʻrib chiqdik, quyida Amerikaning shtatlaridagi til menejmenti qanday meʼyorlar bilan boshqarilishiga nazar solamiz.

Gavayi shtatida gavayi va ingliz tili rasmiy til sifatida qabul qilingan va barcha ish yurituvlari shu ikki tilda olib boriladi. Alyas-kada ingliz tili bilan bir qatorda 20 ga yaqin mahalliy tillar rasmiy til sifatida qabul qilingan. Janubiy Dakotaning mahalliy tillari lakota, dakota, nakota tillari ham ingliz tili qatorida 2019-yil rasmiy deb tan olindi va qonun bilan rasmiylashtirildi. Nyu-Meksiko qonunlarida ispan tili alohida maqom bilan tasdiqlangan. Puerto-Rikoda is-

pan va ingliz tillari rasman amal qiladi. Hukumat va maktab tizimi ispan tilida faoliyat olib boradi. Ammo federal qonun Puerto-Riko okrugi bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlari okrugining ingliz tilidan foydalanishni talab qiladi. Guam ingliz va Chamorro tillarida faoliyat yuritadi. Virjiniya orollarida yagona rasmiy til ingliz tilidir. Ingliz va samoa tillari Amerika samoada rasmiy til hisoblanadi. Shimoliy Mariana orollarida ingliz chamorro va karolin tillari tan olinadi. Nyu-York provinsiyasida ingliz tili rasmiy tildir. Kaliforniya ingliz tili bilan birga ozchilik guruhlari va immigratsion jamoalarni hisobga olib, hujjatlarni ispan, xitoy, koreys, tagalog, fors, rus, vetnam va tay tillarida ham nashr qiladi. Arizona 2006-yilda ingliz tilini rasmiy til deb e'lon qildi. Shunga qaramay, Arizon qonunlari byulletenlarni mahalliy tillarda tarqatishni talab qiladi. Yuqorida keltirilgan shtatlarda til menejerezatsiyasi qayd etilgan tillar va me'yoriy hujjatlar bilan amalga oshiriladi.

Umuman olganda, AQShda til menejmenti juda murakkab bo'lib, asosiy til masalalarini davlat boshqaruviga hamohang tarzda hukumat ingliz tilida menejerezatsiya qilsa-da, shtatlar qonunchiligida til masalalarini boshqarish bo'yicha muayyan darajada erkinliklar mavjud. Odatda shtatlar lingvistik manzarasi o'zaro farq qilganligi sabab hududda mavjud tillar bo'yicha til boshqaruvi olib boriladi. Bu esa hukumat boshqaruvini olib borishda ko'mak beradi.

Angliyada davlat tili menejmenti. Ingliz tili nafaqat AQShda, balki jahonning bir necha mamlakatlarida rasmiy davlat tili yoki mamlakatning ish yurituv tili ekanligini qayd etdik. Ingliz tilida so'zlashuvchilari soni bo'yicha dunyoda yuqori o'rinlarda turuvchi, ingliz tilining asosiy ildizlari shakllangan Birlashgan Qirollikdagi til menejerezatsiyasiga ham ushbu o'rinda e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Butun jahonda bo'lganidek, Angliyada qo'llanadigan ingliz tili rasmiy kod hisoblanmaydi. Birlashgan qirollikda ingliz tili konvensiya orqali boshqariladi. Mazkur mamlakatda Akademiya francaise yoki Real Akademiya Espanolaga teng keladigan organ mavjud emas. Buyuk Britaniya ko'p tilli mamlakat hisoblanadi. Birgina poytaxt Londonda 250 dan ortiq tilda so'zlashilishi manbalarda qayd etiladi.

Angliyada muloqotning asosiy vositasi ingliz tili bo'lib, Buyuk Britaniya de-faktosi bo'lgan ingliz tili Angliyaning rasmiy tilidir. Valiy, korn, shotland va shotland-gel tillari ham ushbu mamlakatda ingliz tilidan keyingi o'rinlarda faol qo'llaniladi.

Ispaniyada davlat tili menejmenti. So'zlashuvchilari soni va nufuzi jihatdan dunyoda yuqori o'rinlarda turuvchi ispan tili

menejerezatsiyasi tajribalarini o'rganish rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning til boshqaruvidagi ko'nikmalarini yanada kengaytiradi deb hisoblaganimiz holda, bu o'rinda jahon xalqaro tillaridan biri bo'lgan, shu bilan bir qatorda bir necha davlatlar, xususan, Ispaniyaning rasmiy davlat tili hisoblanuvchi ispan tili va Ispaniyadagi til boshqaruviga nazar solsak.

Mamlakatda konstitutsion monarxiya o'rnatilgach, Ispaniya uchta muxtor viloyatga ajraldi hamda bask, katalon va galisiy tillari kastil tili bilan bir qatorda mazkur viloyatlarning rasmiy tili maqomini oldi.

2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, ispan tilida 540 millionga yaqin aholi so'zlashadi. Bular orasida ispan tilini ona tili deb biluvchilar soni 463 millionni tashkil etsa, xorijiy yoki ikkinchi til sifatida muvoqot qiluvchilar 75 millionni qamrab oladi. Hozirgi kunda ispan tili dunyoning 20 ta mamlakatida rasmiy til hisoblanadi.

Ispaniya mamlakati joylashgan yarim orolda besh til aranes, bask, katalan, galisian va ispan tillari mavjud. Ispaniya siyosiy jihatdan turli mintaqalarga bo'lingan bo'lib, ushbu o'lkalarda rasmiy va norasmiy amal qiluvchi tillar ham farqlanadi. Kastil tili Ispaniyaning rasmiy tili bo'lib, mamlakat bo'ylab 45 milliondan ortiq so'zlovchilarni qamrab oladi. "Kastiliya" so'zi Ispaniyada qo'llaniladigan ispan tilining standart shaklini bildirish uchun ishlatiladi. Taxminan 4,6 million gaplashuvchilariga ega katalon tili Kataloniya va Andorraning shimoliy-sharqiy mintaqasining rasmiy tilidir. Galisiya tili Galisiya avtonom jamiyatidagi 2,6 million aholining ona tili va Galisiya mintaqasining rasmiy tilidir. Ba'zan Euskara deb ataluvchi bask tili taxminan 900 000 kishining ona tili va Basklar davlatining rasmiy tilidir. Oksitan tilining gaskon lahjasidan olingan aranis tilida Ispaniyaning Val d'Aran mintaqasida so'zlashiladi. Aranis tilida mintaqaning 65% aholisi so'zlashadi va qolgan 35% ning 25% ham bimalol tushuna oladi. Aranis, mintaqada ispan va katalon tillari bilan hamkorlikda rasmiy maqomga ega.

Ispaniyada til menejmenti Qirollik ispan akademiyasi yoki Real Akademiya Espanolaning tashkil etilishi bilan bog'liq. Bu tuzilma, asosan, tilni standartlashtirish maqsadida 1713-yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda ham samarali faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatda markaziy muassasalar ikki tillilikni rasman tan olmaganligi tufayli Ispaniya ko'p tilli davlat hisoblanmaydi. 1992-yilning 26-noyabrida qabul qilingan Qonunning ma'muriy ish yuritishda tildan foydalanish masalasiga qaratilgan 36-moddasi mamlakatda davlat tili me'yorlari boshqaruvida yuqori ahamiyat

kasb etadi. Unga ko'ra: "davlat ma'muriyati tomonidan boshqa tillarda ishlab chiqilgan rasmiy hujjatlar mintaqadan tashqarida qo'llaniladigan bo'lsa, ularning barchasi kastil tiliga tarjima qilinishi shart" [Dadaboyev, Usmonova 2014, 56].

1983-yili "Kataloniyada lingvistik me'yorlashuv haqida"-gi Qonun qabul qilindi. Bu bilan Kataloniyada kastil tili bilan birga katalon tili davlat tili maqomiga ega bo'ldi. Qonunda katalon tilining mahalliy ma'muriyatning ish yuritish tili, ommaviy axborot vositalari, o'rta va oliy ta'lim tizimi tiliga aylanganligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, Kataloniyada 1998-yilda "Til siyosati haqida"gi Qonun kuchga kirdi.

Euskadi va Navarra muxtor viloyatlarida 1998-yili ba'zi davlat xizmatlari sohasida bask tilini "standartlashtirish" haqida qaror qabul qilindi. Qabul qilingan qonunga muvofiq xodimlarning bask so'zlashuv tilini o'rganishi, agentlarning yozuv tilini yaxshi egallashi majburiy qilib belgilandi. Aytish mumkinki, Ispaniyada til boshqaruvi mamlakat va mintaqaviy hukumatlar qabul qilgan qonunlar orqali amalga oshiriladi. Ularning muvofiqligini ta'minlash esa, albatta, davlat parlamenti tomonidan olib boriladi.

Fransiyada davlat tili menejmenti. Dunyoda so'zlashuvchilari soni bo'yicha yuqori o'rinlarda turuvchi, o'zining romantik jozibadorligi bilan kishilarni o'ziga jalb qiluvchi fransuz tili boshqaruvining mamlakat va mamlakat tashqarisidagi menejerezatsiyasi ham o'ziga xos murakkablik kasb etadi. Ammo fransuz tili boshqaruvining samarali yo'llari ushbu tilning bugungi maqomini ta'minladi. Shu jihatdan fransuz tili menejmentida ham til boshqaruvini endigina yo'lga qo'yayotgan davlatlar uchun ahamiyatli o'rinlar anchagina.

Fransiya Konstitutsiyasining 2-moddasi va Fransiya hukumati qonuniga asosan fransuz tili Fransiyaning davlat tili hisoblanadi. Mintaqaviy tillarni rasmiy tan olish nuqtai-nazaridan 2008-yil iyul oyida Fransiya Konstitutsiyasi Fransiya parlamenti tomonidan qayta ko'rib chiqildi.

Fransiyada XII asrdan Parij tili (fransiy tili) muhim rol o'ynay boshladi. XIV-XV asrlarda umumfransuz yozma-adabiy tilining shakllanish jarayoni kuchayib, qo'llanish doirasi kengaydi. Milliy tilning me'yorlari XIX asrning oxiridan qonuniy asosga ega bo'la boshladi. Ta'lim, matbuot, boshqaruv organlari va orfografiyaga tegishli qirqdan ortiq qonunlar XX asrning birinchi yarmida fransuz hukumati tomonidan qabul qilindi.

Fransuz tilining maqomi 1992-yilgacha biror bir qonun

hujjatida belgilanmagan. 1992-yil 25-iyunga kelib, 1958-yildagi Konstitutsiyaning 2-moddasiga fransuz tili Respublika tili hisoblanadi, degan tuzatish kiritilgan [<http://www.legifrance.gouv.fr/html/constitution/constitution2>].

Fransuz tili 82% fransuzlar uchun ona tili, shuningdek, minoritar (ingl. minority – ozchilik (“mahalliy tillar” va “muhojirlar tili”)) til egalari uchun yozuv tili hisoblanadi [<http://www.1umn.edu/humanrts/euro/-Rets148.html>].

1989-yil 2-iyunda Fransuz tili boshqarmasi (DGLF) tashkil qilindi. Boshqarma til masalalarini nazorat qilish bilan shug'ullangan. 1993-yilda Fransuz tili boshqarmasi Madaniyat vazirligi va Frankofoniya (*La Francophonie*)ga qo'shildi.

1994-yilning 4-avgustida “Fransuz tilini qo'llash haqida” Tubon qonuni kuchga kirdi [<http://www.znz.ru/st/st2/fr86.html>]. Ushbu qonunning maqsadi tilning sofligini saqlashga qaratilgan. Fransuz tilini qo'llash haqida”gi qonunida fransuz tilining o'zni quyidagicha belgilangan:

- “iste'molchilar uchun ma'lumot tili;
- shartnomalar va boshqa hujjatlarning ish yuritish tili;
- barcha o'quv yurtlarining majburiy tili, diplomlar, dissertatsiyalar fransuz tilida yoziladi;
- kino mahsulotlari, radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar va reklamalarning tili; efirdagi qo'shiqlarning 40% fransuz tilida bo'lishi kerak;
- Fransiya fuqarolari uchun anjumanlar, seminarlar tili, shuning uchun barcha rezyumelar fransuz tilida yozilishi kerak” [<http://yvision.kz/post/116224>].

Fransiya hukumatining tashqi dunyoda fransuz tili menejmentiga qaratilgan faoliyati ham muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda.

Hozirda fransuz tili 53 ta davlatning va 29 ta hududning rasmiy yoki hamrasmiy tili hisoblanadi. Fransiya aholining 82%, Monakoda 58%, Belgiyada 41%, Kanadada 23,2%, Shveytsariya 18,4% fransuz tilida so'zlashadi [Dadaboyev, Usmonova 2014, 82]. Dunyo bo'ylab 270 million kishi fransuz tilida o'z fikrlarini ifodalay oladi [<http://www.tlfi.ulaval.ca/axl/francophonie/francophonie.htm>]. Fransuz tili Frankofoniya (*La Francophonie*) harakatini menejerezatsiya qiladi.

Fransiya til boshqaruvi, asosan, Dekson qonuni, Abi qonuni va Tubon qonunlari bilan amalga oshiriladi va zarur o'rinlarda boshqa me'yoriy qonunlarga murojaat qilinadi.

Rossiyada davlat tili menejmenti. Jahon tillari orasida so'zlashuvchilari soni va nufuzi jihatdan yuqori ahamiyat kasb etuvchi rus tili menejmenti ham o'ziga yarasha murakkablik kasb etadi.

"RSFSR xalqlarining tillari haqida"gi Qonuniga ko'ra rus tili Rossiyaning davlat tili hisoblanadi. Rossiyaning turli respublikalarida rus tilidan tashqari rasmiy (davlat) tillarni o'rnatish huquqini Rossiya Konstitutsiyasi ta'minlaydi. Konstitutsiya normalariga asosan mamlakatdagi respublikalar o'z davlat tillarini o'rnatganlar. Jumladan, Dog'iston Konstitutsiyasida "rus tili va Dog'iston xalqlarining tillari" davlat tillari sifatida belgilangan. "Xalqlarning tillari to'g'risida"gi qonunni ozchiliklarning tillarini himoya qilish va saqlashga qaratilgan mintaqaviy qonun sifatida Boshqirdiston Respublikasi hukumati qabul qildi. Hozirda 21 ta til Rossiyada davlat tili maqomiga ega.

Demak, Rossiyada til menejerezatsiyasi Konstitutsiya va "RSFSR xalqlarining tillari haqida"gi Qonuniga muvofiq tashkilashtiriladi. Shu bilan bir qatorda mamlakatda qabul qilinadigan til qonunlari, o'lkadagi Respublikalarning davlat tiliga doir qonun hujjatlari va boshqa yuridik kuchga ega hujjatlar orqali yuritiladi.

XULOSA

AQShda til menejmenti juda murakkab bo'lib, asosiy til masalalarini davlat boshqaruviga hamohang tarzda hukumat ingliz tilida menejerezatsiya qilsa-da, shtatlar qonunchiligida til masalalarini boshqarish bo'yicha muayyan darajada erkinliklar mavjud. Odatda shtatlar lingvistik manzarasi o'zaro farq qilganligi sababli hududda mavjud tillar bo'yicha til boshqaruvi olib boriladi. Bu esa hukumat boshqaruvini olib borishda ko'mak beradi. Ingliz tilini rasmiy tilga aylantirish qonun loyihalari AQSh Kongressiga muhokama uchun taqdim etilgan bo'lsa-da, ammo haligacha ushbu qonun loyihalaridan hech biri qabul qilinmagan. Angliyada esa muloqotning asosiy vositasi ingliz tili bo'lib, Buyuk Britaniya de-faktosi bo'lgan ingliz tili Angliyaning rasmiy tilidir. Valliy, korn, shotland va shotland-gel tillari ham ushbu mamlakatda ingliz tilidan keyingi o'rinlarda faol qo'llaniladi. Kastil tili Ispaniyaning rasmiy tili bo'lib, mamlakat bo'ylab aranes, bask, katalan, galisian tillari ham amal qiladi. Ispaniya siyosiy jihatdan turli mintaqalarga bo'linganligi tufayli ushbu o'lkalarda rasmiy va norasmiy amal qiluvchi tillar farqlanadi. Fransiya Konstitutsiyasining 2-moddasi va Fransiya hukumati qonuniga asosan fransuz tili Fransiyaning davlat tili hisoblanib, Fransiyada til

boshqaruvi, asosan, Dekson qonuni, Abi qonuni va Tubon qonunlari bilan amalga oshiriladi. Rossiyada esa til menejerezatsiyasi Konstitutsiya va “RSFSR xalqlarining tillari haqida”gi Qonuniga muvofiq tashkillashtiriladi.

Adabiyotlar

- Baron, D. 1990. The English-only g'question: an official language for Americans? - New Haven: Yale University Press, -P. 201.
- Campbell, L. 2000. Sociolinguistics in the USA. - New Zealand: University of Canterbury, -P. 107.
- Dadaboyev H., Usmonova Sh. 2014. Xorijiy sotsiolingvistika (O'quv qo'llanma). - Toshkent. Universitet. 174 b.
- La Constitution de la France - <http://www.legifrance.gouv.fr/html/constitution/constitution2.htm#vide>.
- Lippi-Green, R. 1997. English with an accent: language, ideology, and discrimination in the United States. -London: Routledge, -P. 229.
- Zaripov, R.E. 2021. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. Fal. Fan. Dok. (PhD)... Diss. - Toshkent. - 152 b.
- Европейская Хартия региональных или миноритарных языков. University of Minnesota. Human Rights Library. - <http://www1.umn.edu/humanrts/euro/Rets148.html>.
- Жангазы, Р. Специфика языковой политики Франции: основные измерения // <http://yvision.kz/post/116224>.
- Словарь социолингвистических терминов // Отв. ред. Михальченко, В.Ю. - М., 2006. - С. 266.
- Швейцер, А.Д. 2012. Современная социолингвистика: Теория, проблемы, методы. - Изд. 4-е. - М., - С. 148.
- <http://ru.wikipedia.org>
- <http://www.tlfq.ulaval.ca/axl/francophonie/francophonie.htm>
- <http://www.znz.ru/st/st2/fr86.html>
- https://en.wikipedia.org/wiki/French_language_in_the_United_States#Local_communities

MANAGEMENT OF STATE LANGUAGES IN COUNTRIES OF THE WORLD LEGAL-REGULATORY FRAMEWORK

Rafiqjon Zaripov¹

Abstract

The article addresses the official working languages adopted in countries of the world, state language Management in republics, the legal and regulatory framework of state language Management in countries of the world and the linguistic situation in these states, addresses the problems of language Management in the United States, the management of language issues in state legislation, the importance of English in, the country covers the issues of the management of the Vallian, korn, Scottish and Scots-Gaelic languages, the importance of the laws adopted by the country and regional governments in the language management of Spain, the role of the law of Dexson, Abi law and Tubon in French language Management, the Conistification of the Federation of Russian language management and compliance with the law

Keywords: *official business languages, state language management, legal and regulatory foundations of state language Management, linguistic situation, language policy, language norms.*

References

- Baron, D. 1990. The English-only g'question: an official language for Americans? - New Haven: Yale University Press, -P. 201.
- Campbell, L. 2000. Sociolinguistics in the USA. - New Zealand: University of Canterbury, -P. 107.
- Dadaboyev H., Usmonova Sh. 2014. Xorijiy sotsiolingvistika (O'quv qo'llanma). - Toshkent. Universitet. 174 b.
- La Constitution de la France - <http://www.legifrance.gouv.fr/html/constitution/constitution2.htm#vide>.
- Lippi-Green, R. 1997. English with an accent: language, ideology, and discrimination in the United States. -London: Routledge, -P. 229.

¹Zaripov Rafikjon Ergashboy ogli – Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Senior Lecturer, Department of Applied Philology, Doctor of Philology (PhD)

E-mail: zaripovrafiqjon@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-2924-4346

For reference: Zaripov R.E. 2023. "Legal and regulatory framework for the menjement of state languages in countries of the world". Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

- Zaripov, R.E. 2021. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. Fal. Fan. Dok. (PhD)... Diss. – Toshkent. - 152 b.
- Yevropeyskaya Xartiya regionalnyx ili minoritarnix yazikov. University of Minnesota. Human Rights Library. - <http://www1.umn.edu/humanrts/euro/Rets148.html>.
- Jangazi, R. Spetsifika yazikovoy politiki Fransii: osnovnie izmereniya // <http://yvision.kz/post/116224>
- Slovar sotsiolingvisticheskix terminov // Otv. red. Mixalchenko, V.Y. – M., 2006. – C. 266.
- Shveytser, A.D. 2012. Sovremennaya sotsiolingvistika: Teoriya, problemi, metodi. – Izd. 4-ye. – M.,– S. 148.
- <http://ru.wikipedia.org>
- <http://www.tlfq.ulaval.ca/axl/francophonie/francophonie.htm>
- <http://www.znz.ru/st/st2/fr86.html>
- https://en.wikipedia.org/wiki/French_language_in_the_United_States#Local_communities

LINGVOKULTUROLOGIYA

TILSHUNOSLIKDA GENDEROLINGVISTIKANING
SHAKLLANISH JARAYONINargiza Musulmanova¹Nasim Xo'jayev²**Abstrakt**

Ushbu maqolada insonning bilishga bo'lgan qiziqishlari asnosida tilshunoslikning ham alohida bir fan sifatida shakllanib, bosqichma-bosqich taraqqiy topib borishi hamda XX asrga kelib dunyo tilshunosligida yangi paradigma "gender" tushunchasining kirib kelishi, tilshunoslikda alohida genderolingvistika yo'nalishining tarkib topish omillari bo'yicha mushohada yuritiladi. Gendershunosl原因ning taraqqiy etishida feminizmning tutgan o'rni masalasini yoritib berishga harakat qilinadi. Maqolada genderolingvistikaning vujudga kelishidagi asosiy omillar, uning taraqqiy etishida feministik lingvistikaning o'rni kabi masalalar ham mukammal ochib berilgan. Shu bilan birgalikda, genderolingvistikaning Sharq va G'arbda o'rganilishi, ko'plab olimlarning unga nisbatan munosabatlari, uning zarurati kabi masalalar ham bir qadar bayon eilgan. Umuman, gender atamasining Stoller tomonidan fanga kiritilishi va bir qator ijtimoiy tilshunosik sohalaridagi o'rniga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: *lison, predikat (mahmul) tushunchasi, global jamiyat, bilishga intilish, gender, genderolingvistika, gender tenglik, feminizm, feministik tilshunoslik, feministik oqim.*

KIRISH

Inson yaralibdiki doim dunyo sir-sinoatlarini bilish, uni imkon darajasida mukammal anglash ishtiyoqi bilan yashab kelmoqda.

¹Musulmanova Nargiza Raxmatillayevna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasi dotsenti, f.f.n.

E-manzil: nargizamusulmanova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-0001-1725

²Xo'jayev Nasim Sadullayevich – Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Ona tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

E-manzil: nasimxojayev8@gmail.com

ORCID: 0009-0006-7675-3203

Iqtibos uchun: Musulmanova, N.R., Xo'jayev, N.S. 2023. "Tilshunoslikda genderolingvistikaning shakllanish jarayoni". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari 1(5):

Insoning bu taqlid bilishga bo'lgan qiziqishlari uning ko'plab kashfiyotlarni amalga oshirishiga turtki bo'ldi. Natijada inson tomonidan uzoq o'tmishdan bugungi kungacha misli ko'rilmagan kashfiyotlar amalga oshirildiki, natijada kishilik jamiyatining eng yuksak cho'qqisi bo'lgan bugungi global hayotga qadam qo'yildi. Ayniqsa, yozuvning shakllanishi, bilish darajasining bosqichma-bosqich, avloddan avlodga o'sib borishini ta'minladi, taraqqiyotning jadal rivojiga olib keldi. Ilm-fanning turli sohalarini vujudga keltirdi. Shular qatorida tilshunoslik sohasi ham fan sifatida namoyon bo'ldi. Insonning voqelikni bilishga ehtiyoji o'sib boradi. Lison ham voqelik, u voqelikdagi mavjud hodisadir [Safarov 2008, 3].

Lison va uning voqelanish jarayonini o'rganish ajdodlarimiz tomonidan bundan ming yillar oldin boshlashgan. Bu o'rinda X-XI asrlarda yashab ijod etgan Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy kabi ko'plab qomusiy olimlarning tilshunoslik sohasida ham samarali izlanishlar olib borganligini e'tirof etishimiz mumkin.

Xususan, Abu Nasr Forobiy hozirgi tilshunoslikning falsafiy masalalari ichida markaziy o'rinni egallagan bilishning ikki bosqichi (hissiy va idrokiy), umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa dialektikasi haqida o'zining "Falsafatu Aristutalis" asarida qiziqarli ma'lumot beradi. Forobiyning fikricha, "Faqat insongina bilimga intiladi. Inson o'zini qurshab turgan olamni va o'zini o'zi bilish orqali eng yetuk mavjudotga aylanadi. Bilish insonning mohiyati. Bilishdan maqsad haqiqatga erishmoqlikdir", – deydi muallimus-soniy. Bu fikrlar V.Gumboldt fikrlariga qanchalar hamohang ekanligini, lekin V.Gumboltdan 900 yil oldin aytilganini payqash qiyin emas [Numonov 2002, 7-8].

ASOSIY QISM

Har qanday bilish, dastavval, o'zini qurshab turgan olamdagi narsa va hodisalarni kuzatishdan boshlanadi. Chunki tafakkur faoliyati bilan hosil qilingan mohiyat o'zining tabiiy asosidan oldin bo'lishi mumkin emas.

Mohiyat va uning bevosita kuzatishda gavdalanishi o'rtasidagi munosabatni ochish uchun Abu Nasr predikat (mahmul) tushunchasiga katta e'tibor beradi. Ongni konkret borliqning umumlashgan mohiyati sifatida baholaydi. Predikat mohiyatning ajralmas xossasi deb qaraydi. Forobiy mohiyat va uning yashashi o'rtasidagi munosabatni narsa va uning xossasi, substansiya va atribut munosabatiga tenglashtiradi [Nurmonov 2002, 8].

Ilmiy tafakkur taraqqiyoti har qanday fan sohasidagi nazariy qarashlar o'zgarishiga, tadqiqotlarning yangi metodlari yaratilishiga va ushbu metodlar tatbiqi davomida yangi nazariy g'oyalarga tayanish asosida tamoman o'zga amaliy natijalarga erishilishiga sabab bo'ldi. Ilmiy jarayondagi bunday o'zgarishlar bosqichli tahlil, nazariy xulosalarning uzluksiz tadqiqot jarayonida shakllanishi va tizimli joriy qilinishi natijasida yuzaga keldi. Xususan, jahon tilshunosligining uzoq takomili tilshunoslikda sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistika, sotsiopragmatika kabi yangi sohalarining shakllanishiga olib keldi.

Nutqning gender jihatlariga bo'lgan alohida qiziqish hamda ushbu muammoga bag'ishlangan asarlarning tez sur'atlarda o'sishi tilshunoslikda yana bir yangi tarmoq – lingvistik genderologiya yoki gender lingvistikasining paydo bo'lishiga imkon yaratdi. Ma'lumki, nutqning gender xoslanishi masalasi sotsiolingvistik tadqiqotlarning asosiy muammolaridan biridir. Sotsiolingvistik tadqiqotlar asosida ijtimoiy xususiyatlarning so'zlovchi nutqiga ta'sirini o'rganishda gender kabi muhim ijtimoiy-demografik parametrlarni hisobga olish zarurligi isbotlangan [Yuldosheva 2021, 97-102].

Til doimo inson hayoti, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir. Lisoniy belgining qanday ijtimoiy vazifa o'tashi, undan qay tarzda foydalanishni bilishi uchun insonning qanday ijtimoiy sharoitda yashashi ham muhim o'rin tutadi. Kishilik jamiyati ikki jins vakillarining o'zaro uyg'unligi mahsuli bo'lib, ularning o'zaro yoki jinslararo kommunikativ muloqoti ijtimoiy hayot davomiyligi va rivojining muhim omili sanaladi. Mana shu kommunikantlar muloqotini o'rganish jarayoni bugungi kun tilshunosligining yangi paradigmasi bo'lgan genderolingvistika yo'nalishini vujudga kelishiga sabab bo'ldi. "Gender" atamasi 1968-yilda amerikalik olim Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ilmiy adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha talqini mavjud. Gender – inglizcha "gender" – "zot" so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi. Shu bois erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik tabiiy farqlar bilan birgalikda ularning xatti-harakatini, nutqiy muloqot jarayonini, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniqroq farqlash uchun tilshunoslikda gender atamasi kirib keldi, deyishimiz mumkin.

Inson jinsda nafaqat fiziologik jihatdan farqlanadi, balki uning atrofida gilar bilan muomalasi, nutqi va, hatto, dunyoqarashida ham jinsdagi o'ziga xos, farqli yoki mushtarak jihatlarni namoyon etadi.

Hattoki, ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi urf-odatlar ham genderologik xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Bu xususiyatlarni milliy liboslarimizda, kundalik hayotimizdagi turmush tarzimiz va ramzlarda ko'rishimiz mumkin. Gender aynan bir millatning ijtimoiy-madaniy mahsuli, xalq og'zaki ijodi, ertak, urf-odat hamda tili-da o'z aksini topadi. O'sha millatgagina xos ayollardagi "nazokat" va erkaklarga xos "mardlik"ni ifodalaydi. Shuningdek, ijtimoiy guruhlar ongida u yoki bu jinsga xos bo'lgan sifatlarning genderologik tasavvurlarini vujudga keltiradi.

Gendershunoslilik

rivojlanishin-

ing dastlabki bosqichlarida olimlar XVII asrda kashf etilgan (qadim zamonlarda qo'llangan) ibtidoiy tillarga katta e'tibor qaratadilar. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu tillarda nafaqat erkak va ayol uchun umumiy til, balki alohida erkak va ayol tillari ham mavjud edi. Qolaversa, erkak tili me'yor, ayol tili esa me'yordan og'ish deb hisoblangan. Shuni ta'kidlash kerakki, bular ko'proq tavsiflovchi va materialga biologik yondashuvga asoslangan kamdan-kam uchraydigan tadqiqotlar hisoblanadi. Olimlar erkaklar va ayollarning intellektual qobiliyatlari tabiiy farqlar bilan oldindan belgilab qo'yilgan degan farazga asoslanishgan. Ayni paytda yosh, ma'lumot, madaniyat kabi omillar umuman hisobga olinmagan. Tildagi jinsiy diformizm faqat uning tabiiy shartliligi nuqtayi nazari-dan o'rganilgan. Genderologik tadqiqotlarning keyingi bosqichlarida olimlar madaniy jihatdan qabul qilingan gender g'oyasi erkak va ayolni turli xil psixologik va xulq-atvor imtiyozlariga ega bo'lgan ma'lum bir toifalar sifatida ko'rib chiqq boshladi [Pavlova 2017, 16].

Tilshunoslikda genderolingvistikaning shakllanishi va jadal rivojlanishi XX asrning so'nggi o'n yilliklariga to'g'ri keladi. Ushbu jarayon postmodern falsafasi ta'siri ostida gumanitar fanlardagi ilmiy paradigmaning o'zgarishi bilan bog'liq degan qarashni yuzaga keltiradi. Yangi yondashuv, shuningdek, tadqiqotchilarning uslubiy ko'rsatmalariga ko'proq mos keladigan yangi terminologiyadan foydalanishni talab qildi, bu esa jinsning ijtimoiy jihatdan qurilgan tabiatini, uning an'anaviyligini ta'kidlash uchun mo'ljallangan ilmiy tavsifga gender atamasini kiritishga sabab bo'ldi. Bunday yondashuv tabiiy ravishda til va muloqotda gender namoyon bo'lishining lingvistik mexanizmlarini o'rganishni rag'batlantirdi. Olimlarni bir qator tadqiqotchilar postmodern falsafaning tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblagan feministik til tanqidi ham xuddi shu yo'nalishga undadi [Smit 1997, 154-161].

METODLAR TAHLILI

XX asrning 60-yillari oxirida gender tadqiqotlariga yondashuvda tub burilish yuz berdi, bu G'arbda jadal rivojlana boshladi, bunga asosan quyidagi ikki omil yordam berdi:

1. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlar o'zgarib, feministik harakat kuchaydi. 1960-yillardan boshlab ayollar erkaklar bilan de-fakto tenglik uchun kurashib kelishdi va ko'p sohalarda bunga erishdilar. Xotin-qizlarning ishlab chiqarish sohasi va jamoat hayotidagi faol ishtiroki, ularning «erkak» kasblari va erkak pozitsiyalarini o'zlashtirishi jamiyatda erkak va ayol rollarining an'anaviy taqsimlanishida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi;

2. Falsafa va bilish nazariyasidagi yangi yo'nalishlar – postmodernizm va dekonstruktivizm nazariyalarining rivojlanishi (M.Fuko, J.Derrida va boshqalar), an'anaviy g'oyalar va ilmiy tushunchalarning o'zgarishi va tushunchalarning “nisbiylashuvi” bilan bog'liq.

Ushbu yondashuv vakillari «jinslarning biologik jihatdan aniqlangan dualizmi» haqida emas, balki madaniy ramzlar va ijtimoiy me'yorlarda mustahkamlangan «diskursiv ravishda yaratilgan gender dixotomiyasi» haqida gapiradi. Derridaning so'zlariga ko'ra, butun qadriyatlar tizimi «Yevropa oq erkaklari» nuqtayi nazaridan qurilgan. Shunday qilib, «zamonaviy insonning butun ongi, jinsidan qat'i nazar, erkak mafkurasi g'oyalari va qadriyatlari bilan to'liq to'yinganligini, erkak nutqiy tamoyilining doim mantiqan ustivor bo'lib kelganligini ko'rish mumkin [Pavlova 2017, 18].

Derrida «Yevropa oq erkaklari» deb qadimdan Yevropada yashab kelgan oq tanli odamlarni nazarda tutgan. Derriraning fikri bir tomondan to'g'ri, ammo, nafaqat, Yevropada butun kishilik jamiyatida erkak nutqiy tamoyilining doim mantiqan ustivor bo'lib kelganligini ko'rish mumkin. Chunki bu holat erkak va ayollarning ijtimoiy hayotda egallab turgan mavqeyi bilan ko'proq bog'liq. Ya'ni, qadimdan asosan erkaklar qabilaning, davlatning asosiy boshqaruvchiligini, jangovorlik tizimini, moddiy ta'minotini o'z qo'llarida ushlab kelishgan. Ayollar esa asosan uy-ro'zg'or yumushlari, bola tarbiyasi bilan band bo'lishgan. Shuning uchun ham erkaklar nutqi ustivor bo'lib, ayollar esa ko'pincha ularning buyruqlariga itoat etadigan mute' shaxslar sifatida qaralgan. Jamiyatdagi bunday qarash oilalarda ham xuddi shu tarzda o'z aksini topgan. Mana shu zaylda huquqiy jihatdan ham gender tafovut yuzaga kelgan. Natijada, jinslararo namoyon bo'lgan ushbu tengsizlik XIII asrda klassik liberalizm to'lqinida shakllangan, 1960-yillarning oxirlariga kelib faollasha boshlagan

fenimistik oqimning vujudga kelishiga turtki bo'ldi.

XX asr 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda tilshunoslikdagi «Yangi ayollar harakati» ta'sirida gender tilshunosligi bo'yicha tadqiqotlar hajmi keskin oshdi. Robin Lakoff o'zining gender tadqiqotlariga bag'ishlangan «Til va ayollarning maqomi» kitobida til fanida yangi yo'nalishni asoslab berdi.

Lakoff: 1) erkaklar va ayollar o'zaro farqlanadigan, ushbu jinslarning har biriga xos bo'lgan nutqqa ega; 2) erkaklar va ayollar nutqidagi tafovut erkaklarning jamiyatdagi hukmronligi natijasidir degan fikrni ilgari suradi. Vaqt o'tishi bilan bu ikki yondashuv mustaqil yo'nalish sifatida shakllanadi va «hukmronlik» hamda «differentsiatsiya» (dominantlik) deb nomlangan ikkita nazariyaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. «Dominant» yondashuv tarafdorlari bo'lgan olimlar, erkaklar va ayollar o'zaro munosabatlariga xos bo'lgan farqlarning tilga ta'siri tufayli turli xil nutqqa ega ekanligini ta'kidlaydilar [Chutpulatov 2023, 51-52].

Feminizm – ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish va ularning huquqlarini erkaklar bilan tenglashtirish g'oyalarini ilgari suruvchi ayollar harakati sifatida maydonga keladi. Feminizm aslida lotincha so'zdan olingan bo'lib “femina” – “ayol” degan ma'noni anglatadi. Feminizm – ijtimoiy-siyosiy harakat. Uning maqsadi jinsi, irqi, yoshi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyi va boshqalarga ko'ra kamsitilgan barcha ayollarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishdan iborat. Mana shu ijtimoiy-siyosiy harakat tufayli tilshunoslikda ham yangi bir oqim *fenimistik tilshunoslik* vujudga keladi.

XULOSA

Feministik tilshunoslik tilni androtsentrikligi, ya'ni umumiy e'tiborni barcha jins vakllariga emas, balki bir yoqlamalik asosida ko'proq erkakka qaratilganligi uchun tanqid qilgan. Til jinslararo muloqotda ko'proq ayollarni gender kamsitish quroli, vositasiga aylanib qolganlik sifatida ayblanadi. Barcha tillarda erkaklarga xos begilarning ustunligi, ayollarga bo'lgan munosabatning ikkilamchi o'rinda ekanligi, ko'p tillarda «inson» va «erkak» tushunchalarining mos kelishi, ayollarni belgilashda salbiy baholarning ustunligi va h.k. Feministik oqim vakillari ham jinslararo kommunikativ aloqada tilning hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydilar. Ular feministik tilshunoslik o'zining siyosiy majburiyatini va tildagi patriarxat izlarini ochishga emas, balki tilni isloh qilish orqali ularni yengib o'tishga intilishini ochiq e'lon qilishadi. Sapir-Uorf lisoniy nisbiylik

gipotezasiga asoslanib fikrlash haqida shunday deydi: “Til fikrlashni tuzadi va boshqaradi, shuning uchun inson ongi, asosan, tilning xususiyatlari bilan belgilanadi”. Xullas, feministik tilshunoslik til islohoti bo'yicha ko'plab tavsiyalar beradi [Kriline 2025,14].

Sapir-Uorfning fikriga unchalik qo'shilib bo'lmaydi. Bizningcha, fikr birlamchi, til ikkilamchi. Chunki dastlab fikr ong ostida shakllanadi va keyin tilga ko'chadi. Umuman olganda, mukammal, jo'yali fikrning vujudga kelishida tilning o'rni beqiyos. Xullas, bu ikkala jarayon bir-biri bilan chambarchas uzviy bog'liq. Muomala almashinuvida doim biri ikkinchisini taqazo etib turadi. Kar-soqov kishilar ham fikrlay oladi va fikr almashib muloqot qiladi. Lekin ular ovoz chiqarib tildagi leksik birliklardan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shunday bo'lsa-da, ular muloqotning o'zgacha shakli noverbal ko'rinishi vositasida muloqot qiladilar.

Shunday qilib genderologiya yo'nalishining vujudga kelishida G'arbda XX asr boshlarida ayollar huquqini himoya qilish munosabati bilan maydonga kelgan feministik oqimning ham salmoqli ta'siri bo'lgan deb hisoblashimiz mumkin. Ular ayollar huquqini himoya qilish bilan birga har ikkala jins vakillari tengligini yoqlab chiqdilar. Bu oqim tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, amalga oshirilgan ishlar gender tilshunosligining ham taraqqiy etib, rivojlanib borishida muhim rol o'ynadi.

Adabiyotlar

- Крилина, А., Томская, М. 2005. Лингвистические гендерные исследования. Отечественные записки. Журнал литературного-просветительский, политический, учёный. Архив 2001-2014. Выпуск журнала № 2 (23) .
- Musulmanova, Nargiza. 2023. *Lingvopoetika – til va adabiyot mushtarakligi*. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.78. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7786551>
- Nurmonov, A. 2002. *O'zbek tilshunosligi tarixi*. Toshkent, “O'zbekiston”. B. 232.
- Safarov, Sh. 2008. *Pragmalingvistika*. Monografiya. Toshkent. 3- bet
- Xo'jayev, Nasim. 2022. *Abdulla Oripov she'riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari*. O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 281-bet.
- Yuldasheva, X.,K. 2021. *Badiiy matnda shaxs gender xususiyatlarining namoyon bo'lishi*// So'z san'ati xalqaro jurnali, 4-jild, 4-son. Toshkent. – B.97-102.
- Павлова, А.К. 2017. Особенности просодического оформления речи современных женщин с высоким профессиональным статусом//Дисс. Раб//Москва. С. 16.

Смит, С. 1997. Постмодернизм и социальная история на западе: проблемы и перспективы // Вопросы истории. № 8. С. 154–161

THE PROCESS OF FORMATION OF GENDEROLINGUISTICS IN LINGUISTICS

Nargiza Musulmanova¹
Nasim Khojyaev²

Abstract

This article will focus on the gradual progress of linguistics as a separate discipline, as well as the introduction of the concept of a new paradigm “gender” in World linguistics by the 20th century, the observation of the content-finding factors of a separate direction of genderolinguistics in linguistics. An attempt is made to shed light on the issue of the role of feminism in the progress of gender studies. The article also perfectly reveals such issues as the main factors in the emergence of genderolinguistics, the role of feminist linguistics in its progress. At the same time, issues such as the study of genderolinguistics in the East and West, the attitude of many scientists towards it, its need have also been described somewhat. In general, the inclusion of the term gender in science by Stoller and its place in a number of social linguistics fields is superstitious

Key words: *language, concept of predicate (product), global society, quest for knowledge, gender, gender linguistics, gender equality, feminism, feminist linguistics, feminist current.*

References

Krilina, A., Tomskaya, M. 2005. *Lingvisticheskie gendernye issledovaniya. Otechestvennye zapiski. Jurnal literaturnogo-prosvetitel'skiy, politicheskoy, uchyoniy. Arxiv 2001-2014. Vipusk jurnala № 2 (23)*

¹*Musulmanova Nargiza Rakhmatilayevna* – Doctor of filology, docent of the Department of Uzbek language education in foreign language groups, Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi
E-mail: nargizamusulmanova@navoiy-uni.uz
ORCID: 0000-0002-0001-1725

²*Khojyaev Nasim Sadullayevich* – teacher of the Department of native language and literature, Shakhrisabz State Pedagogical Institute
E-mail: nasimkxujayev8@gmail.com
ORCID: 0009-0006-7675-3203

For references: Musulmanova, N.R., Khojyaev, N.S. 2023. “*The process of formation of genderolinguistics in linguistics*”. Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

- Musulmanova, Nargiza. 2023. *Lingvopoetika – til va adabiyot mushtarakligi*. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.78. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7786551>
- Nurmonov, A. 2002. *O'zbek tilshunosligi tarixi*. Toshkent, "O'zbekiston". B. 232.
- Safarov, Sh. 2008. *Pragmalingvistika*. Monografiya. Toshkent. 3- bet
- Xo'jayev, Nasim. 2022. *Abdulla Oripov she'riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari*. O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 281-bet.
- Yuldasheva, X.,K. 2021. *Badiiy matnda shaxs gender xususiyatlarining namoyon bo'lishi*// So'z san'ati xalqaro jurnali, 4-jild, 4-son. Toshkent. – B.97-102.
- Pavlova, A.K. 2017. *Osobennosti prosodicheskogo oformleniya rechi sovremennix jenshin s visokim professionalnim statusom*//Diss. Rab//Moskva. S. 16.
- Smit, S. 1997. *Postmodernizm i sotsialnaya istoriya na zapade: problemi i perspektivi* // Voprosi istorii. № 8. S. 154–161

РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ В ГЕНДЕРНОМ АСПЕКТЕ НА ПРИМЕРЕ ДЕТСКОЙ РЕЧИ

Гульбахор Искандарова¹

Аннотация

В статье речь ведется о языке, культуре и социализации личности, **речевое поведение** ребенка в разных коммуникативных ситуациях, его контактах с ровесниками и взрослыми, а также о коммуникативных и гендерных особенностях детской речи в среде игры и общения.

Ключевые слова: язык, социализация, общественная среда, речевое поведение, коммуникативная компетенция, речевая ситуация, гендерная консолидация, гендерная индивидуальность.

ВВЕДЕНИЕ

Детская речь, область знания, находящаяся на стыке лингвистики, психологии, физиологии, когнитивной науки, социологии и философии. Вхождение человека в общество во многом происходит через освоение языка; по выражению Э.Сепира, «язык – мощный фактор социализации» [Сепир 1993, 82]. Социализация невозможна без овладения речью, и не речью вообще, а речью, данной социальной среды, нормами речевого поведения, свойственными этой среде. Механизм того, как ребенок усваивает язык и как начинает его использовать, очень сложен и не вполне доступен. В течение всей жизни человека – а особенно интенсивно в первые годы – его адаптация к окружающим людям идет непрерывно. Ребенок усваивает нормы поведения путем подражания взрослым, через телевизор или же посредством игры естественно и непринужденно.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Наблюдая за тем, как своеобразно проявляется детская

¹Искандарова Гульбахор Турабаевна – Старший преподаватель кафедры Образования узбекского языка в иноязычных группах Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Э-почта: iskandarovagulbahor@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-4189-2725

Для цитаты: Искандарова, Г. Т. 2023. «Речевое поведение в гендерном аспекте на примере детской речи». Узбекистан: язык и культура. Вопросы прикладной филологии. 1(5):

речь в различных ситуациях общения, ученые обращали внимание на дифференциацию по роду фонетических явлений и лексических единиц в этой речи. Как известно, в среде общения дети 3-4 лет не отличают коммуникантов по гендерному признаку, одинаково общаясь с представителями обоих полов. Данная установка может изменяться в зависимости от обстоятельств, поскольку имеются игры, свойственные только мальчикам, в которые девочки обычно не играют, и, наоборот, имеются чисто «девичьи» игры [Карпова, Колобова 1978, 24].

Девичьи игры являются сюжетно-ролевыми, проводятся в относительно узком кругу, при малочисленных участниках; в этих играх мало агрессивных моментов, они, по сути, развивают у участников чувство единства. Эти игры, в сущности, можно рассматривать и как подражание общественной жизни взрослых. Мальчишеские игры направлены на проявление индивидуальности и развитие конкурентоспособности в относительно больших группах. Мальчики рано стремятся стать независимыми: они стараются стать самостоятельными людьми, отделиться от ровесников, воспитанников, родителей, тем самым выделив свою личность. Такие особенности формирования характера в гендерном аспекте находят свое отражение и в речи. Если речь мальчиков богата информативными элементами, информационным содержательным, то речь девочек отличается обилием эмоциональных выражений и единиц, выражающих чувственные переживания. По данным некоторых ученых, эти тенденции наблюдались даже в поведении 3-летних воспитанников детского сада [Запорожец 1974, 120]. Такая ранняя фиксация гендерной индивидуальности в детской речи ставит перед нами вопрос о проявлении в данном феномене генетического фактора. Согласно нашим наблюдениям, во время речевого общения (если расстояние между общающимися не превышает 1 м.) мальчики вступают в коммуникативное отношение главным образом с мальчиками, а девочки – с представителями обоих полов. Еще характерно, что узбекские дети в ходе различных игр и в обстоятельствах, связанных с ними, проявляют высокую активность и инициативу. Но китайские мальчики даже в 5-6 лет мало участвуют в интерактивных играх, проводящихся в сотрудничестве. Они предпочитают действия, осуществляющиеся самостоятельно, либо вместе со старшими членами семьи.

Дети при выборе для себя коммуниканта опираются на возраст, пол и прочие поведенческие модели [Гвоздьев 1961, 52]. Например, девочки выбирают круг общения по внешнему виду, поведенческим качествам, в то время как мальчики обращают большее внимание на активность в группе и способность достижения индивидуальных результатов. Ученые психологи определили, что дети обоих полов действуют вместе главным образом в ходе сюжетно-ролевых игр. Гендерная консолидация детей возраста начальной школы серьезно отличается в школьное время: 91% детей становятся коммуникантами ровесников одного с ними пола, и только 9% детей вступают в общение с представителями другого пола. 75% от всех детских игр и занятий проводятся либо осуществляются среди представителей одного пола.

Ситуативные беседы детей одного пола в ходе игр достаточно продолжительны и имеют определенное значение для данной ситуации. В таких случаях мало происходят недопонимания и недомолвки. Мальчики во время игр используют своеобразные «мужские» элементы общения, например, используются имена героев фильмов («Человек-паук», «Бетмен», «Халк»), их популярные слова и выражения («Сава», «Айва»), размахивание воображаемым оружием («руки вверх, стреляю!»), произвольное подражание их звукам («бабах», «трр-ррах»), иногда – матерные слова и грубые обороты. Как видно, в речи мальчиков при игровой ситуации активно используются слова вне их обыденной жизни, связанные с героями вымышленного ими самими мира. А в речи девочек, наоборот, наблюдается активность различных слов, широко используемых в бытовой жизни, поскольку основные девичьи игры также являются общественно-ролевыми: «гости-гости», «доктор-доктор», «школа-школа». Это известно и по сведениям, собранным опытами и наблюдениями: во время исполнения роли матери в ходе ролевой игры малолетние девочки стараются говорить, двигаться и действовать как свои матери. А это, в свою очередь, стимулирует качество общительности у девочек по сравнению с мальчиками.

Различные кинетические знаки (жесты и движения, выражающие коммуникативное значение), используемые детьми в игровой среде общения, отличаются чрезвычайной разнообразностью и своеобразностью, как у мальчиков, так и у девочек [Ивамура 1981, 69]. Например, девочки, исходя из осо-

бенностей своих игр, выполняют относительно спокойные и нежные движения, но иногда наблюдается, что они действуют грубо, как мальчики. В то же время, вне зависимости от игровых особенностей, не наблюдается нежность и спокойствие, сообразное девочкам, их кинетические действия основываются на быстроте и точности.

В игровой среде общения детская речь выражается оригинально в гендерном отношении. Отличия в речи и невербальных выражениях узбекских девочек и мальчиков исходят не только из половой принадлежности, но и от гендерной своеобразной среды и общения и гендерной принадлежности в игровой ситуации.

Ребенок постоянно переживает процесс общения [Лурия, Юдович, 1956; С. 33], он что-то нашептывает, когда играет, питается, справляет нужду, смотрит мультфильм или рассматривает книгу с рисунками, одним словом, всем своим существом демонстрирует, что получает от всего этого удовольствие. Но процесс не всегда остается в таком русле. Если в окружении ребенка нет людей, понимающих и поощряющих его, он, как правило, молчит. Или же когда приходит незнакомец (например, гость), ребенок не ведет себя свободно, стесняется говорить.

На что в первую очередь обращает внимание ребенок в общении с ровесниками или взрослыми? Ребенок хочет, чтобы в его окружении всегда находился человек, любящий, понимающий его, заботящийся о нем. Ребенок хочет играть с человеком, который смотрит на него с улыбкой и открытым лицом. Это заметно по его поведению. Исходя из этого, следует считать, что ребенок чувствует себя комфортно среди старших (старший брат или сестра, дед, бабушка), чем среди ровесников.

Ребенок вступает в активное общение с ровесниками примерно в трехлетнем возрасте. Протекание данного процесса зависит от индивидуальных качеств детей, их характера и окружающей среды. В любом общении ребенок выражает признаки, интересные себе, и показывает свое отношение к ним. Например, 3-летний Зафар беседует со своим соседом и ровесником Мухаммадом:

Зафар: - *veligini ber!* (дай мне свой велик!)

Мухаммад: - *yo', bermiyman, bu mani veligim* (не, не дам. Это мой велик.)

Зафар: - *ber velikni, uchgim kevotti. Oyi, eting, bersin* (дай велик, хочу кататься. Мама, скажи, пусть даст мне свой велик (обращаясь к матери)).

Мухаммад: - *menga kedkalariningni bersen, manam berardim* (если ты дашь мне свои кедки, я тоже бы дал.)

Когда дети одного возраста общаются между собой, предпочтительно нахождение рядом с ними старшего человека.

Ребенок далеко не со всеми способен легко и быстро устанавливать контакт, или же не отвечает на вопросы каждого. Это формирует у него способность выбора при общении. Ребенка всегда окружают люди, заботящиеся о нем: не успел проснуться, и мать его кормит, меняет одежду, если есть тому надобность, играет вместе с ним, спит вместе с ним, ласкает и т.д. В результате наблюдений выявлено, что ребенок быстро и легко устанавливает контакт с человеком, который много бывает вместе с ним во время игры. С ребенком обычно играют старшие брат или сестра, или дети, старше него. Таким образом, ребенок дружит с детьми чуть старше его самого, чем с ровесниками.

В отношениях детей, воспитываемых в детском саду, можно наблюдать любопытный процесс в их общении [Олшанский 1970, 67]. Так, в первый год ребенок не ощущает потребности в общении с ровесниками. Он общается только с близкими, эта связь объясняется ожиданием реакции на его действия и интересом к окружающей среде. В два года ребенок с интересом смотрит на ровесников, однако не устанавливает с ними полноценный коммуникативный контакт. У детей в таком возрасте также наблюдается тенденция ревности к ровесникам – игрушки, вещи, близких людей и даже мать.

В третий год ребенок ощущает потребность в общении с ровесниками, но это время его отношение имеет субъективный характер. Потому что поведение, мысли и действия ребенка только-только настраивает его на установление связи с ровесником.

Процесс формирования коммуникативной потребности и его реализация по отношению к взрослым может дать результат в два месяца, а по отношению к ровесникам – в два года.

С трех лет ребенок устанавливает полноценный коммуникативный контакт с ровесниками. В этот период процесс общения обогащается в тематическом плане и

полностью удовлетворяет эмоциональные потребности ребенка.

При взаимоотношениях дети тесно общаются между собой в различных ситуациях, особенно в сюжетных играх, и чувствуют потребность в сотрудничестве. Для организации и правильного направления данных игр, конечно же, целесообразно участие в процессе старших (воспитанница или учительница в детском саду, родители дома, старшие дети и братья-сестры на улице).

При общении со старшими ребенок постепенно начинает осознавать себя частичкой большого общества. А в результате установления отношений с ровесниками у него формируется тяга к самостоятельности, поскольку во взаимоотношениях с ними он чувствует себя активным участником. Поэтому после трех лет ребенок стремительно втягивается в процесс социализации. Посредством участия в различных играх, а также через сказки, читаемые ему, и наблюдением детских телепередач по ТВ у него начинает формироваться представление о своем будущем месте в обществе, другими словами, развивается абстрактное мышление. Например, 4-летняя Омина говорит, что «когда повзрослеет, станет учительницей», и во время игр постоянно «учит читать и писать» своих кукол, то есть имитирует движения учительницы. Почему имитирует, а не учит по-настоящему? Потому что, она сама еще не умеет читать и писать, и поэтому имитируя учительницу, она ведет себя как наставница только внешне. Имрон (4 года 6 месяцев), чей отец является предпринимателем, говорит, что, повзрослев, станет бизнесменом, хочет, чтобы у него было много машин и домов. А Мухаммад Юсуф (3 года 8 месяцев) на вопрос «Кем ты станешь, когда станешь взрослым?» отвечает так: «Повзрослев, я стану очень высоким, потом я стану «ада». У ребенка очень рано рождается интерес к тому, кем он станет в будущем. Если вовремя заметить его интерес, обратить внимание на это и стимулировать, в будущем это поможет ему найти свое место в обществе.

Ребенок интересуется игрушками своего ровесника, наблюдает, что можно делать с ними и сопоставляет с тем, что имеет сам. То есть появляется комплекс представлений типа «У него есть, у меня нет», «Я знаю, он не знает», «Я могу, он не может» и это приводит к появлению потребности в общении. Ребенок получает удовольствие от процесса совместной

деятельности с ровесниками.

ВЫВОД

Никто специально не учит ребенка говорить. Ребенок вне зависимости от национальности, социальной принадлежности и многих других факторов, расширяет речевую деятельность в связи с общественной средой, в которой растет, своими внутренними потребностями, и таким образом отражает в своей речи ценности, колорит и уникальные особенности данного общества.

Литература

- Гвоздев, А.Н. 1961. *Вопросы изучения детской речи*. Москва. С. 471.
- Запорожец, А.В. 1974. *Развитие общения у дошкольников*. Москва. С. 288.
- Ивамура, С. Г. 1981. *Речь и игры детей дошкольного возраста* // РЖ. Языкознание. Общественные науки зарубежом. 1-серия. Москва. С. 189.
- Карпова, С. Н., Колобова, И. Н. 1978. *Особенности ориентировки на слово у детей*. Москва. С. 65
- Лурия, А.Р., Юдович, Ф.Я. 1956. *Речь и развитие психических процессов у ребёнка*. Москва. С. 94.
- Ольшанский, В.Б. 1970. *Социализация* // Философская энциклопедия. Т.5. Москва. С. 740.
- Сепир, Э. 1993. *Избранные труды по языкознанию и культурологии*. Москва. С. 654.
- Искандарова, Г. (2023). Значение языковой среды в развитии лингвокультурных особенностей речи ребенка. *Язык и культура Узбекистана*, 5 (2), 26–34. <http://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/35>.

SPEECH BEHAVIOR IN THE GENDER ASPECT ON THE EXAMPLE OF CHILDREN'S SPEECH

Gulbakhor Iskandarova¹

Abstract

The article is devoted to the problems of language, culture and socialization of an individual, child language acquisition and development, language ability of children in different communicative situations, children's communication with peers and with adults, gender behavior of children in game environment.

Key words: *language, socialization, social environment, communication skills, communicative behavior, communicative situation, gender consolidation, gender individuality.*

References

- Gvozdev, A.N. 1961. *Voprosi izucheniya detskoy rechi*. Moscow. S. 471.
- Zaporozhets, A.V. 1974. *Razvitie obtsheniya u doshkolnikov*. Moscow. S. 288.
- Ivamura, P. G. 1981. *Rech i igri detey doshkolnogo vozrasta* // RJ. Yazikoznanie. Obshchestvennye nauki zarubezhom. Series 1. Moscow. S. 189.
- Karpova, S. N., Kolobova, I. N. 1978. *Osobennosti orientirovki na slovo u detey*. Moscow. S. 65.
- Luria, A.R., Yudovich, F.Ya. 1956. *Rech i razvitie psichicheskix prosessov urebyonka*. Moscow. S. 94.
- Olshansky, V.B. 1970. *Socialization* // *Filosofskaya encyclopedia*. T.5. Moscow. S. 740.
- Sepir, E. 1993. *Izbrannie trudi po yazikoznaniyu i kulturologii*. Moscow. S. 654.
- Iskandarova, G. (2023). Znachenie yazykovoy sredi v razvitiy lingvokulturnix osobennostey rechi rebenka. *Yazik i kultura Uzbekistana*, 5(2), 26–34. <http://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/35>.

¹Iskandarova Gulbahor Turabaevna – Department of Uzbek Language Education in Foreign Language Groups of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: iskandarovagulbahor@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-4189-2725

For reference: Iskandarova G. T. 2023. "Speech behavior in the gender aspect on the example of children's speech". Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

AMALIY LEKSIKOGRAFIYA

O'ZBEK TILIDA KASB-KOR IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Dilfuza Hasanova¹

Abstrakt

O'zbek va jahon tilshunosligida kasb-korni ifodalovchi birliklar turli aspektda tadqiq etilgan, mazkur leksik-semantik guruhga kiruvchi birliklarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi kasb-korni ifodalovchi birliklar turli aspektda tadqiq etilgan, mazkur maqolada ularning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni o'zbek tilida kasb-korni ifodalovchi birliklarning leksikografik talqini, xususan, ularning izohli lug'atlarda berilishini tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: kasb-kor ifodalovchi leksik birliklar, *biosotsiolog, kapitan, professor, sotuvchi, sportchi, dengizchi, kurashchi, injener, tarjimon, haykaltarosh*.

KIRISH

O'zbek va jahon tilshunosligida kasb-korni ifodalovchi birliklar turli aspektda tadqiq etilgan, mazkur leksik-semantik guruhga kiruvchi birliklarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Jahon leksikografiyasi tajribasida sotsialingvistik terminlar lug'ati ham mavjud: unda kasb-korni ifodalovchi birliklar talqini ham o'rin olgan. "Sotsiolingvistik atamalar lug'ati" – birinchi rus va jahon sotsiolingvistikasi atamalari tizimlashtirilgan, mahalliy va xorijiy tajribalarga tayanib, sotsiolingvistik matnlarda eng ko'p ishlatiladigan asosiy atamalarning tavsifidan iborat lug'at. Oldingi nashrlar asosan atamalarning qisqacha tavsiflari va minimal izohlarda iborat bo'lsa, bu nashr xorijiy tilshunoslik an'alarini ham aks ettiradi. Ammo bu lug'at maqolalari terminologik birlik izohi kabi xususiyatlarni aks ettiradi. Biz o'z kuzatishlarimizda shaxsning

¹Hasanova Dilfuza Odilovna – Qo'qon DPI Fakultetlararo tillar kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

E-manzil: hasanova.dilfuza.2016@mail.ru

ORCID: 0009-0005-3331-289X

Iqtibos uchun: Hasanova, D. 2023. "O'zbek tilida kasb-kor ifodalovchi leksik birliklarning leksikografik talqini". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari 1(5):

kasb, hunariga ko'ra sotsial belgisini ifodalovchi birliklar va ularning izohiga to'htalamiz. Yuqorida ta'kidlanganidek, jahon tilshunosligida kasb-korni ifodalovchi birliklar turli jihatdan o'rganilgan.

T.K.Ivanova kasb-korni ifodalovchi birliklarning yasashini o'rganadi. Uning xulosasiga ko'ra, o'zlashma elementlar resipient tilining morfologik xususiyatlariga moslashadi, hatto rus tili og'zaki lug'atida paydo bo'ladi, bu ularning ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan o'zlashtirilganligini ko'rsatadi. O'zlashma so'zlar orasida avto- (djigit, avtokaskader, avtonalogoplatel'nik, avtonarushitel, avtorukovoditel); bio- (biodizayner, biosotsiolog, bioterapevt); velo- (velobeduin, veloputeshestvennik, velostroitel); narko- (narkokurer, narkobaron) kabi morfemalardan iborat "seriyali" so'zlar katta qismni tashkil etadi. T.K.Ivanova shaxsning murakkab belgilari orasida shaxsning ijtimoiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq ismlar ustunlik qilishi, inson uchun eng muhimi uning jamiyatdagi sub'ekti sifatidagi roli ekanligini ta'kidlar ekan, bu guruhga kiruvchi so'zlarning izohli lug'atlarda quyidagicha qisqa izohlanishini hamda bu izohlarning mukammallashishga ehtiyoji borligini qutiradi. Masalan: *aviainjener* (aviatsiya muhandisi) – bu "samolyotsozlik sohasidagi eng yuqori malakali mutaxassis"; biosotsiolog – "poda hayvonlari, hasharotlar xatti-harakatlarini o'rganuvchi olim". Tabiiyki, *aviainjener*, *biosotsiolog* kabi o'zlashma kasb-hunar otlari kengroq izoh talab qiladi.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda o'zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining leksik-semantik va derivatsion xususiyatlari, kasb-kor va hunar bilan bog'liq paralingvistik vositalarni noverbal muloqotda ifoda etilishi tadqiqiga bag'ishlangan monografik ishlar ahamiyatini ta'kidlash joiz. Til jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy, majburiy, tayyor holda istifoda etiladigan ijtimoiy hodisa bo'lishi barobarida, turli soha va kasb-kor vakillariga bab-baravar xizmat qiladi. Shunday ekan, til leksik tarkibini ilmiy asoslangan holda tasniflash masalasini ham to'g'ri talqin qilish zarurati tug'ilmoqda. Ammo o'zbek tilshunosligida kasb-korni ifodalovchi birliklarning leksikografik talqini masalasiga bag'ishlangan tadqiqotni uchratmadik. Shu sababli o'zbek tilida kasb-korni ifodalovchi birliklarning leksikografik talqini, xususan, ularning izohli lug'atlarda berilishini tahlilga tortishni lozim topdik.

Kuzatishlarimizdan shu ma'lum bo'ladiki, lug'at maqolasining tuzilishi quyidagilarni nazarda tutadi:

1) bosh so'z va uning grammatik xususiyatlari (otlar birlikning nominativ holatida beriladi);

2) tematik guruhga mansubligi haqida ma'lumot keltiriladi;
3) faoliyat mazmuni va muhim kasbiy fazilatlar ochib beriladi;
4) bosh so'zning ma'nosini (ma'nolarini) aniqlash uchun so'zning har bir semasi batafsil izohlanadi;

5) so'zlarning erkin birikmalari (ya'ni zamonaviy adabiy tilning izohli lug'atlarida qayd etilgan komponentlarning ma'nolari);

6) ilustrativ misollar.

Ta'kidlash joizki, lug'at maqolasining asosiy qismi bosh so'zning assotsiativ xususiyatlarini tavsiflovchi birikmalarning (leksik qator) tartiblangan ro'yxatidir.

-chi so'z yasovchi affiksi bilan yasalgan kasb-kor nomlari izohida quyidagi umumiylik uchraydi: 1) izohning qisqaligi; 2) so'zni bir semali qilib ifodalash. Masalan:

ATLETIKACHI Atletika bilan shug'ullanuvchi sportchi. *Ilgari yengil atletikachilarimizning muvaffaqiyatli ishtiroklari to'g'risida xabar bergandik.*

SPORTSMEN [ingl. sportsmen] ayn. sportchi.

SPORTCHI Sportning bir yoki bir necha turi bilan muntazam suratda shug'ullanuvchi kishi. Hozirgi yuksak taraqqiyot davrida mahoratli spotchilar ko'rsatkichi ham muntazam o'zgaryapti ("Fan va turmush").

DENGIZCHI 1 Dengiz flotida xizmat qiluvchi kishi. *Jiyaningiz dengizchimidi? (A.Qahhor. "Qo'shchinor chiroqlari"). Yuk tashuvchi ishchilar, dengizchilar yig'ildi. Barcha ko'zlar begunoh baliqchiga tikildi.* 3. Diyor. 2 ayn. matros.

DESANTCHI 1 Desant qo'shinlarida xizmat qiluvchi askar, jangchi. *Bizning bo'linmamiz dengiz desantchilari gruppasiga qo'shildi.* (T.Rustamov. "Mangu jasorat"). 2 ko'chma - biror g'arazli maqsadda favqulodda jo'natilgan shaxs(lar). O'zbekistonda Markaz "desantchilari"ning buyuk davlatchilik ruhidagi beboshliklariga chek qo'yildi ("Fan va turmush").

REZAVORCHI 1 ayn. rezavorfurush. 2 Ko'kat va sabzavot ekinlari yetishtiruvchi va sotuvchi kishi. 3 Ziravorlar savdosi bilan shug'ullanuvchi kishi.

SOTUVCHI 1 Sotmoq fl. sfdsh. Olma sotuvchi. 2 Magazinda savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi xodim. Sotuvchilar xaridorladga xolis xizmat ko'rsatish bilan band.

SOTUVCHISIZ: sotuvchisiz magazin - sotuvchisi bo'lmagan, xaridorlar o'ziga o'zi xizmat qiladigan magazin.

KURASHCHI 1 Kuchi va epchilli tini namoyish qilish maqsadida kurash bilan shug'ullanadigan, kurash tushadigan shaxs,

sportchi. *Ikkovi, go'yo usta kurashchilarday, bellarini egib, bo'yinlarini bir-birining yelkasiga ko'yganlari holda, ayiqday tebranishib, davrani aylandilar.*

KUTUBXONACHI Kutubxonada kitoblarni saqlash, o'quvchilarga berish va qabul qilish vazifalarini bajaruvchi shaxs, xodim. *Kichkina suratni katta qiladigan fotochi kelgan, xohlaganlar kutubxonachi qizga uchrasin.*

YILNOMACHI Solnoma tuzuvchi, tarixni yozib boruvchi; solnomachi. *...tarix xolis yilnomachi tarzida o'z sahifalariga yaxshi ishlarnigina yozib qo'ya qolmaydi.*

DZYUDACHI Dzyudo bilan shug'ullanuvchi shaxs. Respublikamiz dzyudochilari ham sovrinli o'rinlarni egallashga harakat qilishdi (Gazetadan).

Yuqorida berilgan misollarni kuzatar ekanmiz, barcha so'zlar tavsifida, izoh sifatida keltirilgan dastlabki qismda o'zakdan anglashilgan kasb bilan shug'ullanuvchi shaxs degan semaning mavjudligini ko'ramiz. Masalan, atletika bilan shug'ullanuvchi sportchi (atletikachi), sportning bir yoki bir necha turi bilan muntazam suratda shug'ullanuvchi kishi (spotrchi), dengiz flotida xizmat qiluvchi kishi (dengizchi), desant qo'shinlarda xizmat qiluvchi askar, jangchi (desantchi), ko'kat va sabzavot ekinlari yetishtiruvchi va sotuvchi kishi rezavorchi), magazinda savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi xodim (sotuvchi), kuchi va epchilligini namoyish qilish maqsadida kurash bilan shug'ullanadigan, kurash tushadigan shaxs, sportchi (kurashchi), kutubxonada kitoblarni saqlash, o'quvchilarga esa (kutubxonachi)kabi keltirilgan misollardan ko'rish mumkin.

Adabiyotlar

- Соловьева, М.А. 2018. *Имена существительные – номинации лиц по профессии и роду занятий в русском языке XXI века: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Томск,*
- Черных, М.А. 2015. *Лексикографическое описание имен существительных-номинаций лиц по профессии в русском языке XXI в. // Известия ВГПУ. Филологические науки.*
- Кожанова, Н.В. 2007. *Наименования лиц по профессии в немецкоязычной картине мира: Дисс. ... канд. филол. наук. – Барнаул, – С. 64-86.*
- Богословский, С.М. 1913. *Система профессиональной классификации [Текст] / С.М. Богословский // [Соч.] Сан. врач Моск. губ. земства С.М. Богословского. – М.: Моск. губ. земство, – 747 с.*
- Васильева, А.С. 2013. *Тенденции в употреблении наименований лиц*

- женского пола по профессиональной принадлежности [Текст] / А.С. Васильева // Проблемы современного образования. – М., – №1. – С. 46-53.
- Воеводина, Г.А. 2010. *Номинации «лицо по социальному положению» в современном русском языке* (на примере производных имён существительных) [Текст] / Г.А.Воеводина // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. – Нижний Новгород, – № 4 (2). – С. 468-470.
- Воронцова, В.Л. 1982. *Наименования лиц по профессии* [Текст] / В.Л.Воронцова // Способы номинации в современном русском языке. – М.,
- Голованова, Е.И. 2015. *Новые названия лиц по профессии и должности в русском языке* [Текст] / Е.И.Голованова // Вестник ЧелГУ. – Челябинск, №27 (382). – С. 60-64.
- Абдиев, М.Б. 2005. *Соҳавий лексиканинг систем таҳлили* (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида). Фил. фан.докт.дисс.автореферати. Тошкент, Б. 12
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2006-2008) Беш жилдли. 80 000дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси таҳрир ҳайъати, Э.Бегматов, А.Мадвалиев таҳрири остида. 1-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, – 115-б.

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF LEXICAL UNITS OF OCCUPATIONAL EXPRESSION IN UZBEK

Dilfuza Hasanova¹

Abstract

In this article, units representing professions in Uzbek linguistics are studied in different aspects. In world linguistics, units belonging to this lexical-semantic group have been studied in different ways. The experience of world lexicography includes a dictionary of sociolinguistic terms: it also includes the interpretation of units representing the profession.

¹Hasanova Dilfuza Odilovna – Kokan State Pedagogical Institute Associate Professor of the Department of Interfaculty Languages, Doctor of Philological Sciences (DSc).

E-mail: hasanova.dilfuza.2016@mail.ru

ORCID: 0009-0005-3331-289X

For reference: Hasanova, D. 2023. "Lexicographic interpretation of lexical units of occupational expression in uzbek". Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

“Dictionary of Sociolinguistic Terms” is the first Russian and world sociolinguistics term systematized, based on local and foreign experiences, a dictionary consisting of descriptions of the main terms most often used in sociolinguistic texts. While the previous editions consisted mainly of brief descriptions of terms and minimal annotations, this edition also reflects the traditions of foreign linguistics.

Key words: *biosociologist, captain, professor, salesman, athlete, sailor, wrestler, engineer, translator, sculptor.*

References

- Soloveva, M.A. 2018. *Imena sushestvitelnye – nominatsii lits po professii i rodu zanyatiy v russkom yazike XXI veka: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk.* – Tomsk,
- Chernix, M.A. 2015. *Leksikograficheskoe opisanie imen sushestvitelnykh-nominatsiy lits po professii v russkom yazike XXI v.* // *Izvestiya VGPU. Filologicheskie nauki.*
- Kojanova, N.V. 2007. *Naimenovaniya lits po professii v nemetsko-yazychnoy kartine mira: Diss. ... kand. filol. nauk.* – Barnaul, – S. 64-86.
- Bogoslovskiy, S.M. 1913. *Sistema professional'noy klassifikatsii* [Tekst] / S.M. Bogoslovskiy // [Soch.] San. vrach Mosk. gub. zemstva S.M. Bogoslovskogo. – M.: Mosk. gub. zemstvo, – 747 s.
- Vasileva, A.S. 2013. *Tendentsii v upotreblenii naimenovaniy lits jenskogo pola po professional'noy prinadlezhnosti* [Tekst] / A.S. Vasileva // *Problemi sovremennogo obrazovaniya.* – M., – №1. – S. 46-53.
- Voevodina, G.A. 2010. *Nominatsii «litso po sotsialnomu polojeniyu» v sovremennom russkom yazike* (na primere proizvodnix imyon sushestvitelnix) [Tekst] / G.A.Voevodina // *Vestnik Nijegorodskogo universiteta im. N.I. Lobachevskogo.* – Nijniy Novgorod, – № 4 (2). – S. 468-470.
- Vorontsova, V.L. 1982. *Naimenovaniya lits po professii* [Tekst] / V.L.Vorontsova // *Sposobi nominatsii v sovremennom russkom yazike.* – M.,
- Golovanova, Ye.I. 2015. *Novie nazvaniya lits po professii i doljnosti v russkom yazike* [Tekst] / Ye.I.Golovanova // *Vestnik ChelGU.* – Chelyabinsk, №27 (382). – S. 60-64.
- Abdiev, M.B. 2005. *Sohaviy leksikaning sistem tahlili* (Samarqand viloyati kasb-hunarlari materiallari asosida). fil.fan.dokt.diss.avtoreferati. Toshkent, B. 12
- O'zbek tilining izohli lug'ati.* (2006-2008) Besh jildli. 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi tahrir hay'ati, E.Begmatov, A.Madvaliyev tahriri ostida. 1-jild. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” . – 115-b.

O'ZBEK VA RUS TILLARIGA TARJIMA QILISH MASALALARI**TARJIMADA EVFEMIZM VA
DISFEMIZMLARNING ETNOMADANIY
XUSUSIYATLARI**Xurshida Kadirova¹**Abstrakt**

Ushbu maqola o'zbek va rus tillari misolida tarjima jarayonida evfemik va disfemik birliklarning almashinish hodisalariga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu muammoning ayrim sabablari tahlil qilingan. Evfemizm va disfemizmlar sinonimik qatorning har ikki tomonida o'z o'rinlarini egallab, ularning musbat va manfiy qutblar giperbola o'qidagi o'rni misollar bilan ko'rsatilgan. Shuningdek, sinonimik evfemizmlar o'z tarkibida ierarxiyaga ega bo'lib, ilgari tabu evfemizm birliklari disfemizmlarga aylanganligi ham ta'kidlanadi. Muallif tarjimada tarjimonning aqliy madaniyatni bilishi, asliyat tili ruhini saqlash muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *evfemizm, disfemizm, badiiy tarjima, nutqiy vaziyat, sema, manba tili, tarjima tili, tabu, sinonimik qator, o'zgarish*

KIRISH

Evfemizmning o'ziga xosligi, uning ijtimoiy madaniy va axloqiy qadriyatlarni, dunyoqarash va tafakkur xususiyatlarini nafaqat alohida shaxslarning nutqida, balki umuman zamonaviy muayyan jamiyat nutqi portretida ko'rinish xususiyatiga ega. Evfemizmlarni boshqa tilga o'girishda tarjimonning manba tilidagi jamiyatda qabul qilingan ba'zi hodisalarni to'g'ri baholashga, ular uchun nima yaxshi, maqbul va nima noo'rin, axloqiy me'yori bo'lmasligini aniqlashga qaratilgan diqqat e'tibori katta ahamiyatga ega. Madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq evfemalarning tutqich bermasligi sababidan bu o'zgarishlarni mantazam ravishda o'rganish zarurati

¹Kadirova Xurshida Batirovna - filologiya fandlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasi dotsenti.

E-manzil: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

Iqtibos uchun: Kadirova, X.B. 2023. "Tarjimada evfemizm va disfemizmlarning etnomadaniy xususiyatlari". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5):

kelib chiqadi. Bunda qo'yilgan masalaning o'rganish obyekti sifatida adabiyot, xususan, badiiy tarjima maydonga chiqadi.

ASOSIY QISM

Evfemizatsiya badiiy matnlarda tilning uslubiy vositalaridan biri sifatida ishlatiladi. Bu uslubda evfemizmlar nafaqat gapni yumshatish, balki estetik vazifasini ham bajaradi, degan edi Moskvina [Moskvina 2010]. Ammo disfemizm to'g'risida bunday deb bo'lmaydi. Uning qo'llanilish vaziyatiga nutq sohibining tabiati, milliy madaniyati, tarbiyasi kabi qirralari kashf etiladi. U evfemizm singari tilga badiiy shakl yoki yumoristik samara beradimi yoki yo'qmi, yorqin badiiy obrazlarni yaratishda qahramon obrazini yorita oladimi yoki yo'qmi, har qalay, disfemizm asar muallifi tomonidan qo'llanilishga haqli usul bo'lib, tarjimada manba tilini o'girma tilda yetkazish uchun qo'llanilishi munozarali masaladir. Zero, u evfemizmdan badiiy matnda dekorativ funksiyani bajarishi mumkin emas.

*“Shu daqiqada unda ham, birdan aybi ochilib, sharmanda bo'lgan kishilarda yuz beradigan hodisa yuz berdi. U siri ochilgandan keyin xotini oldida **basharasiga** qanday tus berishini oldindan o'ylab qo'ymagan edi.”* [Толстой 1980]

Tilshunoslikda nominativ birliklarni o'rganishda semantikaning konnotativ jihatiga alohida e'tibor beriladi. V.N.Teliyaning fikriga ko'ra “konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okazional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmunli mohiyat”dir. [Teliya 1986] Shunga ko'ra, konnotatsiya so'zlovchining borliqni ifodalash vositalariga nisbatan munosabatiga bog'liq bo'lgan jihatdir. *Yuz, bet, chehra, ruxsori, aft, bashara, turq* kabi so'zlar qatorida tegishli nutq vaziyati va subyektiv nuqtayi nazarga muvofiq'ini tanlash so'zlovchining o'ziga berilgan imkoniyat ekanligi ma'lum. [Cho'lpon so'zining sirlari http://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html] Tarjimada esa konnotativ modallikni yo'qotish mumkin bo'lsa mumkindir, ammo qo'shish, va eng asosiysi, salbiy tomonga o'zgartirish tarjima tili o'quvchisi uchun manba tilidagi mental madaniyat to'g'risida noto'g'ri tasavvur uyg'otishiga olib keladi. Bu jumla asliyatda quyidagicha:

“С ним случилось в эту минуту то, что случается с людьми, когда они неожиданно уличены в чем-нибудь слишком постыдном. Он не сумел приготовить свое лицо к

тому положению, в которое он становился перед женой после открытия его вины.” [Tolstoy 1878]

Har qanday lisoniy birliklarni qo'llash yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'lib, bunda uning shu birlikka bo'lgan munosabati, so'z tanlash va uni qo'llashdagi o'ziga xosligi muhim o'rin tutadi. Bunda tarjimon asliyat bilan “kimo'zar” o'ynashdan o'zini tiyishi, neytral vazifadagi birlikka hosila ma'no berishdan o'zini olib qochishi, eng asosiysi, disfemik kayfiyat uyg'otishdan saqlanishi kerak.

Yuz, aft, bet, bashara, turq, chehra, jamol leksik paradigmasida barcha a'zolarining denotativ semalari bir xil: «inson a'zosi», «boshining old qismi». *Yuz* sememasida konnotativ sema mavjud emas. Lekin *bet, aft, bashara, turq* sememalarida «salbiy munosabat» konnotativ semasi mavjud bo'lsa, *chehra, jamol* leksemalari sememasida «ijobiy munosabat» konnotativ semasi mavjud. [Hakimova 2008]

A.Hojiyev *bet* so'zini izohlar ekan, uning *yuz* so'ziga juda yaqinligini, ammo unga nisbatan sal salbiy ottenkaga egaligini aytadi. [Xadjimusayeva, Ergashev 2016] Graduonimik jihatdan *bashara* leksemasi *bet* leksemasidanda quyiroq pozitsiyani egallashi esa kundek ravshan. Sinonimik qatorda evfemik va disfemik birliklar ortofemik ifodali birlikka nisbatan musbat va manfiy qutblarni egallab, o'zaro ifoda bo'yog'i, subyektiv munosabat darajasi bilan farqlanadi. Shuning uchun, bu birliklar sirasiga denotativ darajalanishni aks ettiruvchi graduonimiyadan ko'ra gradatsiya (uslubiy darajalanish)ni qidirish maqsadga muvofiq. Demak, uslubiy jihatdan tarjimon to'la ma'noda neytral ifodaga salbiy ottenka berib, xatoga yo'l qo'ygan. Quyidagi misolda esa u evfemik ifodani disfemik ifodaga almashtirganini ko'ramiz:


“Она, это вечно озабоченная, хлопотливая, и недалекая, какую он считал ее, Долли, неподвижно сидела с запиской в руке и с выражением ужаса, отчаяния и гнева смотрела на него”

“*Hamisha nimaningdir g'amini yeb urinib yuradigan, erining fikricha kaltafahm hisoblangan Dolli xatni ushlaganicha qimir etmay o'tirar, dahshat, umidsizlik va g'azab ifoda etgan ko'zlari bilan eriga tikilib qarar edi*”


Ikkala birliklarning o'z tarkibiy darajalanishda disfemiklik/ evfemiklik qiymati yuqori va past birliklar ajratiladi. Xususan, *kaltafahm* ifodasi asar muallifining недалёкий ifodasi bilan ekvivalentlik nuqtayi nazardan bir qatorda bo'lsa-da, undan salbiyroq munosabatni ifodalash darajasi yuqori ekanligi bilan farqlanadi. Uning o'rniga *kaltabin* ifodasi muayyan ma'noda mos

kelishi mumkin edi.

Qiyoslaymiz:



Demak, *kaltafahm* va *kaltabin* birliklari darajalanish qatori “salbiy bo‘yoqning o‘sib borishi” belgisi asosida tuzilgan bo‘lib, ularning iks-femiklik xususiyati ana shu pozitsiyadan kelib chiqib aniqlanadi. “Kaltalik” “axmoqlik” belgisi ekan, uning qo‘llanilish doirasi ko‘pincha disfemizatsiyani, biroq ortofemik ahmoq ifodasidan ko‘ra nutq vaziyatida evfemizatsiyani tashkil etishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu birliklar Abdulla Qodiriy ijodida qo‘llanilgan boshqa birliklar bilan darajalanish o‘qida quyidagi pozitsiyani egallaydi:



Shuni aytib o‘tish kerakki, Abdulla Qodriyning “O‘tkan kunlar” asarining tarjimasida ham O‘zbek oyimga nisbatan недалекий birliqi nisbatan o‘rinli qo‘llanilgan:

“Юсуфбек-хаджи, хорошо зная взбалмошный характер своей недалёкой жены, решил не рассказывать ей ничего о том, что произошло с Атабеком, не раскрывать его тайн, но счел необходимым предупредить Узбек-аим о приезде маргиланской невестки и ее родителей.” [Кадыри 2009]

*“Yusufbek hoji **chala-dumbul tabiatlik** xotinining **fe’li xo’yini** yaxshi bilgani uchun o’tkan voqi’larni, ya’ni Otabek sirlarini unga ochmasliqqa qaror bergan bo’lsa ham, ammo marg’ilonliq kelin va qudalarning kelishlaridan xabar berishni lozim deb topdi.”*

Asliyatda “dumbullik” ko’chma ma’noda “hayot tajribasiga ega bo’lmagan”, “g’o’rlik” mazmunida kelib, aslida, uning “chala”ligi esa “g’o’rlik” emas, balki aqllilikka yarim barobar yetmagan ma’nosini berishi kerak, ya’ni “g’o’rlik”dan biroz yuqori – “aqillilik”ka yaqinroq. Lekin “chala” so’zining o’zi salbiy ottenkaga ega bo’lgani uchun nutq vaziyatida – xalq tushunchasida bu birikma salbiy birlik sifatida qabul qilinadi. Tarjima tilida shu hosila ma’no uzvlarining mavjudligini ko’ramiz. Konnotatsiya emotiv qiymatga ega bo’lib, bu birlik manba tilidagi mental borliqni to’g’ri baholagan holda idrok etilish va aks ettirish mahsuli sifatida namoyon bo’ladi. Nutq pragmatikasi bilan bevosita va uzviy bog’liq bo’lgan evfemizmning ta’sir etish vazifasidan samarali foydalanilgan.

Взбалмошный характер va *fe’li xo’yi* birliklari alohida olinganda noto’liq (privativ) ziddiyat hosil qiladi. Mazkur birliklarning qo’llanilishi har qaysi tilda idrok etilish darajasi (axloqiy, irim, nutq madaniyati, saviya, ijtimoiy soha) talabi bilan “yumshoq yoki yumshoq emas”ligi belgisiga ko’ra *fe’li xo’yi* majhul, взбалмошный manfiy munosabat kasb etadi. Demak, bu badiiy tarjimada ham muayyan miqdorda evfemik va disfemik vaziyat almashinuviga duchor bo’ladi.

Paradoksal ravishda, aksariyat qo’pol so’zlar va iboralar (disfemizmlar) – avvallari tabulashtirilgan leksikaga tenglashtirilgan, keyin esa xalq tomonidan nozik hisoblangan kasallik, jinsiy aloqa, o’lim kabi mavzularni tasvirlashda ataylab yumshatilgan sobiq evfemizmlardir. [Lotman 1999] Darhaqiqat, tilning ichki resursida ham bunday almashinuv sodir bo’lishi endilikda sir emas. Buni biz o’zbek tilidagi “bokira” so’zi bilan tahlil qilishimiz mumkin. “Anna Karenina”ning tarjimasida Levin nutqida qo’llanilgan bu so’zning muayyan miqdorda quyi stil ottenkasi sezilib turadi: *“Masalan, sen uylangansan, sen bu hisni bilasan... shunisi dahshatliki, biz anchagina yashagan, o’tmishda... muhabbat emas, gunoh orttirgan odamlarmiz. Birdan pokiza, bokira bir vujudga yaqinlashamiz; bu jirkanch narsa, shuning uchun bunday odam o’zini noloyiq deb his etolmay turolmaydi.”* [Tolstoy 1980]

Bu tushunchaning tabu varianti tilimizda yo’qolib ketgan bo’lib, arabchadan olingan “dastlabki meva” ma’nosini beruvchi “bokira” leksemasi uni yumshatish uchun qo’llanilgan. Endilikda

bu soʻzni eshitgan odam uchun uning yashirin maʼnosi sir boʻlmay evfemiklik xususiyatini yoʻqotib, “er koʻrmagan”, “turmushga chiqmagan” maʼnolari ostida tabu oʻrnini sekin-sekin egallamoqda. Tabuning oʻzini qoʻllash esa disfemiyatsiyani yuzaga keltiradi. Manba tilidagi ijobiy qahramon nutqida esa nozik mavzuga boʻlgan munosabati, ichki madaniyati, istihola saqlanib qolingani: *“Вот ты женился, ты знаешь это чувство... Ужасно то, что мы – старые, уже с прошедшим... не любви, а грехов... вдруг сближаемся с существом чистым, невинным; это отвратительно, и потому нельзя не чувствовать себя недостойным”*

Xuddi shunday “jonon”, “doʻndiqcha” soʻzlarini ham olish mumkin. U fohishaga nisbatan – evfemik; tarbiyali, toʻgʻri hayot kechiruvchi ayol uchun disfemizmdir. Levin munosabati asosda qurilgan muallif nutqiga koʻchgan bu soʻz Levinga nisbatan salbiy sifat soya solgan: *“Xotinlar koʻpincha xunuk, oddiy odamlarni yaxshi koʻrishadi, deb eshitgan boʻlsa ham, bunga ishonmasdi, chunki u bu narsani oʻziga qarab yechar, oʻzi esa faqat **chiroyli, sirli** va **jonon** ayollarnigina yaxshi koʻrardi.”* Bu birlik oʻzbek tilida vaqt oʻtishi bilan oʻziga evfemik qobiq talab etib qolgan. Rus tilida esa bunday holatni koʻrmaymiz: *“Слышал он, что женщины любят часто некрасивых, простых людей, но не верил этому, потому что судил по себе, так как сам он мог любить только красивых, таинственных и особых женщин.”*

1988-yilda A.M.Katsev evfemizm bilan disfemizm oʻrtasidagi farqni keskin qoʻygan edi: дисфемизм не есть эвфемизм сниженного стиля. Дисфемизм является антиподом, а не разновидностью эвфемизма. Дисфемизм противоположен эвфемизму, но не в стилистическом, а в ассоциативно-денотативном плане [Katsev 1988]. Lekin bu xulosalarda ham jon bordek, nazarimizda. Har ikki hodisa ham okkazional xarakterga ega boʻlib, ular mudom oʻzgarib turadi, doimo yangi. Faqat disfemizmdan farqli oʻlaroq, evfemizm vaqt oʻtib, lisoniy birlikka aylanish xususiyatiga ega va, shu bilan birga, oʻz evfemik xususiyatini ham yoʻqota oladi. Bu tez-tez qoʻllanish sababidan amalga oshadi. O.D.Pastuxova aytganidek, vaqt oʻtishi bilan yoqimsiz narsalar evfemizatsiyasi samarasiz boʻladi, chunki ular biron bir nozik mavzuni tasvirlashda kutilmaganda aytilganda oʻz maʼnosining ravshanligi va aniqligi bilan quloqqa yoqimsiz eshitila boshlaydi. [Pastuxova 2016] Disfemizmlar esa ortofemaga aylanmay, salbiy kuchida qolish bilan xarakterlanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida, birinchi navbatda, Sanjar Siddiqning tarjimada ro'y beradigan yanglishlarini uchga ajratishini esga olamiz:

“Birinchi xil xatolar — *bilimsizlikdan, tilni yaxshi bilmaslik hamda so'zlarning o'rniga qarab turli ma'noda kelishini anglab yetmaslik natijasidir.*

Ikkinchi xil xatolar — *tildagi sinonimlardan, tilning lug'at boyligidan xabarsizlik, ya'ni har bir tilning o'ziga xos iboralarining ichki mazmunidan begonalik natijasida va nihoyat:*

Uchinchi xil xatolar — *jumla va tarkiblarni o'girishdagi loqaydlikdan kelib chiqadi.” [O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi 1985]*

Bu xil xatolar evfemik va disfemik birliklarning almashinuviga olib kelishi, natijada manba tili ruhining tarjima tilida aks etmasligiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, muayyan tilning o'zida biror tushuncha birdan ortiq nomga ega. Masalan, o'zbek tilida «Aldab, chalg'itib, har qanday ishni o'z foydasiga hal qiladigan, makr-hiylaga usta» ma'nosi 15ta leksemada ifodalangan: *ayyor, mug'ombir, hiylagar, quv, ustomon, makkor, dog'uli, mo'ltoni, qilvir(i), shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston*. Bu ham ma'no va nom o'rtasidagi bog'liqlikning tabiiy emasligini ko'rsatadi. [Hakimova 2008] Tarjimada uning mosini tanlash yuksak tajriba, mas'uliyat va bilim zahirasini talab etadi. Zero, sinonimik qatorda nominativ – figural ma'nolar, asos va hosila ma'nolar, salbiy – ijobiy ma'nolar, monosemantik – polisemantik ma'nolar mavjud ekan, nutq vaziyatida uning evfemik va disfemik vazifa bajarishi mumkin bo'lgan jihatlariga tarjimada e'tibor qaratilishi kerak.

Uchinchidan, har bir tilning o'z nutqiy qo'llanilish taraqqiyoti natijasida evfemik/disfemik vaziyat almashinuvi bo'lib, tarjimada ulardan foydalanishga ehtiyotsizlik qilishga, o'quvchi psixologik tasavvurida noto'g'ri kartina chizishga, milliy ruhni o'zgartirishga haqi yo'q.

Adabiyotlar

Beysenova, A., & Kadirova, X. (2022). *“Zamonamiz qahramoni” asarida qo'llangan frazeologizmlarning badiiy tarjimada aks etishi (o'zbek va rus tillari misolida). Uzbekistan Language and Culture*, 5(1). Retrieved from <http://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/4>

Кадирова, Х. 2021. Проблемы перемены эвфемизмов и дисфемизмов в художественном переводе. // ELMi IŞ beynəlxalq elmi jurnal. – AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue:

- 10; St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>
- Кадилова, Х. 2022. *Проблемы перевода узбекских эвфемизмов на русский язык* // O'zbekiston milliy universiteti xabarleri, [1/9/1] ISSN 2181-7324 / Общественные науки. [https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-191-2022\(3-bolim\).pdf#page=38](https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-191-2022(3-bolim).pdf#page=38)
- Кадилова Х. Б. 2021. *Эвфемический и дисфемический смысл в структурно-прагматическом анализе* // Мировая наука. – №. 4. – С. 123-125. URL: https://www.researchgate.net/profile/Xurshida-Kadirova/publication/352902189_EVFEMICESKIJ_I_DISFEMICESKIJ_SMYSL_V_STRUKTURNO-PRAGMATICESKOM_ANALIZE/links/60ded7dca6fdccb745fc067c/EVFEMICESKIJ-I-DISFEMICESKIJ-SMYSL-V-STRUKTURNO-PRAGMATICESKOM-ANALIZE.pdf
- Кадилова Х.Б. 2020. *Эвфемико-дисфемистические значения в пересечении структурно-прагматического анализа* // Международный научный обзор проблем философии, психологии и педагогики // Boston. USA. January 28-29, Ст. 19-23. URL: <https://scientific-conference.com/images/PDF/2020/16/euphemic-dysphemistic-values.pdf>
- Кадыри, А. 2009. *Минувшие дни*. (перевод Мухаммаднодыра Сафарова). – Ташкент: Шарк. 430 с.
- Кацев, А. М. 1988. *Языковое табу и эвфемия* / А. М. Кацев. – Л.: Ленингр. гос. пед. ин-т им. А.И. Герцена, – 75 с
- Лотман, Ю. М. *Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история* / Ю. М. Лотман. – М.: Языки русской культуры, 1999.
- Москвин, В.П. 2010. *Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка*. Волгоград: Ленанд, – 264 с.
- Пастухова, О.Д. 2016. *От эвфемизма к дисфемизму*. // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах. Материалы VIII Международной научной конференции, Челябинск, 20-22 апреля 2016 года. Из-во: Энциклопедия.
- Телия В.Н. 1986. *Коннотативный аспект семантики номинативных единиц*. Москва: Наука, С. 5 – 143 с.
- Толстой, Л. 1980. *Анна Каренина* (Мирзакалон Исмоилий таржимаси). – Тошкент, Гофур Гулом.
- Толстой, Л. 1878. *Анна Каренина*. «Эксмо», — (Библиотека всемирной литературы). – 165 с.
- Чўлпон сўзининг сирлари. 2002. Тошкент: Маънавият, Электрон ресурс: http://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html
- Ўзбекистонда бадиий таржима тарихи. 1985. С.Мамажонов таҳрири остида. – Т., “Фан”,– 176 б.
- Хаджимусаева, Н.Н., Эргашев, Ў. 2016. “Орзигул”даги юз, бет, жамол, дийдор, турк синонимларининг стилистик хусусиятлари

ҳақида.//Дефектологиянинг долзарб масалалари. Респу-
блика илмий-амалий анжуман материаллари.

ETHNO-CULTURAL CHARACTERISTICS OF EUPHEMISMS AND DYSPHEMISMS IN TRANSLATION

Kadirova Khurshida¹

Abstract

This article is devoted to the phenomena of exchange of euphemistic and dysphemetic units in the process of literary translation on the example of the Uzbek and Russian languages, which analyzes some of the causes of these problems. In it, euphemisms and dysphemisms occupy places on both sides of the synonymous row, and their place on the axis of the positive and negative poles is illustrated by examples. It is also argued that synonymous euphemisms have a hierarchy in their composition and that euphemistic units that were previously tabooed have turned into dysphemisms. The author emphasizes the importance of the skill of a translator who understands the mental culture and tries to preserve the spirit of the source language in the target language.

Key words: *euphemism, dysphemism, literary translation, speech situation, seme, source language, target language, taboo, synonymous row, change.*

Reference

- Beysenova, A., & Xurshida, X. (2022). *"Zamonamiz qahramoni" asarida qo'llangan frazeologizmlarning badiiy tarjimada aks etishi (o'zbek va rus tillari misolida)*. Uzbekistan Language and Culture, 5(1). Retrieved from <http://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/4>
- Kadirova, X. 2021. *Problemi peremeni evfemizmov i disfemizmov v xudojestvennom perevode.* // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. – AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue: 10; St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>
- Kadirova, X. 2022. *Problemi perevoda uzbekskix evfemizmov na russkiy*

¹Kadirova Khurshida Batirovna – Candidate of Philological Sciences, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Associate Professor of the Department of Uzbek Language Education in Foreign Language Groups.

E-mail: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

For reference: Kadirova, Kh. B. 2023. *"Ethno-cultural characteristics of euphemisms and dysphemisms in translation"* Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

- yazik // O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, [1/9/1] ISSN 2181-7324 Obshestvennie nauki. [https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-191-2022\(3-bolim\).pdf#page=38](https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-191-2022(3-bolim).pdf#page=38)
- Kadirova X. B. 2021. *Evfemicheskiy i disfemicheskiy smisl v strukturno-pragmaticheskoy analize* // Mirovaya nauka. – №. 4. – S. 123-125. URL: https://www.researchgate.net/profile/Xurshida-Kadirova/publication/352902189_EVFEMICESKIY_I_DISFEMICESKIY_SMYSL_V_STRUKTURNO-PRAGMATICHESKOM_ANALIZE/links/60ded7dca6fdccb745fc067c/EVFEMICESKIY-I-DISFEMICESKIY-SMYSL-V-STRUKTURNO-PRAGMATICHESKOM-ANALIZE.pdf
- Kadirova X.B. 2020. *Evfemiko-disfemisticheskie znacheniya v peresechenii strukturno-pragmaticheskogo analiza* // Mejdunarodniy nauchniy obzor problem filosofii, psixologii i pedagogiki // Boston. USA. January 28-29, St. 19-23. URL: <https://scientific-conference.com/images/PDF/2020/16/euphemic-dysphemistic-values.pdf>
- Kadiri, A. 2009. *Minuvshie dni*. (perevod Muxammadnodira Safarova). – Tashkent: Shark. 430 s.
- Katsev, A. M. 1988. *Yazikovoe tabu i evfemiya* / A. M. Katsev. – L.: Leningr. gos. ped. in-t im. A.I. Gertsena, – 75 s
- Lotman, Yu. M. 1999. *Vnutri mislyashix mirov*. Chelovek – tekst – semiosfera – istoriya / Yu. M. Lotman. – M.: Yaziki russkoy kulturi,
- Moskvin, V.P. 2010. *Evfemizmi v leksicheskoy sisteme sovremennogo russkogo yazika*. – Volgograd: Lenand, – 264 s.
- Pastuxova, O.D. 2016. *Ot evfemizma k disfemizmu*. // Slovo, viskazyvanie, tekst v kognitivnim, pragmaticheskoy i kulturologicheskoy aspektax. Materiali VIII Mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii, Chelyabinsk, 20-22 aprelya 2016 goda. Iz-vo: Entsiklopediya.
- Teliya V.N. 1986. *Konnotativniy aspekt semantiki nominativnix yedinit*. Moskva: Nauka, S. 5 – 143 s.
- Tolstoy, L. 1980. *Anna Karenina* (Mirzakalon Ismoilij tarjimasi). Toshkent, G'ofur G'ulom.
- Tolstoy, L. 1878. *Anna Karenina*. «Eksmo», — (Biblioteka vseмирnoy literaturi). – 165 s.
- Cho'lpon so'zining sirlari. 2002. Toshkent: Ma'naviyat, Elektron resurs: http://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html
- O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi. 1985. S.Mamajonov taxriri ostida. T., "Fan", – 176 b.
- Xadjimusaeva, N.N., Ergashev, O'. 2016. *"Orzigul"dagi yuz, bet, jamol, diydor, turk sinonimlarining stilistik xususiyatlari haqida*.// Defektologiyaning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2016 yil 30 may. – Toshkent: TDPU. B. 217-219
- Hakimova, M. 2008. *Semasiologiya*. O'quv qo'llanma. Toshkent: XT «Xamidov N.X» matbaa korxonasi, B.40. – 100 b.

NAZARIY VA AMALIY ADABIYOT MASALALARI

MAQSUD SHAYXZODA ADABIY MEROSINING
TIL XUSUSIYATLARIGulsanam Norova¹**Abstrakt**

Maqolada ozarbayjon va o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi bo'lgan Maqsud Shayxzoda adabiy merosi va asarlarining til xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, ushbu maqola orqali bugungi kunda Maqsud Shayxzoda ijodining tilshunoslikda o'rganilmagan jihatlari ham tahlil qilingan. Bu orqali ilmiy ish olib bormoqchi bo'lgan yosh tadqiqotchilarga ham yo'nalish berilgan. Maqoladan asosiy maqsad har ikki turkiy qardosh xalqlarning uyg'unligini namoyon etish, ijodkorning ijodiy merosi orqali muhim jihatlarni ko'rsatishdan iboratdir. Bu orqali o'zbek tilshunosligida yana yangi ilmiy tadqiqotlar orib borilib, tilshunosligimiz yanada boyib borishi, ayni haqiqat. Zero, Maqsud Shayxzoda o'z ijodi bilan o'zbek adabiyoti va tilshunosligiga beminnat hissa qo'shgan.

Kalit so'zlar: *o'zbek va ozarbayjon adabiyoti, Oqtosh shahri, dramaturg, drama, "O'n she'r", "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", she'riy to'plamlar, "Mirzo Ulug'bek" dramasi, "Jaloliddin Manguberdi" dramasi, Vatan ozodligi, mustaqillik, vatanparvarlik, tarixiy obraz, to'qima obraz, bosqinchi, valiahd, hokim, poetik asar, teranlik.*

KIRISH

Tafakkur va fikrlashlarimiz milliy g'oya asosida takomillashayotgan bir davrda o'z davri ijodkorlarining san'at hisoblangan badiiy asarlari tilini endilikda tadqiq etish ishlari yangicha uslubda boshlandi. Maqsud Shayxzoda ijodiga munosabat, asarlari mazmuni va mohiyatini tushunish har bir asarning o'ziga xos serjilo, purma'no, emotsionallikka boy jihatlari kabi qirralarini ochishga asosdir.

Ozarbayjon va O'zbekistonning mohir so'z san'atkori Maqsud Shayxzoda merosini uning nazmiy va nasriy asarlari kabi yetuk mu-

¹Gulsanam Maxsutovna Norova – Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qoshidagi Nasimi nomidagi Tilchilik Instituti doktoranti

E-manzil: gulsanam81ndpi@umail.uz

ORCID: 0009-0008-4789-057X

Иқтибос учун: Norova, G. 2023. «Maqsud Shayxzoda adabiy merosining til xususiyatlari». O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5):

tafakkirlar hayoti hamda ijodi ularning ilmiy, tarixiy, falsafiy, diniy, axloqiy qarashlari, g'oyalarga ilmiy munosabati kabi masalalar o'rganilishi nihoyatda zarur ekanligiga ishoratdir.

Ona tilini puxta o'rganish g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar orasida eng asosiy masalalardan hisoblanadi. O'z navbatida milliy tilni chuqur o'zlashtirish, uning adabiy manbalari tilini maxsus tadqiq etish tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biridir. Shu ma'noda turli davrlarda yaratilgan yetuk ijodkorlar asarlari tilini milliy til manbayi sifatida chuqur o'rganish, unda qo'llangan har bir so'zning bosh lug'aviy va ko'chma, ya'ni matniy ma'nolarini aniqlash, so'zning eskirishi, fonetik, grammatik, leksik arxaiklashishi, davrlar o'tishi bilan ma'noning kengayishi va torayishi, yangi ma'no kasb etishi, asar ruhiyatiga xos ijodkor ichki tuyg'ularini tushunish kabi til bilimi bilan bog'liq masalalarni ilmiy asoslash muhim tadqiqotlardan biridir.

ASOSIY QISM

Ijodkorning turli mavzuga bag'ishlangan badiiy asarlarida badiiylikni oshirish, shu bilan birga o'quvchida real tasviriy holatni ishontira bilish, emotsional-bo'yoqdor so'zlardan foydalanish, turli sohalarga oid so'z va atamalarni soha mutaxassisi darajasidan ham ortiq o'ziga xos uslubda adabiy til normasi sifatida tasvirlay olish so'z san'atkoridan katta mahorat talab etadi. Maqsud Shayxzodaning badiiy asarlarida hayotning turli jabhalariga taalluqli bo'lgan so'z va atamalar xos o'z badiiy ifodasini topgan. Bu esa, albatta, so'z san'atkorining dunyoqarashi bilan bog'liq kuzatuvchanlik, turli sohalarga bo'lgan qiziquvchanlik, ayniqsa, gumanistik g'oyalar bilan yo'g'rilgan ijtimoiy, tabiiy sohalarga nisbatan chuqur mulohazakorligidan darak beradi.

Aslida qondosh ozarbayjon naslidan bo'lib, keyinchalik o'zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ildi. Otasi Ma'sumbek el-u yurtida katta obro'ga ega shifokor edi.

U san'at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqardi, Oqtosh ziyolilari bilan turli masalalarda suhbatlashardi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ilk daf'a ana shu gurunglarda eshitadi hamda bu muhit unga adabiyotga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

Maqsud Shayxzoda Oqtoshda ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921-yili Boku dorilmualliminiga o'qishga kiradi va uni tugatgach Dog'istonning Darband, Bo'ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U

1926-yili Adhem Fayziyning “Milliy firqa” tashkilotiga a’zo bo’lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928-yilda hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho’ro hukumati Shayxzodani O’zbekistonda ham ta’qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo’q. Muhimi shundaki, Shayxzoda “tole’ doim erkalamaganiga” qaramay, umrining oxiriga qadar o’zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko’rsatdi va O’zbekiston uning ikkinchi vatani bo’lib qoldi.

Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin “Sharq haqiqati”, “Qizil O’zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalarida ishlaydi. 1929-yili yosh shoirning o’zbek tilidagi dastlabki she’ri “Sharq haqiqati” gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko’p o’tmay, Shayxzodaning birinchi to’plami “O’n she’r”, keyinroq “Undoshlarim”, “Uchinchi kitob”, “Jumhuriyat” kabi to’plamlari nashr etiladi.

METODLAR TAHLILI

Maqsud Shayxzoda “xalqimizning mehnat qahramonligi, kurash va jang, ozodlik va do’stlik, baxt va alam, yurtning go’zal manzaralari va insonning ma’naviy jamoli mening qalamimga oshno, dilimga mazmun bo’lib keldi” deb ta’kidlagan edi. Shoirning bu fazilatlarini, eng avvalo, hayotdagi, voqelikdagi va odamlarimizning ruhiy olamidagi o’zgarishlar, holatlarni ifodalashga qodir yangi, betakror obrazlarida namoyon bo’ldi. Shoirning o’zi “Inson umri cheklangan muhlatli daftar”, demak bu daftarni foydali, ezgu ishlar – “yozuvlar” bilan to’ldirish lozim deydi. “Raqamlar” she’rida esa shunday satrlar bor: “Men na munajjimman va na hisobdon va lekin ko’raman sonlar mag’zida osmoncha ma’nolar, yurtni obodon”... Maqsud Shayxzoda ijodiy balog’atidan dalolat beruvchi asarlardan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik o’z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo’lib, unda shoir shaxsiyatining o’ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo’lgan.

Shayxzoda umrining so’ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasi hisobga olmaganida ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug’bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi.

Shuni ta’kidlash joizki, Maqsud Shayxzoda asarlari tili leksikasi hanuzgacha o’rganilmagan. XX asr 30-yillar o’zbek adabiy tili xususiyatlarini o’zida mujassamlashtirgan yozuvchi nasriy asarlari

leksikasini o'rganish o'zbek tili taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari-ni yoritish uchun ahamiyatlidir. So'z san'atkorining nasriy asarlarida falsafiy, axloqiy, ta'limiy mushohadalar yoritilgani bois, xalqning o'sha muhitdagi dunyoqarashi, e'tiqodi, milliy urf-odatlar, tafakkuri haqida ma'lumot beruvchi manba hamdir. Yozuvchi asarlarida o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanish jarayonlarini aks ettiruvchi leksik birliklar, yozuvchi tomonidan hosil qilingan o'ziga xos emosional-bo'yoqdorliklar, ayniqsa, qadimgi turkiy eski o'zbek tiliga xos til birliklarining faol ishlatilgani ko'rinadi. Uning nasriy asarlari tili leksikasini maxsus o'rganishda quyidagi masalalarni yoritish maqsadga muvofiq:

1. nasriy asar tili haqida umumiy ma'lumot berish;
2. badiiy asar tili leksikasini o'rganishning o'ziga xos tamoyillarini belgilash;
3. so'z san'atkorining o'ziga xos so'z qo'llash uslubini aniqlash, undagi jonli xalq tiliga xos xususiyatlarni topish;
4. nasriy asarlardagi bo'yoqdor til birliklarini tahlil etish;
5. asar tilidagi eskirgan, arxaiklashgan so'zlar semantik taraqqiyotini aniqlash;
6. asar leksikasini tematik guruhlariga ajratishdan iborat.

Maqsud Shayxzoda nasriy asarlari tili leksikasi hanuzgacha maxsus o'rganilmagan.

El ardog'idagi yozuvchilar asarlari tilini o'rganmay turib, shu yozuvchilar mansub bo'lgan xalqning tarixini mukammal bilib bo'lmaydi. Masalan, Rossiya tarixini Pushkin asarlari tilisiz, Angliya tarixini Shekspir, Bayron asarlari tili tahlilisiz tushunarli bo'lmaydi. O'zbek xalqining tarixini chuqur bilish esa Navoiy, Bobur va boshqa buyuk ijodkorlar tilini o'rganish bilan bog'liqdir. O'zbek adabiy tili o'tmishi, hozirgi holati, ijodkor yashagan davr tilining umumiy yo'nalishi va rivojlanish qonuniyatlarini belgilashda, tilda ro'y berayotgan jarayonlarni o'zida aks ettirgan mohir so'z san'atkori Maqsud Shayxzoda asarlaridagi o'zig axoslik, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Kahhor asarlari tili kabi milliy adabiyotimiz uchun kerakli so'zlarni tanlay bilishda konkret tasvirdan keng umumiy planda foydalanishda namoyon bo'lgan. U o'z asarlarida jozibador manzara yaratish maqsadida so'zning hissiy kuchini oshirib, kishida his-hayajon uyg'otib hayratda qoldiradigan real hayotiy va jonli lavhalar tasvirida namoyon etadi.

Maqsud Shayxzoda prozasi o'tgan asrning 30-yillaridan e'tiboran milliy til elementlaridan mahorat bilan foydalanishga badiiy

tasvirni individual bo'yoqlar asosida hissiyotni konkret detallar bilan berishga erisha olgan edi. Uning bu davrlarda yaratilgan "Meros", "Tuproq va haq", "Ovchi qissasi", "Iskandar Zulqarnayn", "O'n birlar", "Ahmadjonning hikmatlari", "Uchinchi o'g'il", "Nurmat otaning tushi" singari liro-epik asarlaridagi obrazlilik, real tasviriylik o'quvchini o'ziga tortadi, sehrlaydi. Ulkan yozuvchi o'z asarlarida har bir so'zni, iborani o'rinli qo'llagani uchun ularda voqea tafsiloti, qahramon xatti-harakati, uning ismi-sharfi, joy nomi, manzara tasvirlarida aniqlik bo'lishi bilan birga chuqur badiiylik ustunlik qilgan. Bunda barcha uchun umumiy, kundalik hayotda zarur narsa va hodisa tafsilotlarini anglatuvchi so'zlar xalq jonli tili asosida badiiy ifodalangan. O'zbek tilining lug'at tarkibi nihoyatda boydir. Shuning uchun ijodkorlar o'zbek tili leksik boyligidan kerakli so'zlarni erkin tanlab olish imkoniyatiga egadirlar.

Maqsud Shayxzoda nasriy asarlari tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari jihatdan kuzatilsa, dastlab genetik jihatdan so'zlar 2 guruhga – o'z va o'zlashgan qatlamga bo'linadi. Til lug'at tarkibini tarixiy-etimologik nuqtai nazardan tekshirganda, avvalo tarixan kelib chiqishi nuqtai nazaridan o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan so'zlar belgilab olinadi. Bunday so'zlar ijodkor asarlari leksikasining asosini tashkil etgan. Yozuvchi asarida sof turkiy so'zlarni o'rinli ishlatgani - tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanganligidan dalolatdir. Shoir har bir so'zni qo'llashda asar matni ruhidan kelib chiqib badiiy tasvir vositasi sifatida adabiy tilning leksik imkoniyatlari hisoblangan omonim, sinonim so'zlardan mahorat bilan foydalangai. Badiiy asar leksikasining ko'p qirraligi yozuvchining so'z boyligini namoyon qiluvchi yorqin misollardan biridir.

Maqsud Shayxzoda nasriy asarlari leksikasini mavzuiy guruhlariga bo'lish shuni ko'rsatadiki, ijodkor o'z asarlarida turli sohalarga oid so'zlardan keng foydalangan. Badiiy asarning tematik jihatdan rang-barangligini ko'rsatish maqsadida ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Atoqli otlar. Kishi ismlari.
2. Urug', etnik nomlar.
3. Qavm-qarindoshlik terminlari.
4. Inson a'zolari nomlari.
5. Kiyim- kichik atamalari.
6. Joy nomlari.
7. Daryolar nomi.
8. Son-sanoq, hajm, vaqt bilan bog'liq masofa, tomon, og'irlik, o'lchovli, birliklarini bildiruvchi so'zlar.

9. Koinot va tabiatga oid atamalar.
10. Inson holati va kayfiyati bilan bog'liq so'zlar.
11. Mahkama, unvon, daraja va huquqqa oid so'zlar.

Shayxzodaning ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan "Jaloliddin Manguberdi" (1944) hamda "Mirzo Ulug'bek" (1961) dramalarida bu jihatlarni ko'rish mumkin. Xususan, xalqni dushmanga qarshi birlashtirish va yurt himoyasini uyushtirish yo'lidagi Jaloliddin ko'rsatgan jonbozliklarini saroydagi Badriddin singari munofiq kimsalar va ular ta'sirida dastlab otasi Xorazmshoh ham to'g'ri tushunmaydi. Shunda Jaloliddin "Menga koshonadan chodir yaxshiroq" deb chiqadi va yurt himoyasi uchun qo'shin berishlarini talab qiladi.

Dramaturg Chingizxon obrazini mahorat bilan yaratadi. Shuni muhimki, u bu obrazni qora bo'yoqlarga chaplab tashlamaydi. Tarixiy haqiqatga rioya qilgan holda, bu shaxsning Jaloliddin va Temur Malik qahramonligi jasoratiga tan berganligini ifodalashni unutmagan holda, uning tabiatidagi bosqinchilik, yovuzlikni, pokiza insoniy tuyg'ularni oyoq osti qilish singari xususiyatlarni to'laqonli badiiy gavdalandiradi:

Adolat yo insof? Nima degan u?

Tupurdim bularga, ming marta tfu!

Bu fikr uning dunyoqarashini juda aniq ochib bera olganidek, mana bu mulohazalari uning ruhiy dunyosiga bir ochqich bo'la oladi:

Muhabbat! Bu so'zni kimlar to'qigan?

Go'l shoir yozgan-u, tentak o'qigan.

Yuqoridagi qahramonlar, asosan, tarixiy qahramonlardir. Asarda ular bilan yonma-yon dramada muallif badiiy taxayyulining mahsuli bo'lgan Elbors pahlavon, Yaroqbek, Navkar, No'yon, Tabib chol singari to'qima qahramonlar ham ishtirok etadilar.

"Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramasi badiiy jihatdan teran asardir. Asar monolog va dialoglari pishiq ishlangani, har bir qahramon xarakterining ham til boyligini, ham ruhiy dunyosidagi o'ziga xoslikni ifodalay oladigan yo'sinda ekani bilan ajralib turadi. Qahramonlararo konfliktlarda sun'iylik yo'q, ular voqyealarning tabiiy oqimi va xarakterlar kurashidagi maqsadning hayotiyliги va haqqoniyligidan kelib chiqadi.

XULOSA

O'zbek adabiy tilining bugungi taraqqiyot darajasi uning tarixiy-tadriji rivojlanish bosqichlari bilan belgilanadi. O'zbek tilining leksikasi boyishi jarayonini kuzatish badiiy asar tili va uning uslubiy xususiyatlarini diaxronik va sinxronik yo'nalishda o'rganish

tilshunosliknig asosiy vazifalaridan biridir. Nasr tili ma'lum darajada nazm tilidan farq qiladi. Nasr tilida ma'lum joy xususiyatlarini aks ettirish jarayonida qahramonlar nutqi orqali dialektal so'zlar kasb-hunarga oid atamalar, jargonlar va shunga o'xshash leksik birliklardan foydalaniladi.

O'zbek tili leksikasini o'rganishda Maqsud Shayxzoda nasriy asarlari o'ziga xos o'ringa ega. Ijodkorning turli mavzuga bag'ishlangan badiiy asarlarida badiiylilikni oshirish, shu bilan birga o'quvchiga real tasviriy holatni ishontira bilish, emotsional bo'yoqdor so'zlardan foydalana bilish o'ziga xos uslubda adabiy til normasi sifatida tasvirlay olish so'z san'atkoridan katta mahorat talab etishi kuzatiladi.

Maqsud Shayxzodani o'qish jarayonida kitobxon shuni anglaydi-ki, qariyb qirq yillik ijodiy faoliyati mobaynida milliy adabiyotimizning she'riyat, dramaturgiya, publitsistika singari sohalarida samarali ijod qilibgina qolmay, adabiyotshunoslik va badiiy tarjima masalalari bilan ham faol shug'ullangan. Akademik Naim Karimov ta'biri bilan aytak, Maqsud Shayxzoda o'z adabiyotini jahon xalqlari adabiyotlari bilan o'zaro bog'lagan "oltin ko'priklarimizdan biridir.

Maqsud Shayxzoda ozarboyjon farzandi. U garchi O'zbekistonda yashagan bo'lsa-da, o'z tili va millati ravnaqi uchun beminnat xizmat qildi. Turkiy til rivoji uchun o'z asarlari bilan hissa qo'shdi. O'zbek va ozarboyjon xalqining qalbidan chuqur joy olgan yozuvchi, dramaturg, shoir Maqsud Shayxzoda nomi hamda ijodiy merosini kelajak avlod asrab-avaylashi, bu borada qator ilmiy izlanishlar olib borishi, hali o'rganilmagan jihatlarini tahlil va talqin qilishi zarur. Bu mashaqqatli va sharaflı yo'lda men ham Maqsud Shayxzoda ijdiga bo'lgan mehrimni namoyon etib borayotganimdan mamnunman.

Adabiyotlar

- Мақсуд, Шайхзода. 1969. Асарлар. Тошкент.
Зокиров, М., Шайхзода, М. 1969. Адабиёт. Адабий танқидий очерк. Тошкент.
Юсуф, Шомансур. 1972. Шайхзода — бунёдкор шоир. Тошкент.
Ғафуров, И. 1975. Ўртоқ шоир. Мақсуд Шайхзода ижодиёти. Тошкент.
Мақсуд Шайхзода замондошлари хотирасида. 1983. Тошкент.
XX аср ўзбек адабиёти тарихи. 1999. Тошкент.
Шайхзода, Мақсуд. 1956. Атоқли халқ шоири. Тошкент.
Шайхзода, Мақсуд. 2008. Шоир қалби дунёни тинглар (Танланган асарлар) Тошкент, "Ниҳол", 28 б.
Қиличев Э. 1982. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. Тошкент: Фан.
Ўзбек тили лексикологияси. 1981. Тошкент.

- Abdurahmonov G'. 2008. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi: Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik /G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov. T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, - 528 b.
- Порсо, Шамсиев; Иброҳимов, Собиржон. Ғафур Ғулом ва А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти. 1953. Ўзбек Классик Адабиёти Асарлари Учун Қисқача Луғат. Ташкент: Ўзбекистон ССР фанлар академияси нашириёти.
- Абдурахмонов, Ғ. 1973. Ўзбек тилининг стилистик нормалари нутқ маданияти масалалари. Тошкент.

LINGUISTIC FEATURES OF THE LITERARY HERITAGE OF MAQSUD SHAYKHZADEH

Gulsanam Norova¹

Abstract

The article examines the literary heritage and language features of the works of Maqsd Shaykhza, a bright example of Azerbaijani and Uzbek literature. This article also analyzes aspects of Maqsd Sheikhzadeh's work that are not studied in linguistics today. Young researchers who want to do scientific work are also guided through this. The main purpose of the article is to demonstrate the harmony of both Turkic brotherly nations, to show the important aspects of the creative heritage of the artist. It is a fact that through this, new scientific researches in Uzbek linguistics will be carried out, and our linguistics will become richer. After all, it is true that Maqsd Shaykhzade made a happy contribution to Uzbek literature and linguistics with his work.

Key words: *Uzbek and Azerbaijani literature, Oktosh city, dramatist, drama, Ten Poems, "Consonants", "Third Book", poetry collections, "Mirzo Ulugbek" drama, "Jalaluddin Manguberdi" drama, freedom of the Motherland, independence, patriotism, historical image, textile image, invader, prince, governor, poetic work, depth.*

¹Gulsanam Maxsutovna Norova - Senior Lecturer of Navoi State Pedagogical Institute, PhD in philosophy in philological Sciences, doktoranti of Nasimi Institute of linguistics under Azerbaijan National Academy of Sciences

E-mail: gulsanam81ndpi@umail.uz

ORCID: 0009-0008-4789-057X

For reference: Norova, G. 2023. "Linguistic features of the literary heritage of maqsd shaykhzadeh". Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

References

- Maqsud, Shayxzoda. 1969. Asarlar . Toshkent.
- Zokirov, M., Shayxzoda, M. 1969. Adabiyot. Adabiy tanqidiy ocherk. Toshkent.
- Yusuf, Shomansur. 1972. Shayxzoda — bunyodkor shoir. Toshkent.
- G'afurov, I. 1975. O'rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti. Toshkent.
- Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida. 1983. Toshkent.
- XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. 1999. Toshkent.
- Shayxzoda, Maqsud. 1956. Atoqli xalq shoiri. Toshkent.
- Shayxzoda, Maqsud. 2008. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) Toshkent, "Nihol", 28 b.
- Qilichev E. 1982. Badiiy tasvirning leksik vositalari. Toshkent: Fan.
- O'zbek tili leksikologiyasi. 1981. Toshkent.
- Abdurahmonov G'. 2008. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi: Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik /G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov.T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, - 528 b.
- Porso, Shamsiev; Ibrohimov, Sobirjon. G'afur G'ulom va A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. 1953. O'zbek Klassik Adabiyoti Asarlari Uchun Qisqacha Lug'at. Tashkent: O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Abdurahmonov, G'. 1973. O'zbek tilining stilistik normalari nutq madaniyati masalalari. Toshkent.

MUTOLAANING AMALIY ASPEKTLARI

ADABIYOT DARSLARIDA TEKSTUAL-ANALITIK
TAHLIL ASOSIDA O'QUVCHILARDA MUTOLAANI
RIVOJLANTIRISHOkila Turakulova¹**Abstrakt**

Mazkur maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarda kitob mutolaasini rivojlantirishning o'ziga xos usullari yoritilib, mutolaani rivojlantirishda adabiyot darslarining samaradorligi, badiiy asarning o'quv-didaktik tahliliga analitik yondashuv adabiy ta'limni modernizatsiyalashning muhim omillaridan biri ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *kitob, mutolaa, analitik yondashuv, o'quv didaktik tahlil, tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, mantiqiy fikr, konseptual savol.*

KIRISH

Dunyoda kun-u tun axborotlar, xabarlar tahlil etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, sport, madaniyat sohalari doirasidagi axborotlar, xabarlar tahlili sira to'xtamaydi. Jahonning qaysidir bir joyida sodir bo'lgan voqea-hodisa, yangilik, xushxabar yoki noxushlik ma'lum vaqt o'tib-o'tmasdan ommaviy axborot vositalari, internet tizimi orqali olam bo'ylab tarqaladi. Bu jarayonda tafakkuriy tezlik, kenglik, aniqlik, mazmundorlik kabi fikrlash sifatleri muhim rol o'ynaydi. Fikrlar oqimi kuchayadi, turli munosabatlar bildiriladi. Barcha axborotlar, xabarlar tafakkur vositasida idrok etiladi. Tafakkuri rivojlangan kishilarning tahliliy xulosalari xato va adashishlardan yiroq, aniq va mazmunli bo'ladi.

Tahlilning to'g'ri va aniq bajarilishida tahlilchining tafakkur qobiliyati, bilimi yetakchi omil hisoblanadi. Tahlil orqali predmet turli tomondan tekshiriladi, ochib beriladi, muammolar va ularning yuzaga kelish sabab-oqibatlari belgilanadi, ularni hal etishning op-

¹Turakulova Okila Amirkulovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'limi kafedrasi dotsenti, p.f.d. (PhD)

E-manzil: toraqulova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-7783-6418

Iqtibos uchun: Turakulova, O.A. 2023. "Adabiyot darslarida tekstual-analitik tahlil asosida o'quvchilarda mutolaani rivojlantirish" O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5):

timal variantlari ishlab chiqiladi. Tahlil bilishning eng ishonchli yo'li hisoblanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "tahlil" atamasiga: "tarqalish, (kurtak) yozish; tekshirish, surishtirish; hal qilish, ochish); Narsa, hodisa va shu kabilarni mohiyat, qonuniyat va boshqa jihatlardan tekshirish, o'rganish ishi. Biror narsa, ma'lumot va shu kabilarni ma'lum nuqtai nazardan o'rganish, baholash, biror narsaning tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish"[O'TIL 2007, 40], deb izoh beriladi. Olimlar R.Samarov va X.Alimov "Tahlil murakkab tafakkur operatsiyasi hisoblanib, uning yordamida predmet va jaryonlar (hodisalar) aniq o'lchov birligiga ega bo'lgan usullar vositasida yaxlit tarzda yoki alohida qismlarini turli belgi va xususiyatlari bo'yicha aloqadorlik darajasini belgilab beradi. ...Tahlil alohida ilmiy tayyorgarlikni, turli ilmiy uslublarni maqsadli tanlash va o'rinli qo'llash, o'rganilayotgan muammo bo'yicha bilimga ega bo'lishni talab etuvchi faoliyatning murakkab turidir" [Samarov 2016, 23-28], deb ta'rif berishadi.

Ayon bo'ladiki, tahlil ko'p tarmoqli bo'lib, predmetni atroflicha bilishni, anglashni ko'zda tutadi. Inson hayotini tahliliy fikr yuritishsiz tasavvur qilish mumkin emas. Tahlil turlari ichida insonning nozik sezimlariga ta'sir o'tkazishda, unda hayrat, quvonch, zavq, shodlik, qayg'u, g'azab, nafrat, shafqat kabi bir qancha his-tuyg'ularning namoyon bo'lishida, insoniy fazilatlarni shakllantirishda, bilish darajasini yuksaltirishda badiiy asarlar tahlili eng yetakchi o'rinda turadi.

Ko'rinadiki, badiiy asar tahlili va talqini hamisha ilm egalarining diqqat markazida bo'lib kelayotgan murakkab aqliy faoliyat turidir. Badiiy asarning butun qirralari tahlil vositasidagina ochib beriladi. Tahlilchi asardagi oddiy kitobxon "ko'ra olmaydigan", fahmlamaydigan eng nozik jihatlarni ham "kashf" etadi. Har qanday tahlilning muvaffaqiyati tahlilchining tafakkur salohiyatiga, fikrlash layoqatiga, tajriba-mahoratiga qat'iy bog'liq bo'ladi. Adabiyot o'qitishda esa o'qituvchining badiiy asar tahlili kompetensiyasi ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Adabiy ta'lim oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga, asosan, badiiy asarlarni tahlillash orqali erishiladi. O'quvchining adabiy tafakkuri badiiy asar tahlili jarayonida shakllantiriladi. Badiiy asar tahlili adabiyot darslarining faoliyat mazmuni, qurilish mexanizmi, harakat strategiyasidir. Adabiyot darslarini badiiy asar tahlilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Adabiy ta'limdan o'rin olgan badiiy asar tahlil vositasidagina o'quvchining haqiqiy ma'naviy mulkiga aylanadi. "...O'quvchilarning fikrinigina emas, balki uning

tuyg'ularini, qalbini hissiyotlar olamini ham shakllantirishga ahd qilgan adabiy ta'lim badiiy tahlilsiz o'z muddaosiga erisha olmaydi" [Yo'ldoshev 1996, 68].

Xo'p, shunday ekan, adabiy ta'limni yanada yaxshilashning, badiiy asar tahlilini takomillashtirishning yana qanday yo'llari bor? Qanday pedagogik tadbirlar qo'llanilsa, o'quvchilarda badiiy asarlarni o'qishga, uqishga, tahlil etishga bo'lgan munosabatlar ijobiy tomonga yuksaladi? O'quvchilarda kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatini yanada shakllantirishning asosiy mezonini nimada?

ASOSIY QISM

Analitik tafakkur fikrlashning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra murakkab turlaridan biri bo'lib, tahlil etilayotgan obyektning atroficha o'rganish, tahlillash, maqbul qaror va xulosalar qabul qilish imkonini beradi. Analitik tafakkurning mantiq bilan qat'iy bog'langanligi uning eng muhim xarakterli jihatidir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mustaqil fikr yurita oladigan shaxsgina analitik tafakkur yurita olishi mumkin bo'ladi. Analitik tafakkur yuritish mustaqil fikrlashdan boshlanadi. Badiiy asarning analitik tahlili quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- tahlil obyekti, muammo, masala belgilanadi, motivatsiya hosil qilinadi. Badiiy asar, undan olingan parcha, badiiy obraz, asarni o'rganishning boshqa jihatlari tahlil obyekti bo'lishi mumkin;

- matn mantiqan qismlarga ajratiladi;

- matndagi har bir so'z, jumla ustida fikr yuritiladi, ma'no qatlamlari ochiladi. So'z va jumalarning zohiriy va botiniy ma'nosi, ulardan kelib chiqadigan yangi mantiqiy fikr va xulosalarga alohida e'tibor qaratiladi. Analitik fikrlash jarayonida fikrlardan yana yangi fikrlar hosil qilinadi. Fikrlarning matnga mantiqiy aloqador bo'lishi talab etiladi;

- matnda ifodalanmagan, ammo unga aloqador, tahlil obyekti "yechish", "ochish" uchun xizmat qiladigan ayrim ma'lumotlar mantiqan shakllantiriladi. Bu o'rinda tahlilchining ijodkorligi – kreativligi rol o'ynaydi;

- tahliliy fikr, xulosalar yasaladi;

- "kashf" etilgan har bir fikr va xulosa asoslab beriladi;

- eng maqbul fikr, xulosa saylab olinadi.

O'quvchining badiiy asar matni bilan to'liq tanishib chiqqan bo'lishi analitik tahlil ko'lamini va mazmunini yanada kengaytiradi. Analitik tafakkur xulosalari o'quvchi yoki o'quvchiga nasihat, masla-

hat tarzida majburan singdirilmaydi, mustaqil ravishda idrok etishga o'rgatib boriladi. Analitik tafakkur qilish jarayonida o'quvchi yoki o'quvchi o'zini go'yo detektiv voqealar girdobiga tushib qolgandek sezadi, tahlilga mohir izquvar sifatida kirishadi. Bu narsa unga yanada ilhom beradi, o'z "evrika"siga ega bo'lishga undaydi, tadqiqot ishlariga rag'bat uyg'otadi. O'quvchida tafakkurning mazmundorligi, kengligi, mustaqilligi, tashabbuskorligi, pishiqligi, mahsuldorligi, tezligi, chuqurligi kabi sifatleri qaror topadi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllanadi. Tahlilning masshtabi kengayadi, mazmuni boyiydi. Fanlararo integratsiya takomillashadi. Analitik yondashuv ustuvor bo'lgan tahlil jarayonida o'qituvchining "yuki" yengillashadi: o'quvchilarning faolligi ixtiyoriy ravishda ortadi. O'quvchida yana ko'plab badiiy asarlarni o'qish, ularni shu taxlitda tahlil qilish istagi tug'iladi. Badiiy asar tahliliga analitik yondashuv adabiy ta'limga yangicha pedagogik ruh, intellektual quvvat beradi.

Adabiy ta'limda badiiy asarni matnga tayanib, badiiy obrazlar asosida yoki mummo doirasida didaktik tahlil etish ommalashgan. Matn doirasidagi tahlil "tekstual tahlil", deb ham yuritiladi. Bunday tahlil jarayonida badiiy matn adabiyot muallimi boshqaruvida "kashf" etiladi. Ta'lim bosqichlarida Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani o'quv reja va dasturlar doirasida, mustaqil o'qish tarzida atroflicha o'rganiladi, asar bilan to'liq tanishib chiqiladi. Ushbu asardan olingan parchani analitik tafakkur vositasida tekstual tahlillash yuqorida qayd etilgan fikrlarni dalillash imkonini beradi. (Asardan olingan quyidagi parcha auditoriya doskasiga yoziladi yoki proyektor orqali tushiriladi):

... Akasi o'z gapini yedirolmagach – Qurbonbibi bilan maslahat qilib turib – masalani eshon boboga arz qildi.

Eshon avval:

- So'fi o'zi qani? – deb so'radi.

So'fining akasi:

- Uyda qoldi... Sal tishi og'ribdi... – dedi.

Eshon kuldi:

- Tishi og'ribdimi? – dedi. – bay-bay! Tish og'rig'i yomon narsa. Boring, ayting: kapponning burchagidagi sartaroshga borsin, ombir solib, darrov olib tashlaydi. Tinchiydi-qoladi... Boring, omin ollohu akbar! [Cho'lpon 2015, 16-17]

O'quvchilar berilgan parchani diqqat bilan o'qib chiqadilar. Asar matni bilan to'liq tanishish jarayonida olgan bilim va taassurotlariga tayanib, parcha ustida analitik tafakkur yuritadilar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tekstual tahlil jarayonida har bir so'z, jumla usti-

da mantiqiy fikrlash harakati boshlanadi:

- *"Akasi"* – begona odam emas, tug'ishgani, jigari; eng yaqin odami – qarindosh;

- *"yedirolmagach"* – shevaga xos so'z, so'z va gapini uqtirolmagach, tushuntira olmagach, suhbatdosh o'z fikrlarini tinglovchiga yetkazib bera olmaganida, nima demoqchi ekanini yoritib bera olmaganida *"gapini yedirolmadi"*, deb aytiladi. *"Gapini yedirolmaslik"* so'zlovchining nutqi ta'sirchan emasligidan, ifodaviy kamchiligidan, so'zlovchining kommunikativ layoqati yuqori emasligidan yoki shu suhbat jarayonida *"topib gapira olmaganidan"* (Yaxshi topib gapiradi,...) darak beradi;

- *"yedirolmagach"* – bu so'z zamirida tinglovchining suhbatdoshga, uning gap-so'zlari, aytayotgan fikrlariga munosabati ham aks etadi. Tinglovchi gap uqmas, qaysar, tor fikrlaydigan bo'lishi mumkin. Tahlil etilayotgan matn doirasida olib qaraladigan bo'lsa, tinglovchi – Razzoq so'fi akasining barcha gaplarini, fikrlarini, orzu-maqсадlarini juda yaxshi tushunadi, hamma narsaga aqli yetadi. Ammo undagi qaysarlik, xudbinlik *"Akasi o'z gapini yedirolmagach"* holatiga sabab bo'ladi. *"yedirolmagach"* so'zi ustida analitik fikr yuritish so'zlovchi haqida ham, tinglovchi haqida ham mantiqiy fikrlar, xulosalar yasashga imkon beradi;

- *"Eshon avval: So'fi o'zi qani? – deb so'radi"* jumlasida ustida analitik fikr yuritish yana yangi mantiqiy fikrlarni hosil qilishga turtki beradi. o'quvchilar Eshon boboning masalaga kirishishdan avval nima uchun Razzoq so'fining o'zini yo'qlayotgani, surishtirayotgani sababini aniqlashga kirishadilar. Analitik fikrlash ularda tomonlar biror masalani hal etayotganilarida shaxsan ishtirok etishlari talab etiladi, bu o'zaro hurmatni anglatadi, turli noxush holatlarning oldini oladi kabi yana bir qancha yangi fikrlarning tug'ilishiga zamin yaratadi;

- *"Eshon kuldi"*. Analitik tafakkur vositasida *"Eshon kuldi"* gapining ma'nolari idrok etiladi. Eshon boboning kulishi *"kim-saning ustidan kulish"*, *"masxara qilish"*, *"mazax"*, *"piching"*, *"kinoya"* ma'nosini anglatadi. Bu kulish zamirida Razzoq so'fining quvligiga, ayyorligiga ishora ham yashiringan. Atrofdagi odamlarga, ularning gap-so'zlariga, murojaatlariga beparvolik, bepisandlikni bildirish *"kulish"* orqali ham amalga oshiriladi. *"Eshon kuldi"*- Eshon boboning fe'l-atvorida kalondimog'lik, manmanmanlik kabi qusurlar mavjudligidan xabar beradi;

- Bu tahliliy fikrlash o'quvchilarning tarixiy tafakkurini yanada rivojlantiradi. Parcha yuzasidan analitik tafakkur yuritish bu

bilan to'xtab qolmaydi. "Kashf" etilgan fikrlardan yangi fikrlar, mulohazalar, munosabatlar paydo bo'ladi. O'zaro bahs-munozara qiziydi. Bu narsa ta'lim sifati va samadorligini oshiradi.

E'tibor berilsa, asardan olingan kichik bir parcha tahliliga analitik yondashuv juda ko'p mantiqiy fikrlarning, xulosalarning yuza kelishiga sabab bo'layotgani ayon bo'ladi. Badiiy asar tahliliga analitik yondashuv o'quvchida tadqiqotchilik, izlanuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi. Badiiy asar tahlilini nazariyotchi va metodist olimlar yaratgan boy bilim hamda tajribalarni tahlilga analitik yondashuv bilan uyg'un takomillashtirish adabiyot o'qitishni yangi bosqichga ko'taradi.

To'g'ri, o'quvchilar badiiy asar tahlili jarayonida birdaniga analitik tafakkur yuritish imkoniyatiga ega bo'lmasliklari mumkin, lekin bundan aslo ortga chekinish kerak emas. Ma'lum vaqt o'qituvchidan pedagogik mehnat, metodik izlanish talab etiladi, sekin-asta o'quvchilarda analitik fikrlash ko'nikmasi, malakasi hosil bo'ladi. O'qituvchi konseptual savol va topshiriqlar vositasida o'quvchilar tafakkurini harakatga keltiradi, ularni fikrlashga undaydi.

XULOSA

Badiiy asar tahlili, avvalo, badiiy asarni o'qishdan, u bilan tanishishdan boshlanadi.

Anglashiladiki, badiiy asar tahlili, avvalo, tahlil haqida tafakkur qilishdan boshlanadi: tahlilchi tahlil "xaritasini" fikran chizib oladi, maqsad va vazifalarni aniq belgilaydi. Har qanday asar tahliliga uni "kashf etaman", deb kirishiladi. Kashfiyotchilik ruhi tahlilchini ilhomlantiradi, asarni chuqurroq tadqiq etishga undaydi. Badiiy asar tahlilining muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- tahlilchining intellektual salohiyati, tafakkuriy sifatlarga egaligi;
- tahlil turi: ilmiy yoki o'quv tahlili ekani;
- adibning ijodiy uslubi;
- tahlil etilayotgan asarning qanday adabiy an'analar va mafkuraviy voqelik muhitida yaratilgani;
- tahlil etilayotgan asarning milliy yoki boshqa xalqlar adabiyoti namunasi ekani;
- tahlil etilayotgan asarning tur va janri;
- asar yo'nalishi: fantastik, detektiv, tasavvufiy...;
- tahlilning makon va zamoni...

Adabiyot darslarida badiiy asar tahlilida asar mazmunidan ko'ra ko'proq g'oyasiga, tag ma'nosiga e'tibor beriladi. Ona tili

darslarida kichik bir badiiy matn ustida bu darajada ish olib borilmaydi. Adabiy o'qish darslarida obrazlar ustidagi ishlar ustuvorlik kasb etadi. Obrazlar so'zlar vositasida vujudga keltiriladi. Ana shunday so'zlar bir gap misolida ham kuzatilishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, analitik tekstual tahlil ikki tomonlama samaradorlik keltiradi: birinchidan tahlilning ilmiy-pedagogik ahamiyati yuksaladi, tahlildan ko'zlangan maqsad va vazifalarga erishiladi, ikkinchi tomondan, tahlilchining (o'quvchining) analitik tafakkur yuritish qobiliyati shakllanadi. Badiiy asarlarni analitik tahlil qilish uquviga ega bo'lgan o'quvchi ijtimoiy hayotda hamma masala doirasida atroflicha fikrlaydigan, aniq tafakkur yuritadigan, to'g'ri xulosa va qaror qabul qilish odatini kasb etadi.

Adabiyotlar

- Мирзиёев, Ш.М. 2017. *Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз*. – Тошкент: Ўзбекистон.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori. 2017-yil 13-sentabr.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2007. Тўртинчи жилд. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти.
- Самаров, Р.С., Алимов, Х. 2016. *Олий таълим жараёнини бошқаришда тизимли таҳлил ва қарорлар қабул қилиш технологиялари. Ўқув-услубий мажмуа*. – Тошкент: 23-28-бетлар.
- Қозоқбой, Йўлдош, Муҳайё, Йўлдош. 2016. *Бадий таҳлил асослари*. - Тошкент: "KAMALAK", – 140 б.
- Йўлдошев, Қ. 1996. *Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари*. Тошкент: "Ўқитувчи".
- Қуронов, Д. *Адабий таълим ҳақида айрим мулоҳазалар*. // Электрон манба: <http://quronov.narod.ru/dmaqk2.html>.
- Abu Nasr Forobiy. 2016. *Fozil odamlar shahri*. – Тошкент. Ziyonet.uz/ru/book"Mahbub ul-qulub"- dillarimiz obodligi
- Чўлпон. 2015. *Кеча ва кундуз*: Роман. – Тошкент: "Янги аср авлоди".
- Turakulova, O.A. 2020. *Reading in students during textual analysis as a means of developing culture*. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, ISSN: 1475-7192. <https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/11/Full-Paper-READING-IN-STUDENTS-DURING-TEXTUAL-ANALYSIS-AS-A-MEANS-OF-DEVELOPING-CULTURE.pdf>
- Turakulova, O.A. 2020. *Students during textual analysis as a means of developing culture*. European Journal of Research and Reflection

in Educational Sciences. – Great Britain, – No.10. – P.181-188.
(13.00.00. № 3).<https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/11/Abstract-READING-IN-STUDENTS-DURING-TEXTUAL-ANALYSIS-AS-A-MEANS-OF-DEVELOPING-CULTURE.pdf>

THE DEVELOPMENT OF READING COMPREHENSION AMONG STUDENTS BASED ON ANALYTICAL ANALYSIS IN LITERATURE LESSONS

Okila Turakulova¹

Abstract

This article highlights specific methods of developing book reading among students in literature lessons and shows that the effectiveness of literature lessons in the development of reading, an analytical approach to the educational and didactic analysis of a work of art is one of the important factors in the modernization of literary education.

Key words: *book, reading, analytical approach, educational and didactic analysis, research, inquiry, logical thinking, conceptual question.*

Reference

- Mirziyoev, Sh.M. 2017. *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz.* – Toshkent: O'zbekiston.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida*"gi Qarori. 2017-yil 13-sentabr.
- O'zbek tilining izohli lug'ati.* 2007. To'rtinchi jild. Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.
- Samarov, R.S., Alimov, X. 2016. *Oliy ta'lim jarayonini boshqarishda tizimli tahlil va qarorlar qabul qilish texnologiyalari.* O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: 23-28-betlar.

¹Turakulova Okila Amirkulovna – Tashkent State University of Uzbek Language named after Alisher Navoi Professor of the Department of Uzbek Language Teaching in Foreign Language Groups of the University of Uzbek Literature p.f.D. (PhD)

E-mail: toraqulova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-7783-6418

For reference: Turakulova, O.A. 2023. "*The development of reading comprehension among students based on analytical analysis in literature lessons*" Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 1(5):

- Qozoqboy, Yo'ldosh, Muhayyo, Yo'ldosh. 2016. *Badiiy tahlil asoslari*. - Toshkent: "KAMALAK", - 140 b.
- Yo'ldoshev, Q. 1996. *Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari*. Toshkent: "O'qituvchi".
- Quronov, D. Adabiy ta'lim haqida ayrim mulohazalar. // Elektron manba: <http://quronov.narod.ru/dmaqk2.html>
- Abu Nasr Forobiy. 2016. *Fozil odamlar shahri*. - Toshkent.
- Ziyonet.uz/ru/book"Mahbub ul-qulub" - dillarimiz obodligi
- Cho'lpon. 2015. *Kecha va kunduz*: Roman. - Toshkent: "Yangi asr avlodi".
- Turakulova, O.A. 2020. *Reading in students during textual analysis as a means of developing culture*. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, ISSN: 1475-7192. <https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/11/Full-Paper-READING-IN-STUDENTS-DURING-TEXTUAL-ANALYSIS-AS-A-MEANS-OF-DEVELOPING-CULTURE.pdf>
- Turakulova, O.A. 2020. *Students during textual analysis as a means of developing culture*. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - Great Britain, - No.10. - P.181-188. (13.00.00. № 3). <https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/11/Abstract-READING-IN-STUDENTS-DURING-TEXTUAL-ANALYSIS-AS-A-MEANS-OF-DEVELOPING-CULTURE.pdf>

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochtasiga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki mualliftomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any

opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE
Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text (“As of July 19, 2008, the McDonald’s Corporation listed on its website . . .”). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. “Google Privacy Policy.” Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald’s Corporation. 2008. “McDonald’s Happy Meal Toy Safety Facts.” <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald’s 2008]

IZOHLAR

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.06.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasi.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.